

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

Fakultet: Magistratura bo‘limi
Kafedra: Xalqaro turizm va turizm servisi

«Himoyaga tavsiya etildi»
Kafedra mudiri, PhD
D.Z.Norkulova_____
“28” may 2020 y.
Bayonnoma № 10

Qo‘lyozma huquqida
UDK 338.48:64024

XAMDAMOVA MOXINUR AKOBIROVNA
“O‘ZBEKISTONDA OILAVIY TURISTLARGA TURISTIK
XIZMATLAR KO‘RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH”
mavzusidagi magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: PhD,
Norqulova Dilfuza Zohidovna

SAMARQAND – 2020

MUNDARIJA:

KIRISH		3
I-BOB.	OILAVIY TURISTLARGA TURISTIK XIZMATLAR KO'RSATISHNING NAZARIY ASOSLARI	
1.1	Oilaviy turizm tushunchasi va mohiyati	9
1.2	Oilaviy turizm bozorida iste'molchilar segmentatsiyasi	13
1.3	Oilaviy turizmni tashkil etishda xalqaro tashkilotlarning o'rni	23
II-BOB	O'ZBEKISTONDA OILAVIY TURISTLARGA TURISTIK XIZMATLAR KO'RSATISHNI TASHKIL ETISH ASOSLARI	
2.1	Oilaviy turistlarga turistik xizmatlar ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlari	34
2.2	O'zbekistonda oilaviy turistlarga turistik xizmatlar tashkil etishning huquqiy asoslari	40
2.3	O'zbekistonda oilaviy turistlarga turistik xizmatlar tashkil etishda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni va ahamiyati	51
III-BOB	O'ZBEKISTONDA OILAVIY TURISTLARGA TURISTIK XIZMATLAR KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	
3.1	Oilaviy turistlarga xizmat ko'rsatishni takomillashtirishda mobil ilovalardan samarali foydalanishni tashkil etish yo'llari	62
3.2	Turizmni rivojlantirishda yangi tur marshrutlar taklif etish	
3.3	Ekoturizm xizmatlar bozorida oilaviy turistlar ulushini oshirish yo'llari	
	XULOSA VA TAKLIFLAR	
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	
	ILOVA	

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va dolzarbligi. Turizm dunyo mamlakatlari buyicha eng tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan va jahon xo'jaligi tarkibida ulushi tobora ortib borayotgan tarmoq hisoblanadi. Qisqa davr mobaynida u ayrim mamlakatlarda milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biriga, milliy daromadni shakllantirishning asosiy manbaiga aylandi.

O'zbekistonning turizm sohasidagi imkoniyatlari juda katta va bu imkoniyatlardan to'la foydalanishga erishilsa, tarmoqning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi turizm yuqori rivojlangan va turistik bozorda peshqadamlik qilayotgan mamlakatlar safidan o'rin olish uchun imkoniyatlar mavjud. Bugungi kunda mamlakatimizda turizm jadallik bilan rivojlanib bormoqda va shu kunga qadar turizm sohasida ko'plab farmon, qaror va yangiliklar kuzatildi. Xususan, mamlakatimiz Prezidentining 2016-yil 2-dekabrda [“O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”¹](#) gi farmoni bu sohada muhim dasturi amal bo'ldi.

Ushbu farmonni ijrosini ta'minlash maqsadida mamlakatimizda turizmni jadal rivojlantirish, mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish, an'anaviy madaniy-tarixiy turizm bilan birgalikda turizmning boshqa salohiyatli turlarini — **ziyosat qilish**, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolash-sog'lomlashtirish, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik turizmi va boshqa turlarini jadal rivojlantirish, bolalar, o'smirlar va yoshlar turizmini, **oilaviy turizmni**, keksalar uchun ijtimoiy turizmni rivojlantirish hisobiga turizmning ijtimoiy ahamiyatini kuchaytirish, hududlarda yangi turizm yo'nalishlarini tashkil etish, ularni pasportlashtirish, turizm yo'nalishlari va turizm obyektlari bo'yicha yagona milliy reyestrlarni shakllantirishga yo'naltirilgan ichki, kirish va chiqish turizmini kompleks rivojlantirishning

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida” gi farmoni, PF-4861-son, 02.12.2016 yil.

milliy va hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish kabi ustuvor vazifalar turizm sohasi vakillarining o'z oldiga qo'yildi.

Yuqoridagi biz mutaxassislar oldiga qo'yilgan vazifalardan biri oilaviy turizmni rivojlantirish jamiyatning yanada birlashishi, ayniqsa, oilani mustahkamlashida katta ahamiyatga ega ekanligi xalqaro tajribalarda ham e'tirof etilgan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1993 yil 20 sentyabrdagi yalpi yig'ilishida 1994 yildan boshlab 15 mayni "Xalqaro oila kuni" sifatida nishonlashga kelishilganligini o'zi ham bu masalani xalqaro miqiyosida qanchalik dolzarb ekanligidan dalolat berib turibdi. Barcha davrlarda ham davlat va jamiyat g'amxo'rligi oilalarning mustahkamligi va tinchligiga asos bo'lgan. Shu bois mamlakatimizda 1998 yil "Oila yili", 2012 yil "Mustahkam oila yili", 2016 yil "Sog'lom bola va ona yili" deb e'lon qilinganligi hamda Respublikamizda oila institutini mustahkamlash konsepsiyasi qabul qilinishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.06.2018 yildagi PQ-3808-son qarori² bilan uning ustuvor vazifalari va amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar tasdiqlanishi, shuningdek, 2019 yildan boshlab har yili 15 mayda mamlakatimizda Xalqaro oila kuni nishonlanishi davlatimizdagi oilaviy muhit va uni mustahkamlash uchun qilinayotgan amaldagi sa'y-harakatlarning yaqqol na'munasidir.

Darhaqiqat, O'zbekistonda oilaviy turistlarga turistik xizmatlar ko'rsatishda anchagina kamchilik va muammolar mavjud. Ushbu muammolarning mavjudligi va ularni hal qilishning ob'ektiv zarurat ekanligi O'zbekistonda oilaviy turistlarga turistik xizmatlarni takomillashtirish tadqiqotiga bag'ishlangan mazkur mavzusining dolzarbligidan dalolat beradi.

Tadqiqotning ob'ekti va predmeti. Tadqiqot **ob'ekti** O'zbekiston Respublikasi hududlaridagi oilaviy turizm ob'ektlari va oilaviy turizm bozori hisoblanadi.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori PQ-3808-son. 27.06.2018 yil

Tatqiqot **predmeti** O'zbekistonda oilaviy turistlarga turistik xizmatlarni ko'rsatishni takomillashtirish va ularni tahlil qilish yo'llarini rivojlantirishga asoslangan.

Magistrlik dissertatsiyasining maqsadi. O'zbekistonda oilaviy turistlarga turistik xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirishda mavjud muammolarni aniqlash va ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Magistrlik dissertatsiyasining vazifalari:

1. Oilaviy turizm tushunchasi, shakllari va oilaviy turistlarga turistik xizmatlar ko'rsatishni o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish.
2. Oilaviy turizm bozorida iste'molchilar segmentatsiyasini o'rganish.
3. Oilaviy turizmni rivojlantirishda xorij tajribasini o'rganish va tahlil qilish.
4. O'zbekistonda oilaviy turistlarga turistik xizmatlar tashkil etishning huquqiy asoslarini o'rganish va ishlab chiqish.
5. Oilaviy turistlarga xizmat ko'rsatishni takomillashtirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishni tashkil etish yo'llarini ishlab chiqish.
6. Oilaviy turizmni rivojlantirishda yangi tur marshrutlar taklif etish.
7. Ekoturizm xizmatlar bozorida oilaviy turistlar ulushini oshirish yo'llarini aniqlash.
8. O'zbekistonda oilaviy turistlarga turistik xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirish yo'llari haqida taklif va tavsiyalar berish.

Tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi. Dissertatsiya mavzusining ilmiy jihatdan yangilik darajasi quyidagilardan iborat:

1. Mamlakatimiz va xorij olimlarining asarlarini o'rgangan holda oilaviy turizm tushunchasiga ta'rif berilganligi;
2. Oilaviy turizm bozorida iste'molchilar segmentatsiyasini ishlab chiqilganligi;

3. Oilaviy turistlarga turistik xizmatlar ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilganligi;
4. Oilaviy turizmni rivojlantirishda xorij tajribasi o'rganilganligi va tahlil qilinganligi;
5. Oilaviy turistlarga xizmat ko'rsatishni takomillashtirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishni tashkil etish yo'llarini ishlab chiqilganligi;
6. Oilaviy turistlarga turistik xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirish maqsadida yangi tur marshrutlar taklif etilganligi;
7. Ekoturizm xizmatlar bozorida oilaviy turistlar ulushini oshirish yo'llari aniqlanganligi;
8. Oilaviy turistlarga turistik xizmat ko'rsatishni takomillashtirishda mobil ilovalardan samarali foydalanishni tashkil etilganligi;
9. O'zbekistonda oilaviy turistlarga turistik xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirish yo'llari haqida taklif va tavsiyalar berilganligi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi tadqiqotlari bilan bir qancha MDH mamlakatlari olimlari shug'ullanib kelmoqdalar. Bular jumlasiga M.B.Birjakov, S.M.Senin, T.T.Xristov, V.S.Bogolyubov va V.P.Orlovskaya, N.I.Kabushkin, V.A.Kvartalnov, A.Durovich, T.G.Kiseleva, M.I.Bolotova, O.I. Belyakov, I.V.Mesheryakova³ kabilarini kiritish mumkin.

Respublikamiz olimlaridan M.Q.Pardayev, I.S.Tuxliyev, M.R.Usmonov, M.M.Muxammedov, D.K.Usmanova, M.Xoshimov, A.Norchayev, B.To'rayev M.R.Boltabayev, B.SH.Safarov, S.A.Abduxamidov, D.Z.Norqulova⁴ kabilarning asarlarida turizm sohasini rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan.

³ Киселева Т.Г. Социально-культурная деятельность. - М.: Мгуки, 2004. - 539 с; Болотова М.И. Организация семейного досуга в образовательной среде учреждения дополнительного образования детей. - М.: Компания Спутник+, 2005. - 52 с; Беляков О.И., Мещерякова И.В. Известия Пензенского государственного педагогического университета им. В.Г. Белинского. Общественные науки. - 2012. - Выпуск №28. - С.690-693. Семейный туризм как форма досуговой деятельности; Талалаева Г.В. Разработка инновационных технологий в сфере социального менеджмента // Успехи современного естествознания. - 2007. - №12. - С.511-512.

⁴ Тухлиев И.С., Кудратов Ф.Х., Пардаев М.К. Экологик туризм асослари. – Т.: “Наврўз” нашриёти, 2015. – 96 бет., Пардаев М.К., Холикулов А.Н., 2013. – 212 б., Ташмуродов Т. Халқаро туризм. Тошкент

Ushbu olimlar ilmiy izlanishlarida turizm sohasi va mehmonxona xo‘jaliklarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, ularning mamlakatimiz va hududlardagi o‘ziga xos xususiyatlari, sohaga innovatsiyalarni joriy qilish va samaradorligini oshirish muammolari o‘z ifodasini topgan. Mazkur tadqiqotlarda turistik korxona va tashkilotlar faoliyatiga oid masalalar turizmning infratuzilmasi sifatida qarab chiqilgan. Sohada xizmatlar sifati va samaradorligini oshirish masalalari, ularni baholash va tahlil qilish yo‘llari alohida tadqiqot ob‘ekti sifatida kam o‘rganilgan. Aynan shu holat mazkur dissertatsiya ishining maqsad va vazifalarini belgilashga asos bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqot metodlari. Iqtisodiy va boshqaruv jarayonlarini tadqiq etish, qiyoslash, tizimli yondashuv, mantiqiy statistik tahlil, sotsiologik so‘rov va ekspert baholash usullardan foydalanildi.

Dissertatsiya ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mavzu bevosita respublikada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlariga to‘g‘ri keladi. Tadqiqot ishi Samarqand Iqtisodiyot va Servis institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bevosita bog‘langan.

Tadqiqotning nazariy-uslubiy asosi. Dissertatsiya ishida O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, mamlakatimiz Prezidenti SH.M. Mirziyoyev asarlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish Davlat qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining me‘yoriy va yo‘riq hujjatlari, shuningdek, tadqiqot ishida mamlakatimiz va xorijiy iqtisodchi olimlarning

ТошДИУ, 2001. – 64 б. Кудратов Ф.Х., Тухлиев И.С. Туризм иктисодиёти. Самарқанд, СамИСИ. 2007. – 71 б., Тухлиев И.С., Туризм асослари. Самарқанд. СамИСИ. 2008. – 226 б., Алиева М.Т., Умаржоноа А. Туристик мамлакатлар иқтисодиёти. Тошкент, Молия. 2005.– 339 б., Хаитбоев Р., Сатторов А. Туризм маршрутларини ишлаб чиқиш технологияси. Самарқанд, СамИСИ. 2009. – 83 б. Boltabayev M.R., Tuxliyev I.S., Safarov B.Sh., Abduxamidov S.A. Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik. – T.: “Fan va texnologiya”, 2018 y.; Norqulova D. “O‘zbekistonda sotsial turizm xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish” mavzusidagi iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (doctor of philosophy) dissertatsiyasi. 2018 y.;

Сочи туризм ва курорт давлат университети тадқиқотчиси Шус Денис Васильевичнинг “Социал туризмни ташкиллаштиришнинг иқтисодий-институтционал механизmlари” мавзусидаги диссертацияси.

mavzu doirasidagi ilmiy ishlari, tavsiyalari va ularda qo'llanilgan uslubiy tamoyillar asos qilib olindi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati tatbiqi. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya ishining ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalaridan O'zbekistonda oilaviy turizmni rivojlantirishga to'siq bo'layotgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha huquqiy-me'yoriy asoslarini va oilaviy turizm xizmatlar bozorini takomillashtirishning konseptul yo'nalishlarini tadqiq etishga bag'ishlangan maxsus ilmiy ishlarda manba sifatida foydalanilishi mumkin. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiya ishi g'oyalari va materiallaridan oliy o'quv yurtlarida "Turizm", "Turistik xizmatlar bozori", "Turizmدا innovatsion faoliyat" fanlari bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish, darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar tayyorlash va o'qitishda foydalanish mumkin.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 100 bet, 2 ta jadval, 2 ta chizma, 15 ta rasm va 1 ta diogrammani o'z ichiga oladi.

Dissertatsiyaning kirish qismida tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekti, predmeti, ilmiy-amaliy ahamiyati asoslab berilgan.

I.BOB. OILAVIY TURISTLARGA TURISTIK XIZMATLAR KO'RSATISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Oilaviy turizm tushunchasi va mohiyati

Oila – nafaqat bir yurtning, balki umuminsoniyatning katta siyosati. Oilaning eng birlamchi va bevosita vazifasi – insoniyatning zanjirini sog‘lom va iqtidorli avlodlar bilan ulab borishdan iborat. Oila – hamma millat, hamma davlat, hamma xalqlar zimmasidagi sharaflı vazifa. Butun dunyoda yashovchi xalqlar uchun oila qadim-qadimdan muqaddas qo‘rg‘on hisoblangan. Shuning uchun ham dunyoda yashovchi barcha xalqlarning nashr etgan behisob adabiyotlari ichida oila, oilaviy munosabatlar, oilaning jamiyatda tutgan o‘rni xususida alohida varaqlardan tortib, katta-katta ensiklopediyalargacha, hukumat qarorlari, nizomlaridan tortib, kodekslarga uchratish mumkin.

Oila muqaddas va buyuk ne‘mat hisoblangani uchun ham juda ko‘p donishmandlar oila tuzish mamlakatni tashkil qilish kabi muhim deb biladilar. Oilaning barqarorligi va baxtli hayoti – shu mamlakatning yuzi, obro‘yi deb qaraladi. Taraqqiy etgan davlatlarning o‘z mamlakatlarida oilaga bunday katta e‘tibor berishi, turli yo‘llar bilan uning nufuzini ko‘tarishga intilishi aslo bejiz emas.

Voyaga yetayotgan har bir kishi oila to‘g‘risida bilishi lozim. Ana shu bilim va istak ularning o‘z oilalarini ko‘rkam tuzuvlariga, shu kichkina mamlakatlarni to‘g‘ri boshqaruvlariga yordam beradi. Oilada rohatli umr kechirish – barakotli umr kechirish demakdir.

Bordi-yu oila yaxshi bo‘lmasa, tarbiyaga ham e‘tibor berilmasa, qancha buyuk bo‘lsa ham, bunday millat dunyoda uzoq yashay olmaydi. Buni donishmandlar ko‘p ta’kidlashgan: “Millatlar sharaflini yuqori martabaga ko‘taradigan narsa millionlar ila sanaladigan askarlar-u, dunyoda eng buyuk va zo‘r bo‘lgan kemalar emas, balki eng oz e‘tibor beradiganimiz yo bo‘lmasa, hech bir zamon e‘tibor bermasdan qoladiganimiz – oiladir. Oila nizomsiz bo‘lsa,

uning yomon oqibati butun millatga ta'sir etadi va shu sababdan fazilat yeriga razolat, taraqqiyot o'rniga tubanlik negiz quradi... Agar bir millatga bunday hol ro'baro' kelsa, u millat kitobining so'nggi varag'i ochiladi...’’⁵.

Shuning uchun ham hamma asrlarda, hamma xalq va millatlarda dunyoning buyuk olim va fuzalolari, taniqli adiblari umrlarining oxirigacha qimmatli soatlarini oilani yaratish, uni barqarorlashtirish, insonni eng noyob farog'atdan bahramand qilish baxtiga muyassar etish ustida bosh qotirib o'tkazadilar.

Oilaviy dam olishni tashkil qilish, oilaviy sayohat qilish, umuman, oilaviy turizmni rivojlantirish oiladagi barqarorlikni, hamjihatlikni, inoqlilikni mustahkamlashga va ajralishlarning oldini olishga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Sababi oilaviy dam olish – bu har bir oila a'zosining psixologiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Oilaviy sayohatga chiqqanda o'z-o'zidan o'zaro oilaviy hamjihatlikka erishiladi va yangi joylarni, turli maskanlarni ko'rgan yosh avlod esa dunyoqarashi keng bo'lib voyaga yetishiga zamin yaratiladi.

Oilaviy turizm to'g'risida olimlarning turlicha qarashlari mavjud bo'lib, ular haqida to'xtalmoqchimiz:

T.G. Kiselevaning fikricha oilaviy dam olish faoliyati – oila a'zolari o'rtasida hissiy birlashuvni, samimiylilikni, iliqlikni ta'minlaydi va bu esa oilalarning mustahkamlanishuviga zamin yaratadi. Muallif oilaviy turizmni quyidagi formula asosida ta'riflab o'tgan: oila-bolalar, oila-oila, bolalar-o'smirlar-kattalar ⁶;

M.I. Bolotovaning fikricha oilaviy turizm – bu pedagogik va sotsialogik fenomen bo'lib, tarbiyaga va shaxsiy rivojlanishga ta'sir ko'rsatadigan va oilaning har bir a'zosining individual ehtiyojlarini qondiradigan jarayondir ⁷;

O.I.Belyakov va I.V.Mesheryakovaning fikricha oilaviy turizm – bu bo'sh vaqtda sodir bo'lib, doimiy istiqomat joyidan uzoqda, bitta yoki bir nechta oila

⁵<http://taqvim.uz/ru/library/view/64>

⁶Киселева Т.Г. Социально-культурная деятельность. - М.: Мгуки, 2004. - 539 с

⁷Болотова М.И. Организация семейного досуга в образовательной среде учреждения дополнительного образования детей. - М.: Компания Спутник+, 2005. - 52 с

guruhlarining turizm uyushtirishlari va har bir oila a'zolarining ehtiyojlari qondirilishidir. Turizmning bu turi oilaning madaniy va ma'naviy ehtiyojlarini qondiradigan, ularning bo'sh vaqtlarini qiziqarli, xilma-xil o'tkazish imkonini beradigan va oilaviy munosabatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan jarayondir ⁸;

Turizmning ijtimoiy turlari (oilaviy turizmni o'z ichiga olgan) nafaqat shaxslararo muloqotning yuqori intensivligini, balki avlodlar o'rtasida muloqotni rivojlanishiga hissa qo'shadi. G.V.Talalayeva oilaviy turizmni "bobo-buvilar va nabiralar" shaklida rivojlantirishni taklif qildi. Muallifning fikriga ko'ra, ushbu turdagi ijtimoiy turizm har bir rivojlangan mamlakat uchun dolzarb hisoblanadi. Buning sababi butun dunyoda hozirgi davrda avlodlarning keksayib qolish muammosi yuz tutganligi sababli qari insonlar va yosh avlodning samarali vaqtini o'tkazish muhim ekanligidadir ⁹.

Oilaviy turizm nisbatan yangi turizm turi hisoblanadi. Bu ota-onalar va bolalarning birgalikda sayohat qilishini nazarda tutadi, shuning uchun uni nafaqat dam olish shakli, balki ta'lim vositasi deb ham hisoblash mumkin ¹⁰.

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rishimiz mumkinki oilaviy turizmning tushunchasiga turli olimlar turlicha o'z fikrlarini bildirishgan. Masalan, T.G.Kiseleva, O.T.Belyakov, I.V.Mesheryakovalar oilaviy turizm oilani mustahkamlovchi vosita ekanligiga ko'proq e'tibor bergan bo'lsalar, M.I.Bolotova esa oilaviy turizm bolalar tarbiyasiga ijobiy ta'sir etishiga e'tibor qaratgan. G.V.Talalayeva esa bobo-buvi va nabiralar oilaviy turizmi haqida ko'proq fikr yuritgan.

Bizning fikrimizcha oilaviy turizm – bu oila a'zolarining (bolalarsiz yoki bolalar bilan) yoki bir-nechta oila guruhlarining doimiy istiqomat joyidan uzoqda, bo'sh vaqtlarida va o'z xohishlari bilan, sog'lomlashtirish, dam olish, hordiq chiqarish, tanishish, bir-biri bilan ruhan yaqinlashish maqsadlarida

⁸Беляков О.И., Мещерякова И.В. Известия Пензенского государственного педагогического университета им. В.Г. Белинского. Общественные науки. - 2012. - Выпуск №28. - С.690-693. Семейный туризм как форма досуговой деятельности.

⁹Талалаева Г.В. Разработка инновационных технологий в сфере социального менеджмента // Успехи современного естествознания. - 2007. - №12. - С.511-512.

¹⁰<https://travelluxtour.info/vidy-turizma/semiyni-turizm/>

birgalikda vaqt o'tkazish, turizm maqsadlarini amalga oshirish va oilaning har bir a'zosining ehtiyojini to'laqonli qondirishidir.

Butunjahon Turizm Tashkilotining oilaviy turizm formulasiga – bu 11 yoshgacha farzandlari bor bo'lgan oilalarning sayohatidir ¹¹.

Oilaviy dam olishlar har xil ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

- havaskor sinflarga qatnashish (gulchilik qilish, hayvonlarni parvarish qilish, ijodiy (she'riyat bilan shug'ullanish, musiqa ijro etish, qo'shiq kuylash) badiiy (kashtachilik, suratga olish), texnik (chizmalar chizish va h.k);
- audiovizual axborotlarni qabul qilish (televizor tomosha qilish, internetda ishlash va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali);
- birgalikda uyda badiiy chiqishlarni tashkil etish (teatrlashtirilgan tadbirlarni, qo'g'irchoq teatrlarini, o'yinlar , bayramlar tashkil etish);
- uydan tashqari dam olishlarni tashkil etish (oilaviy turizm);
- sportga oid oilaviy turizmni tashkil etish (ommaviy poygalar, plyaj turnirlari, fitnes klublariga tashrif buyurish va h.k)
- teatrlar, muzeylar, kinoteatrlar, konsertlar va boshqa madaniy-ko'ngilochar tadbirlarga birgalikda tashriflar;
- ommaviy tantanalar va ko'ngilochar tadbirlarda ishtirok etish;
- oilaviy bayramlarni va marosimlarni o'tkazish (to'y, tug'ilgan kun va hokazo)¹²

Uydan tashqarida dam olishning yana bir turi turizmdir. Turizm - bo'sh vaqtdan foydalanish bilan chambarchas bog'liq bo'lgan alohida faoliyat turi hisoblanadi. Turizm turlarining ko'plab tasniflari ishlab chiqilgan. Bulardan eng rivojlanayotganlaridan biri oilaviy turizm hisoblanadi.

¹¹<http://www2.unwto.org/ru/home>

¹² Семейный туризм, особенности, организация и география семейного туризма [Электронный ресурс]
Режим доступа: <http://travelluxtour.info/vidy-turizma/semeinyi-turizm>

1.2. Oilaviy turizm bozorida iste'molchilar segmentatsiyasi

Turizm bozorida iste'molchilar segmentatsiyasi turli-tuman bo'lib, turistlarning oilaviy sayohat qilishlari ham bir necha shakllarda amalga oshiriladi. Quyida ularni sanab o'tamiz:

1. Bolalarning soni bo'yicha:

- farzandsiz oilalarning sayohati (ushbu oilaga mehmonxona nomeridagi oddiy standart nomerlar ham to'g'ri keladi);
- kichik oilalarning sayohati (bir, ikki farzandli-ushbu turdagi oilalarda nomerlarga kravatchalar joylashtirib qabul qilish mumkin);
- katta oilalarning sayohati (uch va undan ortiq farzandli-bu oilalar esa sayohat vaqtida katej yoki villalar , apartament nomerlarni ijaraga oladilar).

2. Oilaviy turistlarning tarkibi bo'yicha:

- ota-onalari bor oilalarning sayohati;
- otasiz oilalarning sayohati;
- onasiz oilalarning sayohati;
- farzandsiz oilalarning sayohati;
- farzandli oilalarning sayohati;
- bobo-buvili oilalarning sayohati;
- bir nechta oila guruhlarining sayohati (oilaviy do'stlar) va h.k.

3. Oilada yetakchilikning turiga ko'ra:

- ota hukmron bo'lgan oilalarning sayohati;
- ona hukmron bo'lgan oilalarning sayohati.

4. Ijtimoiy tarkibiga ko'ra:

- turli millat egalari bo'lgan oilaviy sayohatlar;
- turli din egalari bo'lgan oilaviy sayohatlar va h.k.

5. Oilaviy tajribasiga ko'ra:

- yosh oilalarning sayohati;
- uzoq vaqtdan beri birga yashayotgan ko'p yillik oilalarning sayohati;

6. Oiladagi munosabatlar va atmosferaning sifatiga ko'ra oilaviy sayohatlar.

Bulardan tashqari oilaviy turizm tashkil etilish darajasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Turoperatorlar tomonidan ishlab chiqilgan oilaviy turizm – bu tashkillashtirilgan oilaviy turizm hisoblanib, bunda turoperatorlar tomonidan turlar taklif etiladi va ushbu turdagi turistlar ushbu tur mahsulotlarni sotib oladilar. Turizm biznesida oilaviy turizm - bu ustuvor vazifa hisoblanadi, chunki oilaviy turizm deganda asosan farzandli turistlar tushuniladi, ushbu turlarni yaratishda turoperatorlar joylashtirish vositalaridan tortib ovqatlantirish xizmatlarini va transport vositalarini ham to'g'ri tanlashlari lozim. Shuning uchun oilaviy turistlar yaxshi daromad keltirishi bilan birga ko'proq ma'suliyat talab etadi deb hisoblanadi.

2. Mustaqil sayohat. Bu holda, oila marshrutni mustaqil ravishda rejalashtiradi, transport vositasini (poezd, samolyot, avtobus, avtomobil, piyoda, velosiped, suv turizmi) belgilaydi. Ushbu sayohatda oila a'zolari ko'plab qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin, sababi oilali turistlar yolg'iz bo'lishmaydi, ularning farzandlari ham bo'ladi, farzandlar uchun esa albatta oldindan tayyorgarlik bo'lishi lozim. Oilaviy turistlar uchun eng qulay sayohat bu tashkillashtirilgan sayohatdir.

Oilaviy turizmni uning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda juda ko'p turlarga bo'lish mumkin. Ularning eng asosiylariga esa quyidagilar kiradi: ekologik turizm, romantik turizm, bolalar bilan faol dam olish turizmi, ish&sayohat, madaniy almashinuv, sport va sarguzasht turizmi hamda dam olish (hordiq) turizmi.

Ekologik turizm. Oilaviy turizmda eng ko'p tanlanadigan turizm turi bu – ekoturizmdir. Chunki ekoturizm oilaning har bir a'zosi ham ma'naviy, ham tabiiy, dam oladi. Oilaviy ekoturizm – faqat tabiat bag'rida oilaviy dam olish, o'rganish, kuzatish, tomosha qilish va zavqlanish natijasida tabiatni, biologik xilma-xillikni saqlash, muhofaza qilish tadbirlariga ixtiyoriy moddiy yordam

berishga qaratilgan, mahalliy aholining milliy madaniyatini, me'rosiy an'analarini, yashash tarzini hurmat qilishga asoslangan, oilaviy ekoturistlar uchun barcha turistik xizmatlarni taqdim etish imkoniyatiga ega bo'lgan turistik faoliyatdan iboratdir.


Romantik oilaviy turizm. Bunday sayohatlar o'z ichiga sevishganlar, yangi turmush qurganlar yoki er-xotinlarning dam olishlarini oladi. To'y sayohati (asal oyi) ko'pincha issiq mamlakatlarda o'tkaziladi. Turistlar uchun hamma uchun o'yin-kulgi mavjud. Ko'plab mehmonxonalar yangi turmush qurganlarni kutib olishlarini bilib, yoqimli chegirmalar va bonuslar berishadi. Taniqli romantikalar plyajdagi kechki ovqat, qayiq safari, qo'shma massaj va boshqa narsalar uchun javob beradi. Ekstremal turizmni yoqtirgan turistlar uchun parashyut va dayving ekstremal turizm turlari taklif etiladi.

Qariyalar uchun dam olish. Ish orqada qolib, bolalar o'sgandan keyin, endi ota-onalar o'zlariga vaqt ajratishni xohlaydilar. Pensiya yoshidagi odamlar, qoida tariqasida, xotirjam o'yin-kulgini va o'lchovli dam olishni xohlashadi. Turli ko'rgazmalarga tashrif buyurish, sharob va pishloqni tatib ko'rish, bu ular uchun ajoyib vaqt o'tkazishdir. Qayta tiklanadigan protsedura yoki tibbiy dam olish ular uchun qiziq hisoblanadi.

Bolalar bayrami. Oilaviy turizmni yosh oila a'zolarining ishtirokisiz tasavvur qilish qiyin. Bolalar uchun o'yin-kulgilar juda xilma-xil, kichkina bolalardan boshlab to mutlaqo mustaqil o'spirinlargacha. Taniqli o'yinchoq do'konlariga qo'shimcha ravishda, bolani aquaparklarga yoki toqqa chiqadigan devorga olib borish mumkin. Bundan tashqari, qayiqqa minib, u bilan birga bolalar kasblari shahriga borish mumkin. Bolalar xayol qilishni juda yaxshi ko'rishadi. Shuning uchun ularning bo'sh vaqtlarini qiziqarli qilish uchun tasavvurni ishga tushurish kifoya.

Ish&Sayohat dasturlari. Turizmning bu turi sayohat qilishga ishtiyoqi baland bo'lgan oilalar orasida ayniqsa keng tarqalgan. Dastur davomida ishtirokchilar yozgi ta'til (3 oylik) davomida kompaniyalar tomonidan yollanishadi. Bu davr mobaynida ular ham foyda olishadi ham sayohat qilish,

mahalliy urf-odatlar bilan tanishish, til o'rganish imkoniyatlariga ega bo'lishadi (1.1-rasm).



1.1-rasm. Ish&sayohat turizmiga qiziqish sabablari ¹³


Bunday dasturlarda ishtirok etuvchi ko'plab oilalar shu dasturda ishtirok etgan do'stlari va tanishlaridan olingan ma'lumotlarga tayanishadi. Ish&sayohat dasturining o'rtacha davomiyligi 6 oyni tashkil etadi. Bu dastur ilk marotaba AQShda tashkil etilgan bo'lib, keyinchalik Avstraliya, Kanada, Gretsiya, Ispaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya va boshqa davlatlarda ham tarqaldi.

Madaniy almashinuv. Bu turli mamlakatlar o'rtasida kishilarning almashinuvi, ayniqsa oilalar, talabalar, san'atkorlar, atletiklar hamda turli xil kasb egalari o'rtasida keng tarqalgan. Bu dastur ham mamlakatda ham xalqaro miqyosida xilma-xillikni chuqurroq tushunishga imkoniyat beradi. Bundan tashqari ishtirokchilar boshqacha insonlar bilan o'zaro munosabatda bo'ladilar va fikr almashadilar. Madaniy almashinuvda boshqalar bilan ijobiy munosabatni shakllantirishni o'rganadilar, dunyoqarashni kengaytirishadi va ko'p madaniyatli jamiyatda zarur bo'ladigan bilim va tajribalarga ega bo'lishadi. Oilalar madaniy almashinuvi ikkinchi jahon urushidan so'ng kelajakdagi kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarni oldini olish maqsadida rivojlana boshladi. O'zbekistonda turizmni bu turi bo'yicha sayohat qiluvchi oilalar ko'lami nisbatan ko'proq hisoblanadi. Oilalarning gastrol safarlari, ko'rgazmalarda ishtirok etish kabi turli xil madaniy dasturlar shular jumlasidandir.

Sport turizmi. Sport va jismoniy faoliyat dam olishning keng tarqalgan turlaridan biri hisoblanadi. Sport turizmi – bu o'zining doimiy yashash joyidan tashqarida sport tadbirlarida ishtirok etish yoki kuzatish maqsadida amalga oshirilgan sayohat turi hisoblanadi. Bu turizm turi sayohat industriyasining tezlik bilan rivojlanayotgan turlaridan biri hisoblanadi. Sport turizmiga nisbatan yaqin bo'lgan turizm turi – bu sarguzasht turizmi hisoblanadi. O'zbekistonda sportni rivojlantirishga muntazam ravishta e'tibor qaratilib kelinmoqda. O'zbekistonlik yoshlarning xalqaro sport musobaqalarida ishtirok etishi va ayni damda ko'plab xalqaro musobaqalarning mamlakatimizda tashkil etilishi nafaqat sport ustalarini balki sport ixlosmandlarini ham o'ziga jalb etadi. Bugungi kunda respublikamiz bo'ylab turli xil veloturizm dasturlarining amalga oshirilishi oilaviy turizm uchun katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Ekstremal turizm – bu turizmning shunday turi bo'lib, bunda sayohatlarning barchasi yangi taasurotlar va hissiyotlar olish, jismoniy sog'lomlashtirish va qandaydir natijalarga erishish maqsadida tabiat qo'ynida intentsiv (faol) dam olishdir. Yevropada turizmning bu turi 1980 yillarning oxirida tez sur'atlarda va ommaviy tarzda rivojlana boshladi. Ekstremal turizm – dam olish va sayohat sohasida istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ekstremal turizmning turlarini 4 guruhga ajratishimiz mumkin. 2013 yilda bu tur bo'yicha sayohat qiluvchi oilalar xarajatlari o'rtacha 4 000 yevroni tashkil etib, boshqa sayohat turlaridan 1 500 yevroga ko'pdir. Oilalarlar eng ko'p sayohatlarni quyidagi mamlakatlar bo'ylab amalga oshirishgan: AQSh, Kanada, Avstraliya, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Yang Zelandiya, Italiya, Ispaniya, Tayland va Argentina¹⁴.

¹⁴ <https://skift.com/wp-content/uploads/2014/11/unwto-global-report-on-adventure-tourism.pdf> (Мурожат санаси: 29.03.2020)



1.2-chizma. Ekstremal turizm klassifikatsiyasi

Ziyorat turizmi. Oilaviy ziyorat turizmi – bu turistlarning oilaviy bo’lib, muqaddas joylar, aziz insonlar, diniy qadamjolar bilan tanishish, tarixini o’rganish maqsadida boshqa joylarga borishi va ziyorat qilishi hisoblanadi. Oiladagi totuvlik va yosh avlodning umummadaniy, ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishda ziyorat turizmining ham ahamiyati kattadir. Chunki oilaviy ziyorat qilish oiladagi muhitni yaxshilashga, bolalarning dinga bo’lgan hurmatini oshirishga, muqaddas joylarni o’rganishiga yordam beradi.

Oilaviy dam olishni tashkil etishning asosiy prinsipi - barcha oila a’zolariga nisbatan yoshga bog’liq, psixofizikaviy xususiyatlarni, shuningdek, har bir avlodning manfaatlari va qadriyatlarini hisobga olgan holda yo’naltirishtan iboratdir. Oilaviy dam olish shakllarining alohida qiymati oilaviy muloqotning turli mexanizmlarini faol jalb qilishdir. Ushbu muloqotlarning bir vaqtning o’zida oilaviy dam oluvchi har bir oila a’zolariga ijobiy hissiyot beradi. Oilaviy dam olish munosabatlari oiladagi qulay ruhiy muhitni yaratishga faol ta’sir ko’rsatuvchi o’z-o’zini tiklash funktsiyasi bo’lib kelgan. Kattalar va bolalarning birgalikdagi ijtimoiy foydali va bo’sh vaqtlarini o’tkazish faoliyatini tashkil etishga e’tibor qaratilishi oilani mustahkamlash va rag’batlantirishga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Agoda (OTA) dunyoning eng tez rivojlangan onlayn-turistik agentligidan biri hisoblanadi va u 2018-yilda oilaviy turistlar amalga oshirgan sayohatlarni hisoblab chiqda va bu haqida ma'lumot berdi¹⁵.


Butun dunyoda sayohat qilgan oilaviy turistlar ichida Osiyolik sayohatchilar boshqa regionlardan ko'ra ikki marta ko'proq oilaviy turizmni amalga oshirishgan (1.3-rasm).

AGODA FAMILY TRAVEL TRENDS 2018



1.3-rasm. Agoda 2018 oilaviy sayohatlar dinamikasi.

Agoda "Family Travel Trends 2018" so'rovida aytilishicha, turistlarning 18 foizi yiliga bir marta oilaviy sayohatga chiqishadi, 34 foizdan ortig'i esa o'tgan yili besh martadan oilaviy sayohatni amalga oshirganlar. Tailandda turistlarning 77% va Fillipinda 62% turistlar 5 martadan ko'proq oilaviy sayohatni amalga oshirishgan bo'lsa, aksincha, Buyuk Britaniya turistlarining faqatgina 7%i 5 martadan oilaviy turizmni amalga oshirishgan (1.4-rasm).



1.4-rasm. Oilaviy sayohatlarning yillik sayohat ko'rsatkichlari

¹⁵ <https://www.agoda.com/press/family-travel-trends-2018>

Oilaviy turistlarning sayohat muddati ko'rsatkichlari. 4-7 kunlik turizmni amalga oshirish dunyodagi eng ko'p tarqalgan muddat hisoblanib, oilaviy turistlar ichida ushbu muddatda sayohat qilgan oilalar Buyuk Britaniyada 41% ni, Tailandda esa 20% ni tashkil etgan. 14 kundan ortiq turizmni amalga oshirgan oilalarning uchdan bir qismi Tailandliklarga va 11%i esa Malayziyaliklarga to'g'ri kelgan. Vetnamlik, Malayziyalik va Xitoylik oilaviy turistlarning ko'pgina qismi (deyarli barchasi) 1-3 kunlik muddatdagi sayohatni amalga oshirishgan (1.5-rasm).



1.5-rasm. Oilaviy turistlarning sayohat muddati ko'rsatkichlari

Osiyolik turistlar oilaviy sayohatni avfzal ko'rishadi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda 2018 yilda sayohat qilgan oilaviy turistlarning 35%i "bobo-buvilar (grandparents)" bilan oilaviy dam olishgan. Buyuk Britaniya oilaviy turistlarining 13%i va Avstraliya oilaviy turistlarining 20%i "bobo-buvilar" bilan oilaviy turizmni amalga oshirishgan. Tailandliklarning 66%i va indoneziyaliklarning 54%i qarindoshlar bilan sayohat qilishgan. Amerikaliklarning 22%i, Britaniyaliklarning 23%i, Avstraliyaliklarning 26%i, Xitoyliklarning 27%i o'tgan yili oila a'zolari bilan emas, balki do'stlari va yaqinlari bilan sayohat qilishgan. Shu bilan birgalikda Filippini (48%), Vetnam (43%), Malayziyaliklar (40%) ham do'stlari va yaqinlari bilan dam olishgan.

Mexmonxonalar tipidagi joylashtirish vositalari hali ham oilaviy turistlar uchun eng talabgor joylashtirish vositasi hisoblanadi. Agoda "Oilaviy Sayohatlar Yo'nalishi" so'rovining natijalariga ko'ra oxirgi 12 oyda

oilalar tanlagan eng mashhur joy bu – mehmonxona tipidagi joylashtirish vositalari bo'lib (60%), bunga qo'shimcha ravishta ular ko'proq taymsherlar (ya'ni ijara uylari) (36%) va oilaviy mehmon uylarini (35%) avzal ko'rishgan (6-rasm). Oilasiz yoki yolg'iz sayohatni xohlovchi turistlarga nisbatan, oilaviy turizmni istovchi turistlar ko'proq xavfsizlikga, xarajatlarning kamligiga va aktiv turizmga ko'proq e'tibor berishgan. "Oilaviy turizm segmenti tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda va ushbu guruh sayohatchilari ehtiyojlari turli xil va o'zgachadir. Shuning uchun ham oilaviy sayohat qilishni xohlovchilar uchun mehmonxonalarda chaqaloqlar yoki bolalar uchun xona, oshxonalarda bolalar uchun maxsus taomnoma, yoki yonma-yon xonalarni ijaraga olish uchun imkoniyat bo'lishi kerak, - deb yozadi "Agoda"ning bosh direktori Jon Braun.



1.6-rasm. Oilaviy sayyohlarning tunash manzillari ko'rsatkichi

Oilaviy sayohatga chiqish oilaviy turistlar uchun eng ko'p tanlaydigan yo'nalish. Ko'p soatli ishlardan so'ng oilalar bir-biriga ko'proq vaqt sarflashni, birgalikda sarguzashtlar uyushtirishni xohlaydilar. Shuning uchun ham o'tgan yili oilaviy sayohatni amalga oshirgan turistlar katta ulushni egallagan bo'lib (68%), ikkinchi navbatda esa oilalar rekreatsion turizmni (66%), keyingi o'rinda noan'anaviy yo'nalish (46%) ya'ni ekstremal, ekologik kabi yo'nalishlarni tanlashgan. Britaniya va Singapur oilalari (48% va 46%) eng ko'p noan'anaviy turlarni avfzal ko'rishgan. Xitoy va Tailand oilalari esa yangi urf-odat va madaniyatni o'rganishga ko'proq qiziqishgan (29%) (1.7-rasm).



1.7-rasm. Sayyohlarning sayyohlik yo'nalishlari

Oilaviy turizmni tanlamoqchi bo'lgan turistlar quyidagi beshta asosiy jihatlarga e'tibor berishgan: narx-navo, turar joylardagi xavfsizlik, jozibadorlik va faoliyatlilik, imtiyozlar va qulayliklar, masofa (1.8-rasm).



1.8-rasm. Oilaviy sayohat qiluvchilarning e'tibor beruvchi xizmat turlari

Oilaviy turistlarning 45%i band qilish tarmoqlari orqali, 39%i to'g'ridan to'g'ri mexmonxona orqali, 19%i turagent orqali, 15%i esa turoperator orqali turar joylarini band qilganlar (1.9-rasm).

HOW FAMILY TRAVELERS BOOK ACCOMMODATION



1.9-rasm. Oilaviy sayohat qiluvchilarning tunash joylarini tanlashda foydalanadigan xizmat turlari

1.3. Oilaviy turizmni tashkil etishda xalqaro tashkilotlarning o'rni

Jahon miqyosida turizm va ayniqsa oilalar sayohatlarini tashkil etuvchi turli xil assotsiatsiya va professional tashkilotlar o'z faoliyatini olib bormoqda. Oilalarning sayohat maqsadlari va ko'lamini kengdir. Bu tashkilotlar oilalarning sayohatlarini har tomonlama qulay, xavfsiz va qoniqarli darajada tashkil etishga xizmat qilmoqda. Sotsial turizmning ko'lamini butun dunyo miqyosida global darajada rivojlana boshlangani sabab, 1963 yilda Xalqaro sotsial turizm byurosi BITS (International Bureau of Social Tourism) ni tashkil etishga qaror qilindi. Bu tashkilotning maqsadi sotsial turizmni xalqaro darajada rivojlantirish va qo'llab quvvatlashdir. BITS ning ichki tuzilmasiga ko'ra uning a'zolari uch kategoriyadan iborat:

- Faol a'zolar – o'n kishigacha a'zolar bo'lib, ular byuroning umumiy assambleyasini tashkil etadi. Ular yuridik yoki jismoniyshaxslar bo'lib, o'zlarining faoliyatini sotsial turizmda olib borishadi va inson huquqlari umumiy deklaratsiyasi tomonidan belgilab qo'yilgan shaxs erkinligiga hamda Monreal deklaratsiyasining mohiyatiga rioya qilishadi (BITS 1996).

- Jamoatchilik huquqining sharaflı aʼzolari – sotsial turizmı jamoatchilik xizmatlarini tashkillashtirishni nazorat qiluvchi va jamoatchilik kuchining vakolati, davlat yoki mintaqaning rasmiy vakili boʻlgan shaxslar.
- Faxriy aʼzolari – tashkilotning shu nomga arziydigan barcha jismoniy shaxslar ushbu nom bilan taqdirlanishi mumkin.

2010-yilda BITSning nomi OITS (Organization International Social Tourism) “Xalqaro sotsial turizm tashkiloti”ga oʻzgartirildi va uning faoliyat darajasi yanada kengaytirildi. OITSning faoliyat koʻrsatuvchi aʼzolari: umumiy assambleya – kamida ikki yilda bir marotaba yigʻilish oʻtkazadi; direktorlar kengashi; Prezident, vitse-prezident va xazinabondan tashkil topgan Ijroiya qoʻmitasi, direktorlar kengashining ijrochi idorasi va Bryuseldagi Umumiy sekretariyat bosh shtabi. OITSning xalqaro darajadagi faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida mintaqaviy boʻlimlar tashkil etilgan boʻlib, oʻzlarining nizomiga asosan, xalqaro sotsial turizm assotsiatsiyasining aniq maqsadlaridan chetga chiqmagan holda faoliyat olib boradilar.

Rivojlangan mamlakatlar turizmı oilaviy turizm juda katta oʻrinni egallamoqda. Buning asosiy sababi oilaviy turistlarga turizmni tashkillashtiruvchi firmalar tomonidan juda koʻplab chegirmalar mavjud ekanligıgadir.

Amerikada oilaviy turizm shunday rivojlanganki, u yerda **Oilaviy Sayohatlar Assotsatsiyasi (Family Travel Association)** ham mavjuddir. U 1996 yildan beri faoliyat olib boradi.

Oilaviy Sayohatlar Uyushmasining (Family Travel Survey)¹⁶ maʼlumotlarıga koʻra oilaviy turizm turizm bozorining eng tez rivojlanayotgan segmentlaridan biri boʻlib, AQSHda oilaviy turizmga chiqish 4 nafar oila aʼzolari uchun oʻrtacha 5580\$ ga teng boʻlsada, ota-onalar oilaviy sayohatlar uyushtirish bu oila uchun juda muhim deb hisoblaydilar. Oilaviy sayohatga

¹⁶Dr. Lynn Minnaert Jonathan M. Tisch Center for Hospitality and Tourism, NYU School of Professional Studies. US Family Travel Survey 2017. Family Travel Association and New York University


chiqish kundan kun qimmat bo'lib borayotganligiga qaramasdan, AQSH oilalarida sayohat qilish yildan-yilga ko'payib bormoqda. Umumiy holda 2017-yilda 70% amerikalik sayohat qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2018-yilda 74% ga ortdi. Bulardan uchdan bir qismi (35%i) ikki va undan ko'p nafar oila a'zolari bilan uyidan 50 kilometr va undan uzoqroq masofada bo'lgan joylarda turizmga chiqqanlar. Turistlarning umumiy miqdori o'tgan yilga nisbatan unchalik katta o'zgarmagan bo'lsada oilaviy sayohat qilish ancha oshib bormoqda. Amerikada oilaviy turistlar bir yilga bir marta emas, ikki uch marta sayohat qilishadi. Uch va undan ortiq turizm qiluvchi oilalar (28%) o'tgan yilga nisbatan 13 %ga ko'paygan.

Amerikada oilaviy turizmga eng mashhur turlar milliy bog'larga (51%) va mavzuli bog'larga (40%) sayohat uyshtirish hisoblanadi. Bundan tashqari 33 % oilaviy turistlar xalqaro yo'nalishlarda, 22% mamlakat bo'ylab ekskursiyalar, 20 % i esa okean bo'ylariga sayohat qilganlar. Ma'lum bo'lishicha Amerikadagi oilaviy sayohatlarning eng mashhuri bu- oilaviy mashinani (rotel) ijaraga olib sayohat qilish hisoblanadi.

Nyu-York universiteti va Family Travel uyushmasi tomonidan o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra Amerikada oilaviy turizmni amalga oshirgan 2600 nafar respondentlardan 63% i 30 yoshdan 44 yoshgacha bo'lgan ota-onalar bo'lgan va ularning 43%i da ikkitadan farzandi bo'lgan. Barcha respondentlarning 17 yoshdan kichik bo'lgan farzandi bo'lgan va ularning bari AQSH fuqarolarini tashkil etgan.


So'ralganlarning ko'pchiligi 6 yoshdan 12 yoshgacha bolalar bilan sayohat qilishni avfzal ko'rganlar.

Quyidagi grafiklarda Amerikadagi oilaviy sayohatchilarning sayohatlari haqida so'rovlar qilingan va aniqliklar kiritilgan:




1.10-rasm. “ Amerikadagi oilaviy tursitlarning safar vaqtida qilgan xarajatlari miqdori”

So'ralganlarning 28 foizi o'tgan yili oilaviy sayohatda 2500 dan 5000 dollargacha sarflanganligini aytishgan.



1.11-rasm. Amerikadagi sayyohlarning oilaviy sayohat kunlari

Respondentlarning qariyb yarmi (47%) barcha dam olish kunlarini oilaviy turizmga sarflashgan.



1.12-rasm.. Oilaviy turistlar uchun eng qulay joylashtirish vositalari ro'yxati

So'ralganlarning ko'plari mexmonxonalarni(41%) va kurortlarni(29%) tanlashgan.

Amerikadagi ko'pgina oilaviy turistlar quyidagilar orqali sayohat qilishni avzal ko'rishadi¹⁷:

Search engine (e.g. Google, Bing)	30%
Recommendations of family and friends	19%
Travel review websites (e.g. TripAdvisor, Yelp)	15%
Online booking site (e.g. Expedia, Travelocity, Kayak)	13%
Travel supplier website (e.g. hotel, cruise line, airline)	6%
Travel club (e.g. AAA)	4%
Guidebook	2%
Tourist office website	2%
Social media	2%
Travel blogs	2%
Travel agent	2%
Magazines	2%
Other	1%
Newspapers	1%
Tour operator website or brochure (e.g. Globus, Collette)	0%
Tourist office - in person or over the phone	0%

1.13-rasm. Amerikalik oilaviy turistlarning safar qilish tanlovi taqsimoti.

1.13-rasmdan ma'lumki ko'pgina turistlar qidiruv veb saytlaridan ma'lumotlar olib sayohatlarni amalga oshirishar ekanlar.

¹⁷ Dr. Lynn Minnaert Jonathan M. Tisch Center for Hospitality and Tourism, NYU School of Professional Studies. US Family Travel Survey 2017. Family Travel Association and New York University

Yevropa turizm bozorlari oilaviy turistlarni qabul qilish bo'yicha mashhur hisoblanadi. Ayniqsa, Niderlandiya, Buyuk Britaniya va Shvetsiya bu borada juda katta muvofaqqiyatlarga erishganligi bilan ajralib turadi.

Oilaviy turizm Yevropa mamlakatlarida ham juda tez rivojlanib bormoqda.

MMGY Global tatqiqotlariga ko'ra hozirda dunyodagi (AQSH va Yevropa) barcha turistik safarlarning 55 % izini oilalar amalga oshirmoqdalar. Gollandiyalik oilalarning 40%i esa yozgi ta'tillarini bobo-buvilar bilan sayohatlar qilib o'tkazisharkan.

Yevropada bolalar bilan dam olish uchun eng mashhur davlatlar Gretsiya, Ispaniya, Bolgariya va Italiyadir. Va albatta, bu mamlakatlarda bolalarning dam olishlari bilan bog'liq ko'pgina xizmatlar uchun katta chegirmalar mavjud. Afsonaviy tarixiy yodgorliklarga bolalar uchun ko'pgina sayohatlar mutlaqo bepul. Misol uchun, agar oilada ikkita bola bo'lsa, ushbu oila Colosseum yoki qadimgi Pompei shahrining xarobalarini tomosha qilish uchun faqatgina kattalarga chipta xarid qiladilar. Ushbu oilalar uchun chegirmalar Italiya va Gretsiyada juda keng qo'llaniladi. Va yana Turkiyada, Misrda va boshqa O'rta yer dengizi mamlakatlarida bolalar uchun katta chegirmalar taqdim etiladi. Rossiyaning Qora dengiz qirg'oqlarida va Vityazevo, Anapa shaharlarida oilaviy turizm juda rivojlangan bo'lib, oilalar uchun ko'plam xizmatlar taklif etilmoqda. Ukrainada esa oilaviy turizm markazlari Qrimning janubiy qirg'og'i va Azov dengizi qirg'oqlari hisoblanadi. So'nggi yillarda bu yerda dam olish infratuzilmasi juda ajoyib shakllangan bo'lib, ushbu joylar turizmi asosan oilaviy turizmga qaratilgandir.

Odatda oilalar issiq joylarga dam olish uchun boradilar, ular uchun eng yaxshi xizmatni qulay narxlarda topish muhimdir.

Ruslar uchun eng yaxshi dam olish bu oila bilan birga turizm uyushtirishdir. Buning natijasi o'laroq mutaxassislar turistlar orasida oilaviy dam olishga bo'lgan qiziqish haqida tatqiqotlar olib borganlarida oilaviy turizmga bo'lgan qiziqish rivojlanib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

2016-2017-yilgi qish mavsumi uchun olib borilgan tatqiqotlarda umumiy turizmga 40,2 % turistlar oilaviy turlarni sotib olganlar. Bular ichida bir farzandli oilalar 18%, Ikki farzandli oilalar 7,8% dan iborat bo'lgan. Bulardan 86% oilaviy turistlar shahar chetida dam olishni xohlasalar, 14% i esa Sankt Peterburg va Moskva shaharlarida dam olishni xohlaganlar. Oilaviy turistlarning 45 %i 4 yulduzli, 28,2 % i 3 yulduzli , qolganlari boshqa mexmonxonalarni tanlaganlar¹⁸.

Oilaviy turizm bu-bir ikki kishi emas, balki har bir oila a'zosining dam olishidir. Axir turizmga chiqqandan keyin har bir kishi mazza qilib dam olishni afzal ko'radi. Kimdir shaharning diqqatga sazovor joylarini ko'rishga qiziqadi, kimdir kema ichidagi kokteylni ichib, sohilda tinchgina yotishni istaydi. Bolalar o'ynashni xohlashadi, ular o'zlariga doimiy e'tibor qilishlarini talab qilishadi va kattalar restoranga, diskotekaga chiqib, oxir oqibat romantik kechani o'tkazishlarini orzu qiladi.

Rossiyadagi zamonaviy pansionatlar va xususiy mehmonxonalar bolalar va ularning ota-onalari uchun juda ko'p turli xil xizmatlarni taklif etadi. Turizmdagi ko'plab ob'ektlar bolalar uchun shug'ullanadigan o'yin xonalari va o'yin maydonchalari bilan jihozlangan. Qiziqarli animatorlar va qiziqarli ko'ngilochar dasturlar ularni zerikishga yo'l qo'ymaydi. Va ayni paytda ota-onalar bir-birlariga sevimli turdagi dam olish vaqtini berishlari mumkin.

Yuzlab sanatoriy va oilaviy dam olish uylari, keng qamrovli davolanish, shuningdek, kattalar va bolalar uchun yoqimli sog'lomlashtirish usullarini taklif etadi. Rossiya restoranlarida esa "bolalar menyusining" har xil turlari mavjud.

Rossiyada faol oilaviy dam olish oilaviy turistlarni o'ziga qaratuvchi juda mashhur turizm turi hisoblanadi. Rossiyaning keng ko'llari bo'ylab, keng o'rmonlar, qorli tog'lar, tezkor daryolar va abadiy dengizlar o'rtasida birgalikda sayohat ota-onalarga farzand bilan do'st bo'lishga yordam beradi, shuningdek, sog'liq va totuvlikni tiklashga yordam beradi.

¹⁸ *Бизнес. Туризм. Туристы выбирают родное* [Электронный ресурс] // Газета.ру. Режим доступа: <https://www.gazeta.ru/business/2017/09/12/10190135.shtml>

Sug'urta oilaviy turizmga muhim rol o'ynaydi. Rossiyada tibbiy sug'urta majburiydir. Ushbu sug'urta surunkali kasalliklar yuz bergandagi xizmatlar, shuningdek, tish shifokori va doktorlik xizmatlarini o'z ichiga oladi, o'lim holatlarida favqulodda vaziyatlardan tashqari xarajatlarni bo'yniga olmaydi. Agar favqulotda voqealar sababli turistlar ziyon ko'rsalar sug'urta kompaniyasi ushbu zararni 100 foiz to'lab beradilar. Yaqinda homilador ayollarni sug'urtalash kabi xizmatlar ham rivojlana boshladi. Sug'urtaning standartlariga muvofiq agar xomilador ayol sug'urtalangan bo'lsa, bepul akusherlik xizmatlaridan foydalanishi mumkin bo'ladi.


Shular bilan birga Rossiyada oilaviy turistlar uchun mexmonxonalarda animatsiyalar bepul, misol uchun mexmonxonaga tashrif buyurgan turistning farzandining tug'ulgan kuni bo'lsa, mexmonxona xodimlari tomonidan tort va shamlar bilan butun kollektiv yig'ilgan holda bolani tabriklashadi. Bu bunday qaraganda oddiy holdek tuyulishi mumkin, ammo farzandining xursandchiligini ko'rgan hamma ota-onalar ushbu xizmatni amalga oshirgan mexmonxonani hech qachon unutishmaydi va kelgusi safar tashrif buyurganda ushbu mexmonxonani tanlashadi.

Bundan tashqari Rossiyada bolalarning salomatligi birinchi o'rinda turganligi sababli nima ovqat yeyishyapti va qanday ichimliklar ichayotganligini diqqat bilan kuzatib boriladi. Mehmonxona qanchalik arzonroq bo'lsa, suv yoki oziq-ovqatdan zaharlanish ehtimoli shuncha ko'pdir.

Ikkinchidan, zaharlanishlar faqat oziq-ovqat mahsulotlari orqali emas, balki qum, ekzotik o'simliklar yoki dengiz hayvonlaridan ham zaharlanish xavfi borligi tufayli juda ehtiyotkor xizmatlarni amalga oshirishadi. Xavfli manbaning yana bir manbai - ayniqsa xlorli suv bilan to'ldirilgan suv havzalari hisoblanadi. Uch yoshga to'lmagan bolalar bu yerda suzishlariga ruxsat berilmaydi, ular hovuz suvini yutib yuborishlari mumkin. Shuning uchun bolalarga dengiz suvida cho'milish ancha xavfsizdir sababi dengiz suvida mikroblar omon qolmaydi. Rossiyaning ko'pgina mexmonxonalarida dengiz suvi bilan to'ldirilgan baseynlar mavjud. Tur operatorlar oilaviy turistlar uchun mana shularga ham

e'tibor berishadi. Shuningdek, ko'pgina oilaviy turistlarga xizmat qiladigan mexmonxonalarda chaqaloqning qorin bo'shlig'idagi mikroflorani himoya qiladigan bolalar dori-darmonlari va bolalar shifokorlari mavjud bo'lishi shartdir.

Rossiyada 2017- yilda oilaviy turistlar sayohat maqsadi bo'yicha quyidagicha sayohatlarni amalga oshirganlar:



1.14-diagramma. Rossiyada 2017- yilda oilaviy turistlar sayohat maqsadi taqsimoti¹⁹.

Diagrammadan ko'rinib turibdiki oilaviy turistlar asosan plajlarda(74,2%) dam olganlar. Rossiyada 2017-yilda amalga oshirilgan turizmdan 38%i oilaviy turistlarga to'g'ri kelgan.

Yuqoridagi ma'lumotlardan bilish mumkinki oilaviy turizm rivojlangan davlatlar turizmda yetakchilik qilib kelmoqda. Xususan, eng rivojlangan davlatdan biri AQSH davlati ham oilaviy turizm rivojlanishiga katta e'tibor qaratayotganligini bu yerda Oilaviy Sayohatlar Assotsatsiyasi mavjudligidan ko'rishimiz mumkin. Demak, AQSHda oilaviy turizm ulushi butun turizmning 35%ini, Rossiyada esa 40,2% ni tashkil etgan. Bularning asosiy sababi mustahkam oilaga erishishdir. Farzandlari barkamol yurt har doim barkamollikka erishadi. Buni biz rivojlangan mamlakatlar misolida ham ko'rishimiz mumkin.

¹⁹ [Семейный туризм, особенности, организация и география семейного туризма \[Электронный ресурс\] Режим доступа: http://travelluxtour.info](http://travelluxtour.info)

Birinchi bob bo'yicha xulosa

Oilaviy turizm – bu oila a'zolarining (bolalarsiz yoki bolalar bilan) yoki bir-nechta oila guruhlarining doimiy istiqomat joyidan uzoqda, bo'sh vaqtlarida va o'z xohishlari bilan, sog'lomlashtirish, dam olish, hordiq chiqarish, tanishish, bir-biri bilan ruhan yaqinlashish maqsadlarida birgalikda vaqt o'tkazish, turizm maqsadlarini amalga oshirish va oilaning har bir a'zosining ehtiyojini to'laqonli qondirishidir.

Butunjahon Turizm Tashkilotining oilaviy turizm formulasi – bu 11 yoshgacha farzandlari bor bo'lgan oilalarning sayohati tushuniladi²⁰

Oilaviy dam olishlar har xil ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

- havaskor sinflarga qatnashish (gulchilik qilish, hayvonlarni parvarish qilish, ijodiy (she'riyat bilan shug'ullanish, musiqa ijro etish, qo'shiq kuylash) badiiy (kashtachilik, suratga olish), texnik (chizmalar chizish va h.k);
- audiovizual axborotlarni qabul qilish (televizor tomosha qilish, internetda ishlash va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali);
- birgalikda uyda badiiy chiqishlarni tashkil etish (teatrlashtirilgan tadbirlarni, qo'g'irchoq teatrlarini, o'yinlar , bayramlar tashkil etish);
- uydan tashqari dam olishlarni tashkil etish (oilaviy turizm);
- sportga oid oilaviy turizmni tashkil etish (ommaviy poygalar, plyaj turnirlari, fitnes klublariga tashrif buyurish va h.k)
- teatrlar, muzeylar, kinoteatrlar, konsertlar va boshqa madaniy-ko'ngilochar tadbirlarga birgalikda tashriflar;
- ommaviy tantanalar va ko'ngilochar tadbirlarda ishtirok etish;
- oilaviy bayramlarni va marosimlarni o'tkazish (to'y, tug'ilgan kun va hokazo)²¹

²⁰<http://www2.unwto.org/ru/home>

²¹ Семейный туризм, особенности, организация и география семейного туризма [Электронный ресурс]
Режим доступа: <http://travelluxtour.info/vidy-turizma/semeinyi-turizm>

Uydan tashqarida dam olishning yana bir turi turizmdir. Turizm - bo'sh vaqtdan foydalanish bilan chambarchas bog'liq bo'lgan alohida faoliyat turi hisoblanadi. Turizm turlarining ko'plab tasniflari ishlab chiqilgan. Bulardan eng rivojlanayotganlaridan biri oilaviy turizm hisoblanadi.

Oilaviy turizmni uning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda juda ko'p turlarga bo'lish mumkin. Ularning eng asosiylariga esa quyidagilar kiradi: ekologik turizm, romantik turizm, bolalar bilan faol dam olish turizmi, ish&sayohat, madaniy almashinuv, sport va sarguzasht turizmi hamda dam olish (hordiq) turizmi.

Jahon miqyosida turizm va ayniqsa oilalar sayohatlarini tashkil etuvchi turli xil assotsiatsiya va professional tashkilotlar o'z faoliyatini olib bormoqda. Oilalarning sayohat maqsadlari va ko'lamini kengdir. Bu tashkilotlar oilalarning sayohatlarini har tomonlama qulay, xavfsiz va qoniqarli darajada tashkil etishga xizmat qilmoqda. Sotsial turizmning ko'lamini butun dunyo miqyosida global darajada rivojlana boshlangani sabab, bunday tashkilotlar ko'paymoqda. Bu tashkilotlarga:

1. OITS – Organization International Social Tourism – “Xalqaro sotsial turizm tashkiloti”.
2. FTA – Family Travel Association – “Oilaviy Sayohatlar Assotsatsiyasi (Amerika)”;
3. OCT – Организация Семейного Туризма – “Oilaviy Turizm Tashkiloti (Rossiya)”;

Yuqoridagi ma'lumotlardan bilish mumkinki oilaviy turizm rivojlangan davlatlar turizmida yetakchilik qilib kelmoqda. Xususan, eng rivojlangan davlatdan biri AQSH davlati ham oilaviy turizm rivojlanishiga katta e'tibor qaratayotganligini bu yerda Oilaviy Sayohatlar Assotsatsiyasi mavjudligidan ko'rishimiz mumkin. Demak, AQSHda oilaviy turizm ulushi butun turizmning 35%ini, Rossiyada esa 40,2% ni tashkil etgan. Bularning asosiy sababi mustahkam oilaga erishishdir. Farzandlari barkamol yurt har doim

barkamollikka erishadi. Buni biz rivojlangan mamlakatlar misolida ham ko'rishimiz mumkin.

II.BOB. O'ZBEKISTONDA OILAVIY TURISTLARGA TURISTIK XIZMATLAR KO'RSATISHNI TASHKIL ETISH ASOSLARI

2.1. Oilaviy turistlarga turistik xizmatlar ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlari

Oilaviy turistlarga xizmat ko'rsatishning bir nechta o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular haqida to'xtalmoqchimiz:

Birinchidan, ushbu turizm turida transport vositalaridan foydalanishda qulaylik bo'lishi kerak. Tanlangan transport turida bolalar uchun maxsus o'rindiqlar, bolalar uchun yengil va qiziqarli taomlar, bolalarni zeriktirmaydigan maxsus texnikalar (bolalar eshitadigan musiqalar, multfilimlar, bolalar kinolari ko'rish uchun) va eng muhimi xavfsiz yoqilg'i vositalaridan foydalangan bo'lishi zarurdir.

Ikkinchidan, joylashtirish vositalarini tanlashda ham joylashadigan mehmonxona oilaviy turistlar uchun maxsus xizmatlarni yetkaza olishi kerak, mehmonxonada oilaviy turistlarni qabul qilish uchun maxsus nomerlar yoki kravatchalar, bolalar o'yin xonasi, kalibellar, xadunoklar, kalyaskalar, bolalar o'ynashi uchun maydonchalar, bolalar uchun baseynlar bo'lishi, sport xonalari, bolalarning ovqatlanishi uchun bolalar menyulari, vrach – pediatrik xizmatlari, enaga xizmati, animatrik xizmatlari, va albatta maxsus chegirmalar bo'lishi kerak.

Uchinchidan, ovqatlanish korxonalarida ham bolalar uchun maxsus stol va stulchalar, bolalar menyusi, yosh bolalar uchun maxsus bolalar bo'tqalari, o'yin xonasi, farzandli ota - onalar tashrif buyurganda enagalik xizmati, formatevtika xizmati mavjud bo'lishi kerak albatta.

To'rtinchidan, ekskursiya obyektlarini tushuntirayotganda ham ekskursiya matni har qanday yoshdagi odamlar uchun tushunarli bo'lishi kerak. Ekskursiya faqat kattalar uchun bo'lsa, u holda bolani bo'sh vaqtda bolalar xonasida professional o'qituvchilar nazorati ostida qoldirish imkoniyati bo'lishi kerak.

Beshinchidan, oilaviy turistlar qabul qilinganda xavfsizlik darajasiga alohida e'tibor berish kerak bo'ladi. Sababi oila a'zolari ichida turli yoshga ega insonlar (yoshi kattalar, yosh bolalar) bo'lishi mumkin. Shunday ekan sug'urta xizmatlarini amalga oshirish ham zarur hisoblanadi.

Oilaviy turistlarning turni tanlashlariga ta'sir qiluvchi omillar:

Oilaviy turni tanlashga ta'sir qiluvchi omillar	Yosh		
	5 yoshgacha	5-12 yosh (maktab yoshidagilar)	12-17 yosh (o'smirlar)
Talab qilinadigan xizmatlar	Transportga kirish, infratuzilma qulayligi, bolalar uchun maxsus o'rindiqlar mavjudligi, bolalar transport vositalarini ijaraga olish imkoniyati	Transportga kirish, infratuzilma qulayligi, transport vositalarini ijaraga olish	Transport vositalarini ijaraga olish
Iqlim	Qulay ob havo, Quyosh nurlanishining o'rtacha miqdori	Mayin ob-havo, mashq qilish imkoniyati borligi	Har qanday iqlim sharoiti mumkin
Xavfsizlik	Xavfsizlikni oshirish, arzon dori-darmonlar borligi	Yuqori darajadagi xavfsizlik, arzon dori-darmonlar mavjudligi	Yuqori darajadagi xavfsizlik, arzon dori-darmonlar mavjudligi
Jalb qilish	Bolalar maydonchalari, o'yin maydonchalari, yosh bolalar uchun maxsus basseymlar va mehmonxonalardagi maxsus jihozlar, maxsus jihozlangan plyajlar	Bolalar o'yin xonalari, ba'zi madaniy muassasalar (teatrlar), bolalar animatsiyasi.	Har qanday madaniy muassasalar (teatrlar, muzeylar va boshqalar), ekskursiyalar tizimi, istirohat bog'lari.

2.1-jadval. Oilaviy turistlarning turni tanlashlariga ta'sir qiluvchi omillar

Bugungi kunda mamlakatimizda turizm jadallik bilan rivojlanib bormoqda va shu kunga qadar turizm sohasida ko'plab farmon, qaror va yangiliklar kuzatildi. Xususan, mamlakatimiz Prezidentining 2016-yil 2-dekabrda [“O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”²²](#) gi farmoni bu sohada muhim dasturi amal bo'ldi.

Ushbu farmonni ijrosini ta'minlash maqsadida mamlakatimizda turizmni jadal rivojlantirish, mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish, an'anaviy madaniy-tarixiy turizm bilan birgalikda turizmning boshqa salohiyatli turlarini — **ziyosat qilish**, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolash-sog'lomlashtirish, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik turizmi va boshqa turlarini jadal rivojlantirish, bolalar, o'smirlar va yoshlar turizmini, **oilaviy turizmni**, keksalar uchun ijtimoiy turizmni rivojlantirish hisobiga turizmning ijtimoiy ahamiyatini kuchaytirish, hududlarda yangi turizm yo'nalishlarini tashkil etish, ularni pasportlashtirish, turizm yo'nalishlari va turizm obyektlari bo'yicha yagona milliy reyestrlarni shakllantirishga yo'naltirilgan ichki, kirish va chiqish turizmini kompleks rivojlantirishning milliy va hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish kabi ustuvor vazifalar turizm sohasi vakillarining o'z oldiga qo'yildi.

Yuqoridagi biz mutaxassislar oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida, xususan, ziyosat turizmini va oilaviy turizmni bog'lagan holda ushbu maqolamizda oilaviy ziyosat qilish turizmi tushunchasi, ziyosat qilish odobi, oilaviy turistlar uchun ziyosat turizmining ahamiyati, O'zbekistonda oilaviy ziyosat qilishdagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari haqida to'xtalmoqchimiz.

Oila ijtimoiy hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini, tarbiyaning uzluksizligini ta'minlaydigan, kelajak nasl qanday bo'lib

²² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoni, PF-4861-son, 02.12.2016 yil.

yetishishiga o'z ta'sirini ko'rsatadigan ijtimoiy makon va pedagogik omil vazifasini o'taydi. Inson oilada shakllanadi. Oila muhabbat, hurmat, birdamlik va mehribonlik manbai. Aynan shu qadriyatlarga har bir rivojlangan jamiyat suyanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1993 yil 20 sentyabrdagi yalpi yig'ilishida 1994 yildan boshlab 15 mayni "Xalqaro oila kuni" sifatida nishonlashga kelishilganligini o'zi ham bu masalani xalqaro miqiyosida qanchalik dolzarb ekanligidan dalolat berib turibdi. Barcha davrlarda ham davlat va jamiyat g'amxo'rligi oilalarning mustahkamligi va tinchligiga asos bo'lgan. Shu bois mamlakatimizda 1998 yil "Oila yili", 2012 yil "Mustahkam oila yili", 2016 yil "Sog'lom bola va ona yili" deb e'lon qilinganligi hamda Respublikamizda oila institutini mustahkamlash konsepsiyasi qabul qilinishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.06.2018 yildagi PQ-3808-son qarori²³ bilan uning ustuvor vazifalari va amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar tasdiqlanishi, shuningdek, 2019 yildan boshlab har yili 15 mayda mamlakatimizda Xalqaro oila kuni nishonlanishi davlatimizdagi oilaviy muhit va uni mustahkamlash uchun qilinayotgan amaldagi sa'y-harakatlarning yaqqol na'munasidir.

Darhaqiqat, asrlar davomida o'z e'tirofini topgan va diniy-axloqiy qadriyatlar darajasiga ko'tarilgan oilaviy munosabatlarda halol yashash, mehnat qilish, farzand tarbiyasi ijtimoiy hayot tarzini rivojlantirish manbaidir. Sharqona tarbiyada shaxsning umummadaniy dunyoqarashining shakllanishi asosi oiladan boshlanadi²⁴.

Oilaviy ziyorat turizmi – bu turistlarning oilaviy bo'lib, muqaddas joylar, aziz insonlar, diniy qadamjolar bilan tanishish, tarixini o'rganish maqsadida boshqa joylarga borishi va ziyorat qilishi hisoblanadi.

²³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori PQ-3808-son. 27.06.2018 yil

²⁴ <https://gujum.uz/uz-l/ozbekiston-uz-l/oilaviy-munosabatlarda-shaxsning-umummadaniy-dunyoqarashining-shakllanishi-2/>

Oilaviy muqaddas diniy qadamjolarni ziyorat qilishda quyidagi tartib-qoidalariga amal qilish zarur ²⁵:

1. Ziyoratgoh hududiga tahoratli holda sukunat bilan kirib boriladi. Bu yerda baland ovozda gapirib shovqin-suron qilinmaydi;
2. Ziyoratga erkak va ayollar alohida-alohida kiradilar. Ayollar imkon darajasida sipoh kiyingan bo'lishlari, o'zgalarning e'tiborini tortadigan kiyimlarni kiyimasliklari maqsadga muvofiqdir;
3. Odatda ziyoratga salom berib kiriladi, marhumning haqiga tilovati Qur'on va duo qilinadi;
4. Ziyorat vaqtida qabr toshlarini o'pish, ularni silab yuz-ko'zga surtish, qabr atrofini aylanib tavof qilish, u yerda sham yoqish, ziyoratgoh hududidagi daraxt yoki yog'ochlarga latta parchalarini bog'lash joiz emas;
5. Qabr yonida suratga tushish, uni bosib o'tish, u yerda kulib yoki tovushni ko'tarib gaplashish mumkin emas;
6. Ziyorat qilinayotgan muhtaram zot ham Allohning bir bandasidir. Undan najot tilash, yoki biror hojatni so'rash, unga atab jonliq so'yish befoyda, aksincha katta gunohdir;
7. Qabr ustiga pul sochish mumkin emas, balki har qancha xayriya va sadaqa bo'lsa maxsus ehson qutilariga tashlash talab etiladi;
8. Ziyoratdan so'ng yana oxista chiqib ketiladi. Chiqish vaqtida qabrga ta'zim qilish joiz emas;
9. Maqbara atrofida taom pishirib tanovul qilish, musiqa eshitib, yoki uxlab dam olish mumkin emas;
10. Ziyoratgoh hududini ozodalagini saqlash kerak. Yosh bolalarning boshqa ziyoratchilarga xalal berishlarining oldini olish lozim.

Oiladagi totuvlik va yosh avlodning umummadaniy, ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda ziyorat turizmining ham ahamiyati kattadir. Chunki oilaviy ziyorat qilish oiladagi muhitni yaxshilashga, bolalarning dinga

²⁵ <http://fikr.uz/blog/poems/muqaddas-qadamjolarga-ziyosat.html>

bo'lgan hurmatini oshirishga, muqaddas joylarni o'rganishiga yordam beradi. Afsuski, mamlakatimizda oilaviy (bobo-buvilar va bolalar bilan) ziyorat qilish uchun ular tanlagan qadamjolarida barcha shart-sharoitlar mavjud emas. Bu bilan barchasida yo'q demoqchi emasman, lekin, ko'pgina ziyoratgohlarimizda hatto yetarlicha stolchalar mavjud emas. Oilaviy turistlar uchun ziyoratgohlarimizda yaratilishi kerak bo'lgan shart sharoitlar haqida quyidagi takliflarimizni berib o'tmoqchimiz:

Birinchidan, barcha ziyoratgohlarimizda yetarlicha o'tirish uchun stollar, yozgi ayvonlar bilan ta'minlanishi kerak;

Ikkinchidan, ziyoratgohlarimizda maxsus bolalar xonasi va enagalik xizmatini tashkillashtirishimiz kerak, bu ota-onaning bemaolol ibodat qilishiga imkoniyat yaratadi va bo'sh ish o'rinlari yaratiladi;

Uchinchidan, ziyoratga kelgan turistlar uchun ziyoratxona tashqarisida do'kon bo'lishi kerak, do'konda bolalarni ma'naviyatini yuksaltiradigan, diniy qarashlarini kengaytiradigan bolalar va kattalar uchun kitoblar sotilishi kerak va bolalarga kerak bo'ladigan oziq-ovqat (bolalar bo'tqasi, bolalar pechenyesi) va nooziq ovqat (bolalar tagligi, o'yinchoqlar) mahsulotlari ham bo'lishi kerak;

To'rtinchidan, ziyoratxona atrofida oilaning har bir a'zosi uchun mo'ljallangan barcha xizmatlarga ega ovqatlanish korxonasi ham bo'lishi kerak. Bu korxonada bolalar va kattalar uchun alohida menyu yaratilgan bo'lishi darkor.

Qadimiy obidalar, muqaddas ziyoratgohlar, tarixiy va madaniy yodgorliklar bilan bir qatorda, betakror madaniyati va an'analari, xushmanzara tabiati hamda fayzli go'shalari bilan sayyohlarni o'ziga rom etib kelayotgan mamlakatimizda ziyorat turizmi yo'nalishida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar turizm industriyasi hamda infratuzilmasini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda, shunga qaramay ushbu turizm turida ba'zi bir kamchiliklar yo'q emas albatta. Ushbu kamchiliklarni bartarf etib, kelgusida ko'plab ziyoratchilarni mamlakatimizga jalb etsak, mamlakatimizda ziyorat turizmini yanada rivojlantirilishiga erishamiz.

Oilaviy dam olishni tashkil etishning asosiy prinsipi - barcha oila a'zolariga nisbatan yoshga bog'liq, psixofizikaviy xususiyatlarni, shuningdek, har bir avlodning manfaatlari va qadriyatlarini hisobga olgan holda yo'naltirishtan iboratdir. Oilaviy dam olish shakllarining alohida qiymati oilaviy muloqotning turli mexanizmlarini faol jalb qilishdir. Ushbu muloqotlarning bir vaqtning o'zida oilaviy dam oluvchi har bir oila a'zolariga ijobiy hissiyot beradi. Oilaviy dam olish munosabatlari oiladagi qulay ruhiy muhitni yaratishga faol ta'sir ko'rsatuvchi o'z-o'zini tiklash funktsiyasi bo'lib kelgan. Kattalar va bolalarning birgalikdagi ijtimoiy foydali va bo'sh vaqtlarini o'tkazish faoliyatini tashkil etishga e'tibor qaratilishi oilani mustahkamlash va rag'batlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

2.2. O'zbekistonda oilaviy turistlarga turistik xizmatlar tashkil etishning huquqiy asoslari

Bugun mamlakatimiz oilalarining tinch, farovon va ahil bo'lib yashashlari uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. Davlatimiz rahbarining alohida e'tibori ostida oilalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ta'lim-tarbiya dargohlarining hamkorlikdagi ezgu ishlari diqqatga sazovordir.

Oilaning o'ziga xos maqomini mustahkamlashda mamlakat miqyosida qabul qilinayotgan Qonunlar, hujjatlar uning huquqiy asoslarini tashkil etadi. Jumladan:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (63-66 moddalari);
- O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi;
- O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi;
- O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oila, ona va bolalikni muhofaza qilishga doir farmon va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish maqsadida qabul qilinayotgan qarorlar, Davlat dasturlari va boshqalar.

Oilalarning mustahkamligi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, milliy xavfsizligini, uning ravnaqi, taraqqiyotini belgilovchi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Hozirgi vaqtda jamiyatimiz uchun, insoniyat taraqqiyoti uchun, mustaqilligimiz istiqbollari uchun jiddiy xavf tug'dirayotgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ekologik, ichki va tashqi omillarning tahdidi ortib borayotgan ayni vaqtda oilalar mustahkamligini ta'minlash va bu masalani to'g'ri hal etilishining asosiy yo'li bo'lmish yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi hech kechiktirib bo'lmaydigan, sustkashlikka yo'l qo'yib bo'lmaydigan, o'ta jiddiy yondashishni talab etuvchi davlat va hukumat miqyosidagi dolzarb masaladir. Oila va uning jamiyat hayotidagi o'rni beqiyos bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-bobi oilaga bag'ishlangan²⁶.

Bugungi kunda mamlakatimizda oilalar soni aholimizning katta qismini tashkil etadi. Respublikamizda jami oilalar soni 8mln 489 ming nafarga yetdi. Bu butun respublika aholisining 25% ini tashkil etmoqda. Bulardan yosh oilalar 2 mln 604 ming, namunali oilalar 2 mln 820 ming nafarni tashkil etmoqda (2.2-rasm).



«Оила» маркази фаолияти: факт ва рақамларда


НАМУНАЛИ ОИЛАЛАР БАЗАСИ ЯРАТИЛДИ



2.2-rasm. Respublikamiz bo'yicha jami oilalar soni

²⁶ D.TASHMUXAMEDOVA, F.Akramova O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI "OILA" ILMIY-AMALIY TADQIQOT MARKAZI YoShLARNI OILAVIY HAYoTGA TAYYoRLASH: "BAXTLI OILA SARI" Ilmiy-uslubiy qo'llanma "TASVIR NASHRIYOT UYI" Toshkent – 2019

2014-yilda 296 055 oila qurilgan bo'lsa, 2018 yilga kelib bu ko'rsatkich 311 379 nafarga yetdi (2.3-rasm).



2.3-rasm. “Nikoh va ajralishlar dinamikasi”

Mana shu oilalarning huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi “Oila Ilmiy-Amaliy Tatqiqot Markazi” bugungi kunda oilalarimizning ijtimoiy hayotida o‘z o‘rniga ega bo‘lib bormoqda²⁷.

- ✚ **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining** (2018 yil 2 fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5325) **Farmoniga** muvofiq tashkil etildi.
- ✚ **Direktor:** Diloram Gafurdjanovna Tashmuhamedova, PhD (O‘zbekiston Respublikasi Parlamenti Qonunchilik palatasining I va II chaqirig‘i Spikeri), O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati raisi a‘zosi.
- ✚ **Maqom:** Markaz O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etilgan. Markaz direktori maqomiga ko‘ra vazirga, direktor o‘rinbosarlari esa vazir o‘rinbosarlariga tenglashtiriladi.

²⁷ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “[O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida](#)”gi 26.03.2018 yildagi 229-son qarori


- ✚ **Muvofiqlashtiruvchi roli:** Markaz oila sohasida davlat siyosatini amalga oshirish bo'yicha davlat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini muvofiqlashtiradi.
- ✚ **Vakolatlari:** Davlat va boshqa tashkilotlar Markazga uning so'roviga binoan Markazga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan barcha zarur materiallarni taqdim qilishga majbur (hujjatlar, statistik ma'lumotlar, xulosalar, tahliliy va boshqa turdagi axborotni).
- ✚ **Asosiy vazifalar:** oila, reproduktiv salomatlik va demografik rivojlanish masalalari bo'yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar o'tkazish, ular asosida oila institutini mustahkamlashga doir takliflar ishlab chiqish va amaliyotga tadbqiq etish hamda samarali metodik va amaliy yordam, maslahatlar berish; Oilalar bilan ishlaydigan mutaxassislar malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha maxsus kurslarni tashkil etish; Oila va nikoh sohasida xalqaro tashkilotlar, xorijiy ilmiy-tadqiqot muassasalar bilan hamkorlik o'rnatish.
- ✚ **Markaz tuzilmasi:** Markaz o'z ichiga 9 ta bo'lim hamda O'zbekistonning barcha viloyatlarida joylashgan 14 filialni oladi. Xodimlarning umumiy soni – 428.
- ✚ **Ekspertlar:** Markazda turli soha mutaxassislari ishlaydi – faylasuflar, sotsiologlar, tarixchilar, etnograflar, antropologlar, pedagoglar, psixologlar, tibbiyot xodimlari, iqtisodchilar, siyosatshunoslar, yuristlar. Ular orasida eng yuqori darajadagi xalqaro tan olingan ekspertlar – Fulbright va IREX (AQSh), INTAS (Evropa Ittifoqi), Korea Foundation (Koreya), Swiss Agency of Cooperation (Shveytsariya) grant tadqiqot dasturlari g'oliblari, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va h.k., 100 dan ortiq xalqaro kongress va simpoziumlar ishtirokchilari, xalqaro ilmiy jurnallarning tahrir hay'ati a'zolari.
- ✚ **Ilmiy maqom:** Markaz huzurida gender va oila masalalariga oid doktorlik dissertatsiyalari (PhD, Doctor of Sciences) mavzularini tasdiqlash bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi Kengash tashkil etilgan. Doktorlik

dissertatsiyalarini himoya qilish bo'yicha Ixtisoslashtirilgan Kengash tashkillashtirish bosqichida va bu sobiq Sovet makonidagi bu turdagi yagona tashkilot.

✚ **Nashrlar:** Markaz huzurida ingliz va rus tillarida chop etiladigan taqriz beriladigan “Markaziy Osiyoda jamiyat, gender va oila” **xalqaro ilmiy jurnal** ro'yxatdan o'tkazilgan. Onlayn shakli <http://www.sgfjournal.uz> saytida joylashgan. Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining ro'yxatiga kiritilgan. Yaqin kunlarda ommaviy “Oila” jurnali chop etila boshlaydi.

✚ **Hamkorlar:** Markaz O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi, Yoshlar ittifoqi, Maktabgacha ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy teleradiokompaniya hamda boshqa tashkilot va idoralar bilan yaqindan hamkorlik qiladi.

✚ **Xalqaro hamkorlik:** Rossiya, Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkiya, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlarning ilmiy-tadqiqot markazlari bilan shartnomalar imzolangan.



2.4-rasm. “Oilamarkazi”ning faoliyat yo’nalishlari ²⁸.

2019 yilda esa O‘zbekistonga 6 mln 748 ming 500 nafar sayyoh tashrif buyurgan. Ularning 51,3 foizini 31-35 yoshdagi kishilar tashkil qiladi. Eng ko‘p tashrif buyurgan sayyohlar MDH mamlakatlaridan kelishgan. Taqqoslash uchun, 2018 yilda O‘zbekistonga 5 mln 346 ming 200 nafar sayyoh kelgandi.

²⁸ <https://oilamarkazi.uz/about-center>

Senatning 25-yalpi majlisida “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun ma’qullandi. Hozirgi kunga qadar mamlakatdagi investitsion muhit “Chet el investitsiyalari to‘g‘risida”, “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida” va “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida”gi qonunlar hamda yuzdan ortiq qonunosti hujjatlari bilan tartibga solib kelingan. Sohaning har bir yo‘nalishi turli qonunlar bilan nazorat qilingani investitsiya qonunchiligi samaradorligini pasaytirgan. Yangi qonun esa yuqorida sanab o‘tilgan barcha hujjatlarni birlashtiradi. Ma’lum qilinishicha, o‘tgan yilda Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki va Osiyo taraqqiyot banki hamda boshqa xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikdagi investitsiyalar hajmi 8,5 mlrd dollarni tashkil etgan. Shuningdek, joriy yilning hozirgi davriga qadar 2 mlrd 400 mln AQSh dollari investitsiya o‘zlashtirilgan bo‘lib, bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1,3 barobar ko‘p. AQSh, Kanada, Rossiya, Yaponiya va Janubiy Koreya davlatlari, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Jahon banki hamda Xalqaro valuta jamg‘armasi kabi moliya institutlari tajribasi asosida 12ta bob va 69ta moddadan iborat mazkur qonun hujjati ishlab chiqildi.

Yangi qonun mahalliy va xorijiy investorlar uchun bir xil huquqiy rejimni joriy etish, investorlar uchun huquqiy himoya choralarini qo‘llash, kamsitish (diskriminatsiya)ga yo‘l qo‘ymaslik, investitsiya kiritishda turli shakllardan foydalanishda davlat kafolatlarini berish, monopoliya vujudga kelishining oldini olish, korrupsiya elementlarini yo‘qotish, ma’naviy zararni qoplash va kompensatsiya kabi normalarni qamrab oladi.

O‘zbekistonda Sotsial turizm assotsiatsiyasi²⁹ tashkil etilishi ham mamlakatimizda oilaviy turizm rivojida juda katta poydevor bo‘ldi desak mubolag’a bo‘lmaydi. Assotsiatsiya mamlakatda inklyuziv turizmni rivojlantirishga hamda bu borada xorijiy turdosh uyushmalar bilan hamkorlik aloqalarni o‘rnatish yo‘lida xizmat qiladi.

Yangi assotsiatsiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

²⁹ <https://kun.uz/uz/news/2020/05/09/ozbekistonda-sotsial-turizm-assotsiatsiyasi-tashkil-etildi>

- imkoniyati cheklangan yurtdoshlarimiz va ehtiyojmand **oilalar** farzandlari uchun xayriya aksiyalarini o‘tkazish;
- imkoniyati cheklangan shaxslar sayohat qilishlari uchun sharoitlar yaratishga ko‘maklashish;
- sotsial turizm sohasida davlat dasturlari, normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa qarorlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etish hamda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;
- inklyuziv turizmni rivojlantirish doirasida bolalar, yoshlar, uchinchi yosh toifa vakillari, shuningdek nogironligi bo‘lgan kishilar uchun turizm hamda ekskursiyalarni tashkil etishga ko‘maklashish.

O‘zbekiston sotsial turizm assotsiatsiyasi mamlakatda inklyuziv turizmni rivojlantirishga hamda bu borada xorijiy turdosh uyushmalar bilan hamkorlik aloqalarni o‘rnatish yo‘lida xizmat qiladi.

Sotsial turizm assotsiatsiyasi kengashi raisi etib Izzatilla Xo‘jayev tayinlandi. Assotsiatsiya O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishga hissa qo‘shish istagidagi jismoniy shaxslarni birlashtirish va ularning sa’y-harakatlarini sotsial turizmni rivojlantirishga yo‘naltirish, jumladan bolalar, yoshlar, keksalar, shuningdek nogironligi bo‘lgan yurtdoshlarimizning sayohatlarini tashkil etishga ko‘maklashadi. Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi bilan hamkorlikda imkoniyati cheklanganlar uchun **“Sayohat barcha uchun!”** xayriya sayohati tashkil etilishi ko‘zda tutilgan, hamda ularning diqqatga sazovor maskanlarda sayohat qilish imkoniyatlarini baholash ishlari amalga oshiriladi.

O‘zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy imijini mustahkamlash konsepsiyasi qabul qilinishi ham oilaviy turizm rivojiga turtki beradi.

*O‘zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy imijini mustahkamlash siyosatining asosiy **vazifalari** sifatida quyidagilar belgilanadi³⁰:*

³⁰ <https://kun.uz/uz/news/2019/11/22/ozbekistonning-xalqaro-maydondagi-ijobiy-imijini-mustahkamlash-konsepsiyasi-elon-qilindi>

- xorijiy mamlakatlarning davlat va nodavlat tuzilmalari, xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlar tomonidan O‘zbekistonning izchil rivojlanayotgan, zamonaviy demokratik huquqiy davlat sifatida yaxlit va ijobiy qabul qilinishini kuchaytirish;
- siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarda davom etayotgan keng ko‘lamli islohotlar va o‘zgarishlarni davom ettirish, respublikaning investorlar va ishbilarmon sheriklar uchun jozibadorligini kuchaytirish, jahon miqyosida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlash, O‘zbekiston manfaatlariga mos keladigan muhim iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish uchun eng qulay sharoitlarni shakllantirish;
- xalqaro maydonda O‘zbekistonning jozibali milliy brendini shakllantirish va mustahkamlash orqali mintaqaviy va global bozorlarda mahalliy tovarlar va xizmatlar eksportini ilgari surish;
- O‘zbekiston Respublikasining xalqaro tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va uning jahon hamjamiyatida ijobiy qabul qilinishini kengaytirish orqali milliy suverenitet, barqarorlik va xavfsizlikni kuchaytirish.
- O‘zbekistonni Osiyoning yetakchi ishbilarmonlik, madaniy va turizm markazlari safiga kiritish.

Konsepsiyaga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatidagi ijobiy imijini shakllantirish va mustahkamlash hamda xalqaro nufuzini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni belgilovchi O‘zbekistonning asosiy imij xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- boy madaniy, tarixiy, ma'naviy va intellektual meros, davlatchilikning ko‘p asrlik tarixi;
- fan va madaniyat, dunyo va islom sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan va tan olingan hissasi;
- an'anaviy va yuqori darajadagi millatlararo hamda konfessiyalararo hamjihatlik, jamiyatdagi ijtimoiy totuvlik va bag‘rikenglikka asoslangan dunyoqarash;

- yuqori darajali insoniy potensial, shakllangan davlat va jamoat boshqaruv organlari tizimining mavjudligi;
- katta tabiiy resurslar salohiyati, rivojlangan transport va kommunikatsiya infratuzilmasi.

O'zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy imijini mustahkamlash va ilgari surishning asosiy tamoyillari quyidagilardir:

- xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar, xorijiy nodavlat tashkilotlari, shuningdek ommaviy axborot vositalari bilan konstruktiv va ochiq muloqot olib borishga tayyorlik;
- xolislik, tizimlilik, doimiylik va izchillik;
- ilmiy jihatdan asoslanganlik;
- o'zaro ishonch va hurmat, bir-birining manfaatlarini hisobga olish va boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- ommaviy axborot vositalarining erkinligi va mustaqilligi;
- tinchlik, insonparvarlik, bag'rikenglik, inson huquqi va manfaati qadriyatlari g'oyalariga sodiqlik;
- hukumat qarorlarini qabul qilishda mamlakatning ijobiy xalqaro imijini mustahkamlash siyosatining asosiy yo'nalishlarini har tomonlama inobatga olish.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Koronavirus pandemiyasining salbiy ta'sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida" ³¹gi farmonni imzolashi yurtimizda pandemiyada davridan keyin turizmni bosqichma-bosqich rivojlantirish uchun muhim huquqiy asos bo'ldi.

Farmonning birinchi qismi quyidagi choralarni o'z ichiga olgan:

- Foyda solig'i stavkasini 1 iyundan to joriy yilning oxiriga qadar 50 foizga kamaytirish;

³¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "["Koronavirus pandemiyasining salbiy ta'sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"](#)"gi 28.05.2020 yildagi PF-6002-son Farmoni

- 2020-2021 yil yakunlari bo'yicha zararlarni cheklamagan tarzda o'tkazish huquqini berish;
- Dezinfeksiya vositalari va turistik infratuzilmaga mo'ljallangan aloqasiz jihozlar uchun bojxona imtiyozlarini taqdim etish;
- 2021 yilning 1 yanvariga qadar turistik yig'implarni hisoblash va to'lashni to'xtatish.

Uchinchi qism Turizm sohasini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan subsidiya va grant ajratishni ko'zda tutadi:

- turizm sohasidagi startap loyihalar va innovatsion biznes g'oyalarni amalga oshirish uchun subsidiyalar (1,5 mlrd so'm) taqdim etiladi;
- milliy turoperatorlarga taqdim etiladi:
 - ✓ har bir xorijiy sayyoh uchun 15 dollar miqdorida subsidiya;
 - ✓ turoperatorlarning avia va temir yo'l chiptalari bo'yicha xarajatlari 30 foizini qaytarish.
- mehmonxonalarga renovatsiya, rekonstruksiya hamda moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha xarajatlarni qoplash:
 - ✓ 3 yulduzli toifadagi mehmonxonalarning har bir xonasi uchun - 5 million so'm;
 - ✓ 4 yulduzli toifadagi mehmonxonalarning har bir xonasi uchun - 10 million so'm;
 - ✓ 5 yulduzli toifadagi mehmonxonalarning har bir xonasi uchun - 15 million so'm;
- yangi turistik mahsulotlarni ishlab chiqish va targ'ib qilish uchun gidlarga – 5 million so'm, turoperatorlarga 10 million so'm taqdim etiladi.
- Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan istisno tariqasida 2020-2021 yillarda 3 mingdan ortiq talabani turizm sohasidagi o'quv muassasalariga o'qishga qabul qilish bepul (davlat granti) asosda amalga oshiriladi.

- sayyohlar, tadbirkorlar va yosh startaperlar uchun alohida yo‘nalishlar bo‘yicha online-tourism.uz sayti yaratildi³².

Yuqoridagi ma’lumotlardan shuni xulosa qilish mumkinki ushbu farmon pandimiyadan keyingi davrda turizmni tezroq tiklashga va yanada rivojlanishiga turtki bo’ladi.

2.3. O‘zbekistonda oilaviy turistlarga turistik xizmatlar tashkil etishda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati

Kecha zamonaviy hisoblangan texnika yoki texnologiya bugun eskirib, o‘rnini yangisiga bo‘shatib berayotgan, rivojlanish shiddatli tus olgan davrda yashayapmiz. Bu jadallik, ayniqsa, axborot-kommunikatsiya sohasida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Jahonning ko‘plab mamlakatlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari davlat iqtisodiyotini belgilab beruvchi va rivojlantiruvchi kuchga aylangan.

AKT sohasining iqtisodiyotdagi salohiyatiga qarab, u yoki bu davlatning rivojlanish darajasiga baho berish mumkin. Jahondagi juda ko‘plab davlatlar hukumatlari tomonidan AKT milliy iqtisodiyot, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning o‘sishi va rivojlanishida, shu sohadagi loyihalarni chuqurlashtirishda muhim omil bo‘lishi tan olingan.

O‘zbekistonda ham dunyoning boshqa rivojlangan mamlakatlari singari AKT sohasini rivojlantirishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Respublikamizda AKT sohasining me’yoriy-huquqiy asosini shakllantirish, sohadagi boshqaruv va ijro organlari ishlarini takomillashtirish, AKTni rivojlantirish va uni iqtisodiyotning barcha sohalariga tatbiq qilish bo‘yicha katta ishlar amalga oshirildi. Bu sohadagi keng miqyosli o‘zgarishlarda, ko‘plab loyihalarning nihoyasiga yetkazilganligida o‘z aksini topmoqda. AKTni rivojlantirish uchun birinchi navbatda, ushbu sohaga yetarli miqdorda sarmoya kiritish, sohaning xizmat ko‘rsatishdan tushgan mablag‘laridan samarali foydalanish va ularni

³² <https://uzbektourism.uz/uz/newnews/view?id=1196>

o'zlashtirish, yangi va ustuvor loyihalarni moliyalashtirish dolzarb amallardan biridir ³³.

Ma'lumki, azaldan sayyohlarni buyuk allomalar yashagan va ijod qilgan hamda ularning faoliyati natijasida bunyod etilgan qadimiy obidalarga boy bo'lgan maskanlar ohangrabodek o'ziga jalb qilib keladi. O'zbekiston ham shak-shubhasiz o'zining buyuk tarixi, me'moriy obidalari, betakror tabiati va xalqimiz urf-odatlarini, an'analari bilan turistlarga o'zini ko'z-ko'z qila oladi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Bugungi kunda turizm sohasi taraqqiyotini axborot va kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etish qiyin. Sayyohlarni respublikamizga jalb etishdagi dastlabki qadamlar ularni mamlakatimizning turistik salohiyati to'g'risidagi axborot bilan tanishtirishdan boshlanadi, ayniqsa, keyingi yillarda ekologik turizm, ekstremal turizm, agroturizm, oilaviy turizm, yoshlar turizmi va sohaning boshqa yo'nalishlarining rivojlanishi turistlarni to'laqonli axborot bilan ta'minlash ehtiyojining yanada oshishiga olib kelmoqda.

Ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda turizm sanoatini rivojlantirish, iqtisodiyotning tez o'sishini ta'minlashda uning rolini oshirish va shu orqali yangi ish o'rinlarini yaratish, dunyo bozorida milliy turistik mahsulot salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi tashkiliy sharoitlar yaratilmoqda. Mazkur faoliyat shak-shubhasiz milliy turizm sohasini axborot bilan ta'minlash, turoperatorlar uchun zamonaviy axborot texnologiyalari yechimlari va kompyuter dasturlarini ishlab chiqish, axborot bozori subyektlariga uyg'unlashgan holda ishlash, jumladan, xalqaro miqyosda mamlakatimizning haqiqiy imidjini shakllantirish bo'yicha ommaviy axborot vositalarida zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi. Bu o'rinda, turizm sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi samarali me'yoriy-huquqiy maydon, sohani yaqin va o'rta istiqbolda rivojlantirishning strategik rejalari bo'yicha qabul qilingan hujjatlar mazkur faoliyatning asosini tashkil etishi lozim. Milliy turizm

³³ <http://uz.infocom.uz/2007/09/04/axborot-kommunikatsiya-texnologiyalarini-rivojlantirish-jamgarmasi-10-yilligi/> (ma'lumot olingan sana: 5.05.2019)

tizimini rivojlantirishda mazkur sohada samarali axborot almashinuvini ta'minlash zarur. Bu o'z navbatida, iste'molchilarning mamlakatimiz haqidagi axborotdan erkin foydalanishlariga, turistik xizmatlarni taqdim etish sharoitlari, xususiyatlariga hamda ularning xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiluvchi axborotlardan iborat bo'lmog'i va milliy qonunchiligimizga mazkur masalalarni kompleks va tizimli huquqiy jihatdan tartibga soluvchi qoidalarining kiritilishini ta'minlash zarur.

Bugungi turizm rivojlanayotgan bir payda turoperatorlar faoliyatida turizm biznesining ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va qulaylashtirishga imkon beradigan zamonaviy kompyuter dasturlarini joriy etish zarur. Turizm xizmatlarini sotish va band qilish bo'yicha turoperatorlarning GPS-pozitsiyaga asoslangan xalqaro global axborot tizimlariga ulanishlari va lokal servislarni yaratishlarining muhimligini ta'kidlash joiz. O'zbekistonning turistik jozibadorligi oshishiga xizmat qiluvchi dolzarb axborot resurslarini, jumladan, O'zbekistonning noyob tarixi, o'tgan buyuk allomalari va olimlari, diqqatga sazovor joylari, milliy taomlari, an'analari haqida hujjatli filmlar va teleko'rsatuvlar yaratish va tarqatish soha rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, turizm bozorini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog'liq bo'lgan quyidagi ishlarni amalga oshirish:

- axborot-targ'ibot kompaniyasini o'tkazish va turli ommaviy-axborot vositalarida O'zbekiston turizmi haqida ijtimoiy reklamalarni tarqatish;
- foto va videomateriallar bankini yaratish;
- Internet tarmog'ida mamlakatimizning turistik imkoniyatlari haqidagi markazlashtirilgan va alohida axborot resurslari hamda turistlar, turoperatorlar va turizm sohasining investorlari uchun axborot portallari sonini oshirish;
- tashqi va ichki turizmni rivojlantirishni axborot orqali qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish uchun mamlakatimiz va chet eldagi turistlar uchun axborot markazlari tarmog'ini yaratish;

- turistlarni o'ziga jalb etish markazlarida axborot punktlari tarmog'ini yaratish va boshqalar bugungi kunning dolzarb vazifalaridan sanaladi³⁴.

Shu o'rinda oilaviy turizmni amalga oshirish yil sayin ommalashib borayotganligini ta'kidlab o'tishni joiz topdik. Sababi har qanday inson biror safarga yoki sayohatga, yoxud dam olishga chiqmoqchi bo'lsa, albatta, oila davrasida bo'lishni, yangi ta'surotlarni oila bilan bahamjihat baham ko'rishni maqul deb biladi. Turist oilaviy sayohatni tanlaganidan keyin, eng ko'ngil ochar, eng mukammal, xavfsiz turni sotib olishni xohlaydi, uning xohishini qondiradigan, eng sifatli va hamyonbop turni sotib olish uchun u internet tarmog'ining qidiruv tizimlaridan foydalanadi.

Shuning uchun mamlakatimizda oilaviy turizmni amalga oshirishni xohlovchilar uchun turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi qoshida "Oilaviy Sayohatlar (Family travels)" deb nomlangan oilalar uchun barcha ma'lumotlarni to'liq va aniq yoritib beradigan internet portali tuzishni taklif etgan bo'lar edik. Bu tashkilot o'zining maxsus internet sahifasiga ega bo'lib, oilaviy turizmni maqsad qilib qo'ygan turistlarimiz uchun barcha yangiliklar, chegirmalar, ko'ngil ochish joylari, oilaviy turistlar uchun barcha xizmatlarni taklif eta oladigan ovqatlanish korxonalari, joylatirish vositalari va transportlar haqida ma'lumotlarni yetkazib borar edi.

Keyingi o'rinlarda barcha turistik firmalar va turagentliklar oilaviy turizmni amalga oshiradigan sayyohlarimiz uchun alohida brashuralar va turistik xaritalar ishlab chiqarishni amalga oshirishlarini taklif etgan bo'lar edik.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugun hayotimizni axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Jamiyatning barcha sohalari, qo'yingki, taraqqiyotning zamonaviy bosqichlarida ushbu tarmoqning roli va ahamiyati tobora ortib borayotgani buning yorqin tasdig'idir. Binobarin, mamlakatimizda Istiqlolning ilk yillaridayoq axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini har tomonlama ravnaq toptirish, uning huquqiy-tashkiliy

³⁴ <http://uz.infocom.uz/2017/06/01/turizm-taraqqiyotida-axborot-va-kommunikatsiya-texnologiyalari/>
(ma'lumot olingan sana: 01.05.2019)

hamda moddiy-texnik bazasini izchil takomillashtirishga alohida e'tibor qaratib kelinyapti. Ana shu tarixiy tamoyil asosida ilg'or AKT salohiyati, yutuqlari, innovatsiyalari yurtimiz rivoji, xalqimiz turmush darajasini yanada yuksaltirish, odamlar dunyoqarashini o'zgartirish, mamlakatimiz nufuzini jahonga yoyishga yo'naltirilayotganini barchamiz his qilmoqdamiz. Xususan, oilaviy turizm rivojida axborot-kommunikatsiya vositalarining o'rni benihoyat kattaligini va bu soha rivojida biz mutaxxassislar oldida qo'yolgan vazifalar benihoyat mashaqqatli va sharaflilik ekanligini takidlab o'tmoqchimiz.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

Oilaviy turistlarga xizmat ko'rsatishning bir nechta o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular:

Birinchidan, ushbu turizm turida transport vositalaridan foydalanishda qulaylik bo'lishi kerak. Tanlangan transport turida bolalar uchun maxsus o'rindiqlar, bolalar uchun yengil va qiziqarli taomlar, bolalarni zeriktirmaydigan maxsus texnikalar (bolalar eshitadigan musiqalar, multafilmlar, bolalar kinolari ko'rish uchun) va eng muhimi xavfsiz yoqilg'i vositalaridan foydalangan bo'lishi zarurdir.

Ikkinchidan, joylashtirish vositalarini tanlashda ham joylashadigan mehmonxona oilaviy turistlar uchun maxsus xizmatlarni yetkaza olishi kerak, mehmonxonada oilaviy turistlarni qabul qilish uchun maxsus nomerlar yoki kravatchalar, bolalar o'yin xonasi, kalibellar, xadunoklar, kalyaskalar, bolalar o'ynashi uchun maydonchalar, bolalar uchun baseynlar bo'lishi, sport xonalari, bolalarning ovqatlanishi uchun bolalar menyulari, vrach – pediatrik xizmatlari, enaga xizmati, animatrlik xizmatlari, va albatta maxsus chegirmalar bo'lishi kerak.

Uchinchidan, ovqatlanish korxonalarida ham bolalar uchun maxsus stol va stulchalar, bolalar menyusi, yosh bolalar uchun maxsus bolalar bo'tqalari, o'yin xonasi, farzandli ota - onalar tashrif buyurganda enagalik xizmati, formatevtika xizmati mavjud bo'lishi kerak albatta.

To'rtinchidan, ekskursiya obyektlarini tushuntirayotganda ham ekskursiya matni har qanday yoshdagi odamlar uchun tushunarli bo'lishi kerak. Ekskursiya faqat kattalar uchun bo'lsa, u holda bolani bo'sh vaqtida bolalar xonasida professional o'qituvchilar nazorati ostida qoldirish imkoniyati bo'lishi kerak.

Beshinchidan, oilaviy turistlar qabul qilinganda xavfsizlik darajasiga alohida e'tibor berish kerak bo'ladi. Sababi oila a'zolari ichida turli yoshga ega insonlar (yoshi kattalar, yosh bolalar) bo'lishi mumkin. Shunday ekan sug'urta xizmatlarini amalga oshirish ham zarur hisoblanadi.

Oiladagi totuvlik va yosh avlodning umummadaniy, ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda ziyorat turizmining ham ahamiyati kattadir. Chunki oilaviy ziyorat qilish oiladagi muhitni yaxshilashga, bolalarning dinga bo'lgan hurmatini oshirishga, muqaddas joylarni o'rganishiga yordam beradi. Afsuski, mamlakatimizda oilaviy (bobo-buvilar va bolalar bilan) ziyorat qilish uchun ular tanlagan qadamjolarida barcha shart-sharoitlar mavjud emas. Bu bilan barchasida yo'q demoqchi emasman, lekin, ko'pgina ziyoratgohlarimizda hatto yetarlicha stolchalar mavjud emas. Oilaviy turistlar uchun ziyoratgohlarimizda yaratilishi kerak bo'lgan shart sharoitlar haqida quyidagi takliflarimizni berib o'tmoqchimiz:

Birinchidan, barcha ziyoratgohlarimizda yetarlicha o'tirish uchun stollar, yozgi ayvonlar bilan ta'minlanishi kerak;

Ikkinchidan, ziyoratgohlarimizda maxsus bolalar xonasi va enagalik xizmatini tashkillashtirishimiz kerak, bu ota-onaning bemalol ibodat qilishiga imkoniyat yaratadi va bo'sh ish o'rinlari yaratiladi;

Uchinchidan, ziyoratga kelgan turistlar uchun ziyoratxona tashqarisida do'kon bo'lishi kerak, do'konda bolalarni ma'naviyatini yuksaltiradigan, diniy qarashlarini kengaytiradigan bolalar va kattalar uchun kitoblar sotilishi kerak va bolalarga kerak bo'ladigan oziq-ovqat (bolalar bo'tqasi, bolalar pechenyesi) va nooziq ovqat (bolalar tagligi, o'yinchoqlar) mahsulotlari ham bo'lishi kerak;

To'rtinchidan, ziyoratxona atrofida oilaning har bir a'zosi uchun mo'ljallangan barcha xizmatlarga ega ovqatlanish korxonasi ham bo'lishi kerak.

Bu korxonada bolalar va kattalar uchun alohida menyu yaratilgan bo'lishi darkor.

Qadimiy obidalar, muqaddas ziyoratgohlar, tarixiy va madaniy yodgorliklar bilan bir qatorda, betakror madaniyati va an'analari, xushmanzara tabiati hamda fayzli go'shalari bilan sayyohlarni o'ziga rom etib kelayotgan mamlakatimizda ziyorat turizmi yo'nalishida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar turizm industriyasi hamda infratuzilmasini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda, shunga qaramay ushbu turizm turida ba'zi bir kamchiliklar yo'q emas albatta. Ushbu kamchiliklarni bartarf etib, kelgusida ko'plab ziyoratchilarni mamlakatimizga jalb etsak, mamlakatimizda ziyorat turizmini yanada rivojlantirilishiga erishamiz.

Bugun mamlakatimiz oilalarining tinch, farovon va ahil bo'lib yashashlari uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. Davlatimiz rahbarining alohida e'tibori ostida oilalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ta'lim-tarbiya dargohlarining hamkorlikdagi ezgu ishlari diqqatga sazovordir.

Oilaning o'ziga xos maqomini mustahkamlashda mamlakat miqyosida qabul qilinayotgan Qonunlar, hujjatlar uning huquqiy asoslarini tashkil etadi. Jumladan:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (63-66 moddalari);
- O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi;
- O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi;
- O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oila, ona va bolalikni muhofaza qilishga doir farmon va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish maqsadida qabul qilinayotgan qarorlar, Davlat dasturlari va boshqalar.

Oilalarning mustahkamligi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, milliy xavfsizligini, uning ravnaqi, taraqqiyotini belgilovchi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Hozirgi vaqtda jamiyatimiz uchun, insoniyat taraqqiyoti uchun, mustaqilligimiz istiqbollari uchun jiddiy xavf tug'dirayotgan iqtisodiy, ijtimoiy,

siyosiy, ekologik, ichki va tashqi omillarning tahdidi ortib borayotgan ayni vaqtda oilalar mustahkamligini ta'minlash va bu masalani to'g'ri hal etilishining asosiy yo'li bo'lmish yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi hech kechiktirib bo'lmaydigan, sustkashlikka yo'l qo'yib bo'lmaydigan, o'ta jiddiy yondashishni talab etuvchi davlat va hukumat miqyosidagi dolzarb masaladir. Oila va uning jamiyat hayotidagi o'rnini beqiyos bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-bobi oilaga bag'ishlangan³⁵.

Bugungi kunda mamlakatimizda oilalar soni aholimizning katta qismini tashkil etadi. Respublikamizda jami oilalar soni 8mln 489 ming nafarga yetdi. Bu butun respublika aholisining 25% ini tashkil etmoqda. Bulardan yosh oilalar 2 mln 604 ming, namunali oilalar 2 mln 820 ming nafarni tashkil etmoqda.

Mana shu oilalarning huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi "Oila Ilmiy-Amaliy Tatqiqot Markazi" bugungi kunda oilalarimizning ijtimoiy hayotida o'z o'rniga ega bo'lib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining (2018 yil 2 fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325) Farmoniga muvofiq tashkil etildi.

O'zbekistonda Sotsial turizm assotsiatsiyasi tashkil etilishi ham mamlakatimizda oilaviy turizm rivojida juda katta poydevor bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Assotsiatsiya mamlakatda inklyuziv turizmni rivojlantirishga hamda bu borada xorijiy turdosh uyushmalar bilan hamkorlik aloqalarni o'rnatish yo'lida xizmat qiladi.

Assotsiatsiya O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishga hissa qo'shish istagidagi jismoniy shaxslarni birlashtirish va ularning sa'y-harakatlarini sotsial turizmni rivojlantirishga yo'naltirish, jumladan **yosh oilalar**, bolalar, yoshlar, keksalar, shuningdek nogironligi bo'lgan yurtdoshlarimizning sayohatlarini tashkil etishga ko'maklashadi.

³⁵ D.TASHMUXAMEDOVA, F.Akramova O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI "OILA" ILMIY-AMALIY TADQIQOT MARKAZI YoShLARNI OILAVIY HAYoTGA TAYYoRLASH: "BAXTLI OILA SARI" Ilmiy-uslubiy qo'llanma "TASVIR NASHRIYOT UYI" Toshkent – 2019

O'zbekistonda oilaviy turistlarga turistik xizmatlarni takomillashtirishda mavjud huquqiy asoslarni takomillashtirish va amalda qo'llash, kelajakda oilaviy turizm rivoji uchun muhim dasturi amal bo'ladigan qonun loyihalarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston sotsial turizm assotsiatsiyasi mamlakatda oilaviy turizmni rivojlantirishga hamda bu borada xorijiy turdosh uyushmalar bilan hamkorlik aloqalarni o'rnatish yo'lida xizmat qiladi degan umiddamiz.

Shu o'rinda oilaviy turizmni amalga oshirish yil sayin ommalashib borayotganligini ta'kidlab o'tishni joiz topdik. Sababi har qanday inson biror safarga yoki sayohatga, yoxud dam olishga chiqmoqchi bo'lsa, albatta, oila davrasida bo'lishni, yangi ta'surotlarni oila bilan bahamjihat baham ko'rishni maqul deb biladi. Turist oilaviy sayohatni tanlaganidan keyin, eng ko'ngil ochar, eng mukammal, xavfsiz turni sotib olishni xohlaydi, uning xohishini qondiradigan, eng sifatli va hamyonbop turni sotib olish uchun u internet tarmog'ining qidiruv tizimlaridan foydalanadi.

Shuning uchun mamlakatimizda oilaviy turizmni amalga oshirishni xohlovchilar uchun turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi qoshida "Oilaviy Sayohatlar (Family travels)" deb nomlangan oilalar uchun barcha ma'lumotlarni to'liq va aniq yoritib beradigan internet portali tuzishni taklif etgan bo'lar edik. Bu tashkilot o'zining maxsus internet sahifasiga ega bo'lib, oilaviy turizmni maqsad qilib qo'ygan turistlarimiz uchun barcha yangiliklar, chegirmalar, ko'ngil ochish joylari, oilaviy turistlar uchun barcha xizmatlarni taklif eta oladigan ovqatlanish korxonalari, joylatirish vositalari va transportlar haqida ma'lumotlarni yetkazib borar edi.

Keyingi o'rinlarda barcha turistik firmalar va turagentliklar oilaviy turizmni amalga oshiradigan sayyohlarimiz uchun alohida brashuralar va turistik xaritalar ishlab chiqarishni amalga oshirishlarini taklif etgan bo'lar edik.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugun hayotimizni axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Jamiyatning barcha sohalari, qo'yingki, taraqqiyotning zamonaviy bosqichlarida ushbu tarmoqning

roli va ahamiyati tobora ortib borayotgani buning yorqin tasdig'idir. Binobarin, mamlakatimizda Istiqlolning ilk yillaridayoq axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini har tomonlama ravnaq toptirish, uning huquqiy-tashkiliy hamda moddiy-texnik bazasini izchil takomillashtirishga alohida e'tibor qaratib kelinyapti. Ana shu tarixiy tamoyil asosida ilg'or AKT salohiyati, yutuqlari, innovatsiyalari yurtimiz rivoji, xalqimiz turmush darajasini yanada yuksaltirish, odamlar dunyoqarashini o'zgartirish, mamlakatimiz nufuzini jahonga yoyishga yo'naltirilayotganini barchamiz his qilmoqdamiz. Xususan, oilaviy turizm rivojida axborot-kommunikatsiya vositalarining o'rni benihoyat kattaligini va bu soha rivojida biz mutaxxassislar oldida qo'yolgan vazifalar benihoyat mashaqqatli va sharafligini takidlab o'tmoqchimiz.

III-BOB. O'ZBEKISTONDA OILAVIY TURISTLARGA TURISTIK XIZMATLAR KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

3.1. Oilaviy turistlarga xizmat ko'rsatishni takomillashtirishda mobil ilovalardan samarali foydalanishni tashkil etish yo'llari

Bugungi kunda turizm sohasi taraqqiyotini axborot va kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etish qiyin. Sayyohlarni respublikamizga jalb etishdagi dastlabki qadamlar ularni mamlakatimizning turistik salohiyati to'g'risidagi axborot bilan tanishtirishdan boshlanadi, ayniqsa, keyingi yillarda ekologik turizm, ekstremal turizm, agroturizm, gastronomik turizm, oilaviy turizm, yoshlar turizmi va sohaning boshqa yo'nalishlarining rivojlanishi turistlarni to'laqonli axborot bilan ta'minlash ehtiyojining yanada oshishiga olib kelmoqda. Soha rivojida esa mobil ilovalarni yaratish turistlar oqimini ko'paytirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz aholisining 30 foizini 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar tashkil etadi. Ularning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun keng sharoit yaratilgan. Shu bilan birga, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishni tashkil etish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Yoshlar qanchalik ma'naviy barkamol bo'lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shunchalik kuchli bo'ladi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19-mart kuni yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularga axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini singdirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida

davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surdilar³⁶.

Bu tashabbusning uchinchi – aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan bo'lib, ushbu yo'nalishning ijrosini ta'minlash maqsadida aholining dam olishga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytirish va oilaviy turistlar uchun internet mobil ilovalardan foydalanishni takomillashtirish, mamlakatimizda turizm turlarini keng ko'lamda rivojlantirishga yordam beradi

Mobil ilova – telefon, planshet yoki soat kabi mobil qurilmada ishlashga mo'ljallangan kompyuter dasturi yoki dasturiy ta'minoti hisoblanadi. Dastlab ilovalar elektron pochta, taqvim va aloqa ma'lumotlar bazasi kabi samaradorlikka yordam berish uchun mo'ljallangan edi, ammo ilovalarga bo'lgan ommaviy talab mobil o'yinlar, zavodni avtomatlashtirish, GPS va joylashuvga asoslangan xizmatlar, buyurtmalarni kuzatish va chipta sotish kabi boshqa sohalarda tez tarqalishga olib keldi. Ilovalar, odatda, App Store (iOS) yoki Google Play Store kabi mobil operatsion tizim egasi tomonidan boshqariladigan ilovalarni tarqatish platformalaridan yuklab olinadi. Ba'zi ilovalar bepul, boshqalari esa narxga ega bo'lib, foyda dastur yaratuvchisi va tarqatish platformasi o'rtasida taqsimlanadi.

Yurtimizda ham mobil sanoat jadallik bilan rivojlanmoqda. Internetdan foydalanuvchilar soni 12 milliondan oshdi, mobil qurilmalar, ayniqsa smartfon va planshetlar keng ommalashmoqda. Tabiiyki, O'zbekistonda ishlab chiqilgan, o'zbek tilidagi foydali, qiziqarli mobil ilovalarga bo'lgan talab ham ortmoqda. Xususan, turizm maqsadida foydalaniladigan mobil ilovalar ham mavjud bo'lib, ularning bazilarini keltirib o'tmoqchimiz:

Moy gorod – O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi hamda “Kartografiya” ilmiy-ishlab chiqarish davlat korxonasi bilan hamkorlikda “GISInfo” MChJ tomonidan taqdim etilgan mazkur elektron ma'lumotnomasi Toshkent shahri aholisi va mehmonlari uchun juda qulay mobil ilova hisoblanadi. Mobil ilovani

³⁶ <https://darakchi.uz/oz/68103> [chiqarilish sanasi: 20.03.2019, 17:57]; [manbaa olingan vaqt: 19.09.2019]

bir marta yuklab olgandan so'ng undan navbatdagi yangilanishlarga qadar bemalol offlayn foydalanish mumkin. Mobil ilovadan Toshkent shahri xaritasi, 12 mingdan ziyod tashkilotlar haqidagi ma'lumotlar kiritilgan katalog, "Gorod skidok" ("Chegirmalar shahri" hamkorlari, transport yo'nalishlari (269ta) o'rin olgan. Poytaxtning istalgan nuqtasidan boshqa xohlagan joyga boradigan transport yo'nalishlarini topib beradi. Biror joy belgilansa, yaqin atrofda joylashgan tashkilotlar, bekatlar va boshqalar haqida ma'lumotlar, jumladan, tashkilotning yuridik manzili, telefon raqamlari, ish vaqtlari, u yerga boradigan transport turlari va yo'nalishlari, mo'ljal, to'lov usullari va hokazolar paydo bo'ladi.

UzDJ Bilet – O'zbekiston temir yo'llari aksiyadorlik jamiyatining mazkur mobil ilovasi transportning mazkur turidan foydalanuvchilar uchun katta qulaylik taqdim etdi. Ushbu dastur orqali yo'lovchilar oldindan chiptalarga buyurtma berib, to'lovni ham amalga oshirishlari mumkin. Mobil ilova rus va o'zbek tillarida ishlab chiqilgan bo'lib, onlayn rejimda ishlaydi. Mobil ilovaning bosh sahifasi orqali chiptalar, poyezdlar jadvali, kompaniya yangiliklari va ma'lumotlar bo'limlariga o'tish mumkin. Shuningdek, menyu yordamida kompaniya ma'lumotxonasiga qulay qo'ng'iroqni amalga oshirish, shaxsiy buyurtmalarni ko'zdan kechirish mumkin. "Ma'lumotlar" bo'limida turli foydali tavsiya va axborotlar qatorida elektron chiptalarni sotib olish qoidalari bilan tanishib chiqish mumkin³⁷.

Mobil ilovalar nafaqat turizm sohasi uchun balki, boshqa sohalar rivoji uchun ham juda muhim hisoblanadi. Sababi har bir insonda doimo yangi bir ehtiyoj mavjud bo'ladi, bugungi raqamli iqtisodiyot rivojlanayotgan yangi davrda ushbu ehtiyojlarni qondirishda tez va aniq ishlaydigan mobil ilovalardan foydalanish muhim hisoblanadi. Mobil ilovalar pul ishlash va daromad olish uchun katta imkoniyatdir. Ushbu imkoniyatdan to'liq foydalanish uchun mobil dasturlarni ishlab chiqaruvchi kompaniyalar tajribasidan foydalanish muhimdir. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusning uchinchisi

³⁷ <https://kun.uz/uz/132717> [chiqarilish sanasi: 24.09.2017, 18:11]; [manbaa olingan vaqt: 10.10.2019]

aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan bo'lib, mobil ilovalarni yaratish va sohada qo'llash uchun katta imkoniyatdir.

Davlatimiz rahbari tomonidan yosh avlodni tarbiyalash ishlariga bunday aniq va maqsadli yondashuv, tizimli va tartibli qat'iy munosabat barcha soha vakillarini, shuningdek, keng aholi qatlami, ayniqsa, yoshlarni yanada sergaklantirib, daxldorlik hissi va mas'ulligini oshirmoqda. Oliy hamda ezgu maqsadlar sari bir yoqadan bosh chiqarib, birgalikda harakat qilish, o'zaro qo'llab-quvvatlash orqali yuqori natijalarga erishish, yurt taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga undamoqda.

O'zbekistonda oilaviy turistlarga xizmat ko'rsatishni takomillashtirish orqali oilaviy dam olishga bo'lgan qiziqish ortib borishiga, xorijiy oilaviy turistlarni jalb qilinishiga, oilaviy munosabatlarning mustahkamlanishuviga, ajralishlarning oldini olinishiga, yangi ish o'rinlari ochilishiga, mahalliy aholining turmush darajasini yaxshilanishiga, yangidan-yangi obyektlar, dam olish maskanlari ko'payib borishiga, eng muhimi kelajak avlodga dunyoqarashi keng, yetuk va barkamol avlodlar yetkazib berilishiga zamin yaratgan bo'lar edik.

Mamlakatimizda oilaviy turizm turlariga qiziqish yil sayin ommalashib borayotganligini inobatga olib, oilaviy turizmni amalga oshirishni xohlovchilar uchun Turizmni Rivojlantirish Davlat qo'mitasi hamda Samarqand Iqtisodiyot va Servis instituti "Turizm" kafedrasi yordamida "Oilaviy Sayohatlar uchun" (Travels for families)" deb nomlangan, oilalar uchun barcha ma'lumotlarni to'liq va aniq yoritib beradigan mobil ilova yaratishni taklif etgan bo'lar edik. Bu mobil ilova sayohatni oilaviy amalga oshirishni xohlovchi turistlar uchun barcha xizmatlarni taklif eta oladigan ovqatlanish korxonalari, joylatirish va transport vositalari, yangiliklar, chegirmalar, ko'ngil ochish joylari haqida ma'lumotlarni yetkazib beradi.

“**Travels for families**” deb nomlangan mobil ilovamiz online rejimda ishlab, ma'lumotlar tez-tez yangilanib turiladi va uning bosh sahifasida quyidagi ma'lumotlar jamlangan bo'ladi:

Joylashtirish vositalari turlari (Hotel&Resort) – bu bo'limda oilaviy turistlar istiqomat qilishi uchun mehmonxonalar ro'yxati joylashgan bo'lib, bu mehmonxonalar oilalar uchun barcha qulayliklarga ega bo'lishi zarur hisoblanadi. Xususan, maxsus nomerlar yoki kravatchalar, bolalar o'yin xonasi, bolalar aravachasi, o'yin maydonlari, sport xonalari, bolalarning ovqatlanishi uchun bolalar menyulari, vrach – pediatrik xizmatlari, enaga xizmati, animatorlik xizmatlari, maxsus chegirmalar, ota-onalar dam olishi va rohatlanishi uchun ham barcha qulayliklarga ega bo'lmog'i zarur. Ular kurort-mehmonxona, rotel, hotel, hotel kabi mehmonxona turlarini tanlashlari mumkin.

Transport vositalari turlari (Transport) – ushbu turizm turida transport vositalaridan foydalanishda qulaylik bo'lishi kerak. Tanlangan transport turida bolalar uchun maxsus o'rindiqlar, yengil va qiziqarli taomlar, bolalarni zeriktirmaydigan maxsus texnikalar (bolalar eshitadigan musiqalar, multfilimlar, kinolar) va eng muhimi xavfsiz yoqilg'i vositalaridan foydalangan bo'lishi zarurdir. Ular: somalyot, vertolyot, poezd, suv transporti, avtomashina, rotel, velosiped kabi transport turlarini tanlashlari mumkin.

Ovqatlanish korxonalari turlari (Restuarant) – bu korxonalar bolalar uchun maxsus stol va stulchalar, bolalar menyusi, bolalar bo'tqalari, o'yin xonasi, farzandli ota - onalar tashrif buyurganda enagalik xizmati, dorixona xizmati, yolg'iz oilalar uchun maxsus kechalar uyushtira oladigan xizmatlarni taklif eta olishi kerak. Ular restoran, kafe, bar, kafeteriya kabi ovqatlantirish korxonalarini tanlashlari mumkin.

Ko'ngil ochar joylarning turlari (Activities) – bu bo'limda xiyobonlar, parklar, hayvonot bog'lari, muzeylar, delfinariyalar, plyajlar, tog'lar, o'rmonlar, aquaparklar, fermalar, art-muzeylar va h.k kabi ko'ngil ochar joylar ro'yxati va sport zallar, mashg'ulot o'tkaziladigan zallar, boshqa sport turlari bilan shug'ullanish mumkin bo'lgan barcha maskanlar manzillari joylashadi.

Sog'liq&Go'zallik (Health&Beauty) – bu bo'limda barcha go'zallik salonlari (ayollar&erkaklar uchun), SPA-sanatoriylar, sog'liqni tiklash maskanlari, klinikalar, shifoxonalar, poliklinikalar va h.k lar joylashadi.

Tabiat (Nature) bo'limida – oilaviy borish uchun barcha imkoniyatlari mavjud bo'lgan tog'lar, daryolar, ko'llar, dengizlar, plyajlar, sahrolar, cho'llar, milliy bog'lar, o'rmonlar, g'orlar, barcha tabiiy resursga ega bo'lgan maskanlar joylashadi.

Oilaviy turlar (Family Routine) – bu bo'limda turli xil qiziqarli oilaviy turlar mavsumga qarab yangilanib turiladi. Bu bo'limning ichida turli xil shaharlarning ro'yxati joylashadi va turistlar bu shaharlarni o'zlari xohlaganlarini tanlashadi.

Bronlash (Booking) bo'limida oilalar xohlagan turpaketlarini online, o'zlariga ma'qul narxlarda bron qilishlari mumkin bo'ladi.

Etc bo'limida shaharlarning turistik xaritalari, ijaraga mashina olish uchun kompaniyalar ro'yxatlari va h.k ma'lumotlar jamlanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mobil ilovalar nafaqat turizm sohasi uchun balki, boshqa sohalar rivoji uchun ham juda muhim hisoblanadi. Sababi har bir insonda doimo yangi bir ehtiyoj mavjud bo'ladi, bugungi raqamli iqtisodiyot rivojlanayotgan yangi davrda ushbu ehtiyojlarni qondirishda tez va aniq ishlaydigan mobil ilovalardan foydalanish muhim hisoblanadi. Mobil ilovalar pul ishlash va daromad olish uchun katta imkoniyatdir. Ushbu imkoniyatdan to'liq foydalanish uchun mobil dasturlarni ishlab chiqaruvchi kompaniyalar tajribasidan foydalanish muhimdir. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusning uchinchi aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan bo'lib, mobil ilovalarni yaratish va sohada qo'llash uchun katta imkoniyatdir. Davlatimiz rahbari tomonidan yosh avlodni tarbiyalash ishlariga bunday aniq va maqsadli yondashuv, tizimli va tartibli qat'iy munosabat barcha soha vakillarini, shuningdek, keng aholi qatlami, ayniqsa, yoshlarni yanada sergaklantirib, daxldorlik hissi va mas'ulligini oshirmoqda. Oliy hamda ezgu

maqsadlar sari bir yoqadan bosh chiqarib, birgalikda harakat qilish, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash orqali yuqori natijalarga erishish, yurt taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishga undamoqda.

3.2. Turizmni rivojlantirishda yangi tur marshrutlar taklif etish

Turistik marshrutlarni o‘tkazishni amalda tashkil qilish turistik marshrutlarning xilma-xil yoki turli mavzular bo'yicha ekanligidan qat'iy nazar quyidagi 3-bosqichga bo'linadi:

1. Tayyorgarlik bosqichi (marshrut hujjatlarini tayyorlash).
2. Marshrutda yurish davri bosqichi.
3. Marshrutning tugashi bosqichi.

Biz quyida oilaviy turistlar uchun turistik marshrutlarni amalga oshirishdagi bosqichlar haqida to'xtalmoqchimiz:

Birinchi tayyorgarlik bosqichida marshrutni o'tkazuvchi ma'sul rahbar o'ta jiddiy bo'lgan tayyorlanish bosqichidagi barcha talablarning to'liq, kamchiliklarsiz bajarilishiga puxta tayyorlanishi lozim. Bu bosqichda turistik marshrut davomida amalga oshiriladigan ishlar: xizmat ko'rsatish, to'xtash joylaridagi o'tkaziladigan tadbirlar nomma-nom rejalashtirishni talab qiladi.

E'tibor berish lozimki, marshrutni o'tkazish dasturida marshrut davomidagi sayohatlar, tadbirlarning mazmundorligi, qiziqish uyg'otishi, turistlarning savollariga javoblarning to'liqligiga tayyor bo'lish rejalari ham aniqlangan bo'lishi kerak.

1. Tayyorgarlik bosqichidagi talablar:

- 1.1. Marshrut yo'lini o'rganib chiqish.
- 1.2. Marshrutni o'tkazish dasturini tuzish.
- 1.3. Marshrutda amalga oshiriladigan ekskursiyalar dasturini tuzish;
- 1.4. Marshrut davomida xizmatlar ko'rsatish dasturini tuzish.
- 1.5. Oilaviy turistlarga xizmatlar ko'rsatish hujjatlarini rasmiylashtirish.

2. *Marshrutni amalga oshirish bosqichida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:*

- 2.1. Marshrutga chiqish (boshlash, yo'lga chiqish).
- 2.2. Marshrutdagi ekskursiyalar, uchrashuvlar, dam olish va boshqa tadbirlarni marshrut dasturi asosida o'tkazish.
- 2.3. Marshrutdan qaytish.
- 2.4. Marshrut o'tkazilgandan keyin turistlarning fikri, ta'surotlari, taklifi va taqrizlarini to'plash, tahlil qilish.

3. *Marshrutning tugashi bosqichida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:*

- 3.1. Marshrut o'tkazilganligi haqida hisobot tayyorlash.
- 3.2. Marshrut davomida yuz bergan kutilmagan, kelishmovchiliklarni mukammal tahlil qilish.
- 3.2. Marshrutni qayta o'tkazishni yaxshilaydigan tavsiyalar yaratish va qo'llash.

Turistik marshrutni o'tkazishni amalda tashkil qilish va o'tkazish ishlari, marshrutda belgilangan tadbirlar «marshrut hujjatlarida» qayd qilinishi lozim. Bu hujjatlar quyidagilardan iborat bo'ladi:

- Turistik marshrutni o'tkazish haqida hujjat (ruxsatnoma, xarita va boshq...)
- Turistik marshrutda turistlarga xizmat qiluvchilar haqida hujjatlar (haydovchi, tarjimon, suvchoy, ovqat beruvchilar, yuklarni ko'taruvchi, axborotchi, boshlovchi va boshqalar)
- Hisobot uchun hujjatlar.
- Turistik marshrutning texnologik xaritasi.
- Turistga beriladigan yo'llanma (axborotlanganlik varaqasi ma'lumotlar-axborotlanganlik tamoyili bo'yicha).
- Marshrutning sxemasi.

Turistik marshrutni o'tkazish metodikasi ikki qismdan iborat bo'ladi:


1. Og'zaki metodikalar.
2. Amaliy metodikalar.

Turistik marshrutni o'tkazishdagi **og'zaki** metodika bo'yicha dastlab turistlar bilan uchrashuv tashkil (turfirma yoki marshrut rahbari) qilinadi. Bu uchrashuvda rahbar marshrut haqida barcha zarur axborotlarni og'zaki aytib, savollarga ham og'zaki javob beradi. Marshrut davomida marshrut rahbari quyidagi metodik-yo'l axborotlarini berish usullaridan foydalanadi:

- e'lonlar;
- tushuntirishlar;
- xabarlar;
- ma'lumotlar;
- suhbatlar.

Turistik marshrutni o'tkazishda **amaliy** metodikasining tuzilishi quyidagicha bo'ladi. Turistik marshrutlarni o'tkazishda standart metodikalar hozirgacha yozilmagan. Shuning uchun ham turistik marshrutni o'tkazishdagi amaliy va og'zaki metodikalar marshrut davomida birday ishlaydi. Turistik marshrutni o'tkazishdagi amaliy metodika asosan turistik marshrutni ishlab chiqishda, marshrutni o'tkazishda marshrutdagi qandaydir elementlarning yoki turistik marshrut dasturida belgilangan qandaydir rejalarining qolib ketmasligini ta'minlaydi.

Turistik marshrutni o'tkazish metodikasi



3.1-Chizma.Turistik marshrutni o'tkazish metodikasi.

Turistik marshrutni o'tkazish metodikasi amalda turning dasturi ham hisoblanadi. Chunki 7-chizma izohlariga qaralganda turistik marshrutdagi barcha xizmatlar turistik marshrutni o'tkazish metodikasiga kiritilgan. Shuning uchun ham turistik marshrutni o'tkazish metodikalari turmarshrutning dasturiga ilova qilinadi.

Bu axborotlar qisqa, mazmunli, maqsadli, qiziqarli bo'lishi marshrut rahbaridan o'z ishi bo'yicha usta bilimdon, yetuk mutaxassis bo'lishligini talab qiladi. Qayd qilinganlardan ma'lum bo'ladiki, turistik marshrutlarni o'tkazishni tashkil qilishda ilova qilingan bosqichlar, bu bosqichlardagi talablar, marshrutni o'tkazish metodikasining bajarilishi turistning barcha talablarini to'liq qondirishga qaratilmog'i lozim. Ushbu holatda turistning marshrutdagi maqsadi amalga oshadi, marshrutdan to'liq qoniqish hosil qilib o'z xarajatlarini «ko'rish», «bilish» va xulosa chiqarishida to'g'ri sarflanganligini aniq biladi, bundan afsuslanmaydi.

3.3. Ekoturizm xizmatlar bozorida oilaviy turistlar ulushini oshirish yo'llari

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning [“O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2016-yil 2-dekabrda PF-4861 sonli farmoni](#) mamlakatimizda turizmni rivojlantirishda tub burilishni, yangi bosqichning zaminini, turizmda istiqbolli islohotlarning, yo'nalishlarning sharoitlarini yaratdi. Prezident farmonida: “Mamlakatda turizmni jadal rivojlantirish, mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish, an'anaviy madaniy-tarixiy turizm bilan birgalikda turizmning boshqa salohiyatli turlarini — ziyorat qilish, **ekologik**, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolash-

sogʻlomlashtirish, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik turizmi va boshqa turlarini jadal rivojlantirish, bolalar, oʻsmirlar va yoshlar turizmini, **oilaviy turizmni**, keksalar uchun ijtimoiy turizmni rivojlantirish hisobiga turizmning ijtimoiy ahamiyatini kuchaytirish, hududlarda yangi turizm yoʻnalishlarini tashkil etish, ularni pasportlashtirish, turizm yoʻnalishlari va turizm obyektlari boʻyicha yagona milliy reyestrlarni shakllantirishga yoʻnaltirilgan ichki, kirish va chiqish turizmini kompleks rivojlantirishning milliy va hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish”, belgilangan.

Bu farmon mamlakatimizda turizmning barcha turlarini bir tekis rivojlantirish masalalarini tadbiq qilishga, turizmni hududiy va mintaqaviy rivojlantirish uchun asosiy dastur boʻlib xizmat qiladi. Shu nuqtai-nazardan va Farmonda ekologik va oilaviy turizmni rivojlantirish alohida taʼkidlanganligi ham ekologik turizmni jadal rivojlantirishning jiddiy muammolarini aniqlashimiz va bu muammolarning yechimlarini ishlab chiqishning ilmiy-amaliy tatqiqotlarini kuchaytirishimizning vaqti keldi.

Hozirgi vaqtda ekologik turizm “Turizm va Ekskursiya jahon kengashi” ning va “Butunjahon Turizm Tashkiloti” ning maʼlumotlari boʻyicha jadal rivojlanib borayotgan turizm industriyasining biri hisoblanadi. Yaʼni ekologik turizmning jahon turizm industriyasidagi ulushi 10% dan to 20% gachani, ekologik turizm xizmatlaridan olingan daromad 55 mlrd.dollarva uning yillik oʻsishi 30% ni tashkil qilmoqda. Shuningdek, istiqboldagi yillarda ekologik turizm jahon turizmidagi asosiy strategik yoʻnalishlaridan biri boʻlib boradi.

Butunjahon Turizm Tashkiloti ekoturizmga quyidagicha taʼrif bergan:

Ekoturizm – tabiat turizmining barchasini oʻzida mujassamlashtirib, tabiiy hududlarga maʼsuliyat bilan sayohat qilish natijasida tabiatni muhofaza qilishni taʼminlaydi va mahalliy xalqning turmush darajasini yaxshilaydi.

Xalqaro ekoturizm tashkiloti (TIES) – “Ekoturizm – tabiat mintaqalariga mahalliy aholining farovonligini quvvatlovchi, atrof-muhitni saqlovchi ma’suliyatli sayohatdir” – deb ta’rif bergan³⁸.

Yuqorida keltirilgan mulohaza va fikrlarni jamlab biz oilaviy turistlarning ekologik turizmni amalga oshirganda quyidagilarni o’rganishi va his qilishi mumkinligini aytishimiz mumkin: **Oilaviy ekoturizm** – faqat tabiat bag’rida oilaviy dam olish, o’rganish, kuzatish, tomosha qilish va zavqlanish natijasida tabiatni, biologik xilma-xillikni saqlash, muhofaza qilish tadbirlariga ixtiyoriy moddiy yordam berishga qaratilgan, mahalliy aholining milliy madaniyatini, me’rosiy an’analarini, yashash tarzini hurmat qilishga asoslangan, oilaviy ekoturistlar uchun barcha turistik xizmatlarni taqdim etish imkoniyatiga ega bo’lgan turistik faoliyatdan iboratdir.

Shundan kelib chiqib oilaviy turistlar uchun ekoturistik marshrutlar ishlab chiqish uchun bir nechta tamoyillarga rioya qilish maqsadga muvofiq bo’lar edi:

1.Ekoturizm marshrutlaridagi jozibadorligi, betakrorlik tamoyili talablari haqida ta’riflashni batafsil keltirishga izoh bu yerda ortiqchalik qilsa kerak. Ekoturizmning kelib chiqishi ham insonning tabiatni sog’inishi, hozirgi sivilizatsiya bo’hronlaridan (atmosferaning ifloslanishi, yerlarning ishdan chiqib borayotganligi, noyob o’simlik va hayvonotning insondan uzoqlashib borayotganligi, toza havoning yetishmayotganligi va hakovolar...) charchaganligidan, insonning tabiatdagi toza havoli tabiiy mintaqalariga sayohatni xohlaganligidan kelib chiqdi. Bu soha marshrutlarini tuzganda tabiatdagi jozibadorlik–betakrorlikning o’zi ham tabiiy mintaqalarning o’ziga xos bo’lgan landshaftlari, shu mintaqada o’suvchi o’simliklar va shu mintaqa tabiatiga intilish jihatlarini hisobga olish to’g’ri bo’ladi.

Ekologik marshrutlar tuzishda ishlatiladigan jozibadorlik va betakrorlik ko’rinishlari O’zbekistondagi 5 ta tabiiy ekologik mintaqada mavjud. Shuning uchun ham ekologik maskanlarga–resurslarga marshrut tuzishda bu tamoyilni

³⁸Халқаро ташкилотларнинг экотуризм бўйича таърифлари Ҳайитбоев Р., Матякубов У., Экологик туризм, услубий қўлланма, Самарқанд, 2010, 60 б, бўйича берилди

qo'llashning kutilgandan ziyoda bo'lgan imkoniyatlari bor. Eng muhimi, marshrut tavsifida ekologik resursdagi jozibador va betakror tabiiy ko'rinishlar birinchi navbatda rasmlar tasvirida berilishi kerak. Bu tipdagi marshrutlarni ishlab chiqishda albatta noyob hayvonot olamidagi qushlar, hayvonlar, «Qizil kitob»dagi hayvonot turlarining rasmlari, ta'riflari marshrut ma'lumotlarida berilishi maqsadli bo'ladi.

2. Imkoniyatning yaratilganligi tamoyilida ekoturizm resursiga marshrutlar ishlab chiqish juda jiddiy masala. Bu tamoyilga amal qilib ekoturizm marshrutlarini ishlab chiqishda quyidagi imkoniyatlar bo'lishi talab qilinadi.

1. Ekoturizm maskanlariga kirishning huquqiy-qonuniy tartiblari yaratilganligi;
2. Ekoturizm maskanida turistlar uchun maxsus marshrutlarning (so'qmoqlar, yo'llar, dam olish joylari) ishlab chiqilganligi va faoliyat ko'rsatishi;
3. Ekoturizm maskanlarida oilaviy turistlarga xizmatlar ko'rsatish tizimlarining tashkil qilinganligi (dam olish, tunash, ovqatlanish, ko'ngil ochar o'yinlar, qisqa muddatli ekskursiyalar va hokazo...).

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda Davlat muhofazasidagi tabiat landshaftlari, qo'riqxonalar, tog' tizmalariga turistlar kiritilishining huquqiy-qonuniy me'yorlari ishlab chiqilmagan. Bu me'yorlar endi yaratilmoqda. Bu ekoturizm maskanlaridan ekoturizm foydalanishning eng muhim imkoniyatlari hozircha yo'q. Shuning uchun ham bu tamoyilning talablari amalda bajarilgandagina ekoturizm resurslariga, ob'ektlariga turistik marshrutlar ishlab chiqish zarur bo'ladi.

3. Mazmundorlik tamoyili o'z talablari jihatidan jozibadorlik va betakrorlik tamoyiliga qo'shilib ketadi. Tabiatdagi betakrorlikni ko'rgan, uning go'zal bag'rida dam olgan, rang-barang o'simliklar olami va hayvonat dunyosini ko'rgan turist ruhiy jihatdan ham jismoniy jihatdan ham turistik marshrutning mazmunli o'tganligini his qiladi. Uning kayfiyati yaxshilanib o'zida boy ta'surotlar paydo bo'lganligini sezadi. Shuning uchun ham ekoturizm

marshrutlarini ishlab chiqishda marshrut bo'ylab o'zgarayotgan tabiat elementlarigacha marshrut tuzuvchi e'tibor berishi lozim bo'ladi. Shuningdek, marshrut yo'nalishida turizmning boshqa resurs manzillari (ziyosatgoh joylar, taniqli insonlar qabri, mashhur kishilar nomi bilan bog'liq obidalar, tarixiy-madaniy, ma'muriy obidalar va boshqalar) bo'lsa albatta marshrutning ma'lumotlariga qisqacha ta'rif bilan kiritish foydali bo'ladi.

Masalan, turist yoki oilaviy turistlar Omonqo'ton vohasi marshrutni tanladi. Albatta turist yoki oilaviy turistlar tezroq Omonqo'ton vohasiga shoshiladi. Endi agar marshrut ma'lumotlarida jozibadorlik-betakrorlik, imkoniyatlarning yaratilganligi tamoyili resurslari mavjud bo'lsa turist yoki oilaviy turistlar marshrut yo'lidagi bu resurslarni ko'rishga qiziqqanligidan yoki ko'p hollarda ko'rish uchun to'xtaydi. Bu holatda mazmundorlik tamoyili ham ishga tushib marshrutdan ko'ngil to'lish qoniqish hislarini keltirib chiqaradi. Bu natija esa marshrutni tashkil qilgan turistik firma obro'sini oshiradi.

4. Faoliyatlilik tamoyilida ekoturizm marshrutlarining harakatlanish vaqtlari, muddatlari tushuniladi. Fasllarimiz almashib turganligidan ekoturizm marshrutlarini tuzishda bu tamoyilga jiddiy e'tibor berish talab qilinadi. Chunki, ekoturizmning muhim resurslari bo'lgan tog' hududlaridagi ekoturizm resurslariga qishgi marshrutlar ishlab chiqishda turistlarning hayoti xavfsizliklarini ta'minlash masalasi birinchi navbatdagi o'ta jiddiy masaladir.

Tog'lardagi ekoturizm resurslariga yetib borishda avtoyo'llarda qorning erimasligi, baland dovonlardan har qanday transport vositalarining chiqaolmasligi, tog'dagi marshrut suqmoqlarining qor bilan ko'milib qolishi, qor ko'chkilari turistlar hayotiga jiddiy xavf soladi. Shuning uchun ham tog' hududlariga qish mavsumida ekoturizm marshrutlarini tashkil qilishda chegaralanish muddatlarini va bu marshrutlarning harakatlanish vaqtlarini aniq belgilash ekoturizmga jiddiy ahamiyatga egadir.

Tog' hududlariga kech bahor faslidan to kech kuz mavsumlarigacha ekoturizm marshrutlarini tashkil qilish maqsadli bo'ladi. Ekoturizm marshrutlarini O'zbekistondagi boshqa tabiiy mintaqalardagi ekologik

maskanlarga ishlab chiqilganda ham bu ekoturizm maskanlarida yil fasllaridagi iqlimiy xususiyatlarni hisobga olish, tur marshrutning harakatlanish holatlarini aniq bilish talab qilinadi.

5. Ko'pqirralik, **ko'p variantlilik tamoyili** bo'yicha ekoturizm marshrutlari quyidagi variantlarga bo'linadi;

1. Faqat quruqlik bo'ylab ekoturizm maskaniga borish;
2. Havo transporti yordamida ekoturizm maskaniga borish;
3. Suv marshruti orqali ekoturizm maskaniga borish;
4. Aralash transport vositalaridan foydalanib ekoturizm maskaniga borish.

Qayd qilingan yo'nalishlar bo'yicha ekoturizm marshrutlarini ishlab chiqish tushunarli. Bu ishlab chiqarish tamoyilining ko'p variantlilikiga kirib turist yoki oilaviy turistlarning talabi, xohish-istaklari bo'yicha ular xohlagan ekoturizm marshrutlari bo'lishi mumkin. Bu marshrutlar tabiiy muhit-sharoit, yo'l-yo'lakay turli-tuman ob'ektlarini ko'rish imkoniyatlari bo'lganligidan ko'pqirralilikka ham kiradi. Shu bilan birga ekoturizmning ko'p qirralilik tamoyili ekoturizmning asosiy ob'ektiga borguncha turizmning boshqa resurslariga ham marshrutning kirib-o'tishni ta'minlaydi. Bu haqda ekoturizm marshrutlarini tuzishda mazmundorlik tamoyilini qo'llash qismida zarur talablar haqida izoh berildi.

6. Oilaviy turistlar uchun ekoturizm marshrutlarida **qulaylik tamoyilini** qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tamoyilda ekoturizm marshrutlarida quyidagi qulaylik manbalari yaratish lozim bo'ladi:

1. Transport va transport xillaridan foydalanishdagi qulaylilik.
2. Marshrut davomida xizmatlarni qabul qilish qulayligi.
3. Marshrut davomida dam olish, ko'ngil ochar o'yinlarga qatnashish, ekskursiyalarga chiqish, ovqatlanish yoki tunab qolishdagi qulayliklar.
4. Marshrut davomida tibbiy yordamni olish qulayligi.
5. Marshrut davomida oilaviy turistlar uchun minimum (termosda choy, palatka, yotib dam olish uchun yig'ma karovat, biroz qattiq ovqat, qattiq,

sharbatlar, tuxum) va optimum (mehmonxonada tunash, bolalar xonasi, bolalar uchun karovat, restoranda ovqatlanish, sport zalida mashq qilish, basseynda cho'milish) qulayligi puxta ishlab chiqilishi lozim.

7. Oilaviy turistlar uchun ekoturizm marshrutlarini ishlab chiqishda **axborotlanganlik tamoyilini** qo'llash marshrutni o'ziga xos ravishda reklama qilish, turizm bozoriga kiritish ham hisoblanadi. Bu tamoyilda marshrut haqidagi barcha ma'lumotlar turist uchun muhayyo qilinishi kerak—broshyura, jurnal, buklet, gazeta, radio, televediniya. Turist marshrutda nimalarni ko'radi, nimalar haqida ma'lumotlar eshitadi, qanday yuradi, qaysi kiyimlar kerak bo'ladi, qanday transport vositalari taklif qilingan, qaysi xil ovqatlar ichimliklar tayyorlanadi, qanday dam oladi, ovqatlanish tartibi qanday tashkil qilinadi va hakoza—hammasiga javob bo'lishi shart bo'ladi.

Oilaviy turistlar uchun ekoturizm marshrutlarini ishlab chiqish tamoyillaridagi talablarni o'rganib tahlil qilganimizda har bir tamoyilning marshrutda muhim o'rni borligini anglaymiz. Bu tamoyillarni asos qilib olib ishlab chiqilgan marshrut o'zida marshrutning barcha talablarini majmuali ravishda mujassamlashtirgan bo'ladi, ekomارشrutning reklamaligi ahamiyatini oshiradi.

Oilaviy turistlar uchun turistik turda xizmatlar ko'rsatish texnologiyasi quyidagicha bo'lishi mumkin;

- Har bir oila a'zosi bilan salomlashish, uchrashuv belgisi bo'lgan sovg'alar berish (bu sovg'alar turistlarning segmentiga bog'liq bo'lsa, yana ham maqsadliroq bo'ladi);
- Bukletlar, znachoklar, otkritkalar turli-tuman bo'lib turmarshrut mavzusida bo'lsa yana ham yaxshi, natijali bo'ladi;
- Vaqt topib turmarshrut o'tadigan joylarning videotasma-sini oilaviy turistlarga ko'rsatish;
- Turistlarning biror-bir xizmatlarni kutib qolishining oldini olish-chora tadbirlarini oldindan ishlab chiqish;

- Xizmatlar bajarilishini optimallashtirish, qiyin bajariladigan xizmatlarni alohida guruhlash, qo'shimcha e'tibor ajratish;
- Oilaviy turistlar iste'moliga xizmatlarning mos kelishini ta'minlash;
- Asosiy xizmatlar va qo'shimcha xizmatlar haqida axborotlarning to'liq bo'lishini ta'minlash;
- Oilaviy turistlarga xizmat ko'rsatuvchi transport vositalariga milliy musiqani, san'atni namoyish qiluvchi video, TV va radiolarni o'rnatish;
- Xizmatlar ko'rsatishni ratsionallashtirish – xizmatlar qancha talab qilinsa shuncha miqdorda bo'lishi lozim: oz xizmat turistni zeriktiradi, ko'p xizmat turistni charchatadi.

Transport xizmatlari. Oilaviy turistlar uchun ekoturizm marshrutlarini ishlab chiqishning tamoyillari o'z mohiyati jihatidan turistik marshrutlardagi xizmatlarni ham o'z ichiga oladi. Ayniqsa, imkoniyatning yaratilganligi, ko'p variantlilik, qulaylilik va axborotlanganlik tamoyillarida marshrutlarda oilaviy turistlar uchun qanday xizmatlar tashkil qilinishi va ko'rsatilishining ayrim, umumiy nomlanishlariga to'xtaldik.

Ekoturizm marshrutlaridagi xizmatlar quyidagi, alohida-alohida sohadagi xizmatlarni o'z ichiga oladi:

1. Transport xizmatlaridan marshrutda bo'lish davomida quyidagi holatlardan foydalanish mumkin:
 - a) turistik firmaning xususiy transportlaridan foydalanish mumkin;
 - b) boshqa tashkilotlardan maxsus jihozlangan transport xillarini ijaraga olish mumkin;
 - v) oilaviy turistlar oilaviy sayohat qilish uchun qulay bo'lgan rotel (harakatlanuvchi mehmonxona)larni ijaraga olishlari mumkin;
 - g) Oilaviy turistlar mahalliy aholidan ot, eshak, tuya va aravalarni ijaraga olishlari mumkin;
 - d) Oilaviy turistlar o'zining shaxsiy transportidan foydalanishlari mumkin.

Ekoturizmning katta masofali marshrutlaridan foydalanilganda albatta hozirda mavjud bo'lgan quyidagi transport turlari turmarshrutning o'ziga tegishli xizmatini bajarib beradi:

1. Aviatsiya transportlari (samolyot, vertalyot);
2. Avtobus transportlari (kichik va katta hajmdagi avtobuslar, mikroavtobuslar);
3. Avtomobil transporti (yengil, jiplar, arzon, qimmat, maxsus).
4. Temir yo'l transportlari;
5. Mahalliy aholi transportlari (ot, eshak, tuya, arava, bug'u, it chanalari);
6. Kombinatsiyalashgan transport xillari;
7. Suv havzalari transportlari (kater, qayiq, kemalar, maxsus sollar).

Ekomarshrut davomida oilaviy turistlarga xizmatlar ko'rsatish xillari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Dam olishni tashkil qilish xizmatlari (marshrut davomida qisqa muddatli dam olishda yig'ma stol-stullarning bo'lishi, kofe yoki choy tayyorlash, tunash-palatkalarda, yig'ma karovatlar, ko'chma tele-radio vositalari, mehmonxonada);
2. Marshrut davomida va marshrut oxirida–ekologik resurs maskanidagi xizmatlar (qisqa muddatli va 1-2 kunlik ekskursiyalarda);
3. Turistlarga ko'ngil ochar xizmatlarni (o'yinlar, musobaqalar, ekzotik harakatlar) ko'rsatish;

Qayd qilingan xizmat xillari ekoturizm marshrutlarini ishlab chiqishdagi axborotlanganlik tamoyili bo'yicha ham talab qilinadi. Ekoturizm marshrutlarida xizmatlarni sifatli qilib bajarish, turistga taklif qilishning mukammal ishlab chiqilgani va a'lo darajada bajarilgani turistik firmada turistlar oqimini ko'paytirib olinadigan daromadning oshishini ta'minlaydi, turizm bozorida turfirmaning mavqeini ko'taradi.

Transport vositalarini turistik marshrut mavzusi bo'yicha tanlash marshrutni ishlab chiqishdagi birinchi va asosiy talablardan hisoblanadi. Bu

talab barcha turistik resurslarga marshrut ishlab chiqilganda qo'yiladi. Bu holatda turistik marshrutga transport vositalarini turning marshrutlari sharoiti bo'yicha tanlash oson bo'ladi. Qayd qilish lozimki, aksariyat hollarda turning mavzusi transportni tanlaydi. Turoperator yoki marshrutni ishlab chiquvchi marshrut yo'lini, uning sharoitini yaxshi bilsa transport turini to'g'ridan-to'g'ri hech ikkilanmasdan tanlaydi (2-jadval).

№	Marshrutdagi xizmatlarning xillari	Xizmatlar ko'rsatish sharoitlari
1.	Transport xizmatlari	Transport vositalari (poyezd, avtomobil, avtobus, samolyot, mahalliy transport turlari), yo'lda yurish qoidalari, chegaralangan tezlik, transportda yurishdagi hayot xavfsizligi, to'xtashdagi talablar, transportdagi o'rinlar, bolalar o'rindiqlari, ko'chma dam olish transport vositalari, transport va ekologik omillarni nazarda tutish
2	Joylashtirish xizmatlari	Joylashtirish vositalari (oilaviy turistlarga xizmat ko'rsata oladigan mehmonxona, turistlar bazasi, turistlar lageri, kemping, ijara uylari, ochiq ekspeditsiya ko'rpalarida, havoda-uxlash palatkada)ning manzillari, darajalari, sharoitlari, xizmatlar ko'rsatishning darajalari, ekologik omillarni nazarda tutish
3	Ovqatlantirish xizmatlari	Ovqatlantirish korxonalarining xillari (restoran, kafe, oshxona, choyxona, bar, manzillari, darajalari, xizmatlar qilish davri, vaqti (nonushta, tushlik, kechki ovqat), ovqatlantirish xillari (shved stoli, to'liq pansion, yarim pansion, maxsus ovqatlar, alya kart, tabldot, palatka usuli, ekspeditsiya usuli, bolalar uchun taomnoma) ekologik omillarni nazarda tutish
4	Ekskursiya xizmatlari	Ekskursiyalarning soni, mavzulari, mazmuni o'tkazish shakli (piyoda, transportda, o'tkazish ketma-ketligi, bolalar uchun qulayligi va xavfsizligi) ekskursiyada dam olish, ovqatlantirish masalalari, ekologik omillarni nazarda tutish
5	Turistik marshrutning	Marshrutning mavzusi, mazmuni, texnologiya xaritasi, marshrutdagi axborotlar, marshrut qatnashchilariga

	hujjatlari	ko'rsatmalar, marshrut sxemasi, marshrutni amalga oshirish uchun ruxsatnoma, xizmatlarni amalga oshiruvchilar, (haydovchi va uning yordamchisi, tarjimon, suv, choy beruvchilar, oshpazlar, yuk tashuvchilar, axborotchilar, boshlovchilar va boshq.) haqida hujjatlar. Marshrut haqida hisobot hujjatlari
--	------------	--

3.2-Jadval. Marshrutdagi xizmatlarning xillari va sharoitlari

Marshrut yo'lini, sharoitini ayniqsa yo'l sharoiti va holatini mavsumlar bo'yicha o'zgarib turishini bilmaydigan turoperator va holatini mavsumlar bo'yicha o'zgarib turishini bilmaydigan turoperator marshrut davomida ko'plab kutilmagan qiyinchiliklarga duch kelib marshrut rejasini buzib qo'yishi mumkin.

Masalan: shaharlar ichidagi tarixiy obidalar, ziyoragoh joylar va boshqa maskanlarga transport turi oilaviy turistlar soniga qarab yengil tanlanadi. Agar turist 2-3 kishi bo'lsa, yengil avtomobil, undan ko'proqlari avtobus o'rinlari soni bo'yicha tanlanadi. Umuman olganda shahar va tumanlargacha amalga oshiriladigan sayyohatlarga transport vositalarini tanlash muammoli emas. Chunki shahar va tumanlar orasida yo'llar har holda ishonchli. Agar turistik marshrut ekoturizm, sarguzasht turizmi, g'orshunoslik turizmi yoki ovchilik turizmi mavzusida bo'lsa, transport vositasi yengil mashinalar o'ta olmaydigan yo'l uchun maxsus moslamalar qo'yilgan (JIP, NIVA, UAZ, GAZ-66) mashinalar tanlanadi.

Transport vositalarini ijaraga olishda ham marshrut mavzusiga qarab tanlanadi. Tanlash usullari yuqorida qayd qilindi. E'tibor berish lozimki, turistik marshrutga ijaraga olinadigan transport xillari kamida bir necha kun oldin shartnoma asosida qabul qilinib, uning texnik sozligini DAN mutaxassis xulosasi bo'yicha hujjatlashtirish zarur.

Transport vositalarini ijaraga olishda esda tutish lozimki, shaharlardan chiqishda transport masalasini hal qilish oson kechadi. Chunki, ko'p hollarda turistik firmalar yoki mehmonxonalarning ham o'z shaxsiy mashinalari bo'ladi. Agarda oilaviy turistlar shaharlar tashqarisiga ayniqsa ekoturizm, ekzotik turizm

arxeologik turizm yoki ovchilik turizmiga chiqishganda mahalliy transport turlariga (ot, eshak, tuya, arava) ehtiyoj bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda turmarshrut ishlab chiquvchi marshrutni o'tkazishdan oldin mahalliy aholi bilan ularning transportidan foydalanish haqida kelishuvlarni amalga oshirishi lozim. Chunki, mahalliy aholidagi transport turlari ham ijaraga olinadi.

Respublikamizda qish oylari shaharlarda ham, shaharlar tashqarisidagi yo'llarda tuman va tabiat manzillariga boriladigan mahalliy yo'llarda ham muzlash, erish natijasida loygarchilik holatlari ko'proq uchraydi. Ikkinchidan, kuz-qish oylarida ob-havo iliq haroratdan sovuq haroratga qarab tez o'zgaradi. Qayd qilinganlarni hisobga olib va turistlarning hayoti xavfsizligini ta'minlash maqsadida kuz-qish oylarida turistik marshrutlarda maxsus avtomobil va avtobuslardan foydalanish xavfsizliroq bo'lishiga e'tibor berish lozim.

Transport vositalarining harakatlanish tezligini chegaralashda turoperator yoki marshrutni o'tkazuvchi rahbar to'liq yo'l-transport qoidalariga binoan transport boshqaruvini nazorat qilib borishi shart.

Ovqatlantirish, joylashtirish va dam olish xizmatlari. Oilaviy turistlarni joylashtirish shaharlarda muammo emas. Turist yoki turistlarning hoxish-istaklariga qarab ularni turli darajadagi mehmonxonalarga joylashtirish mumkin. Joylashtirish muammolari shahardan uzoq masofalardagi turistik ob'ektlarga sayyohatlar davomida yuzaga keladi. Respublikamizda turizmni rivojlantirishdagi eng og'riqli, muammoli masala ham ekoturizm, arxeologik turizm, ovchilik turizm kabi turizm turlariga marshrutlar ishlab chiqishda yuzaga qalqib chiqadi. O'zbekistonning tabiat mintaqalariga turistik marshrutlar ishlab chiqilmayotganligining asosiy sabablari ham bu turistik makonlarda turistlar uchun tunash joylarining yo'qligidadir.

Ekoturizm, arxeologik turizm va ovchilik turizmini rivojlantirishni rejalashtirar ekanmiz birinchi navbatda oilaviy turistlarning tunashi (joylashtirish) sharoitlarini yaratishimiz kerak bo'ladi. Shaharlardan uzoqda bo'lgan turizm resurslarida (ekoturizm, rekreatsiya turizmi) oilaviy turistlar uchun tunash joylarini hozircha turistik bazalar yoki turistik lagerlar usulida

yaratish imkoniyatlari mavjud. Lekin, turizmda tadbirkorlikning kengaymayotganligidan bunday tunash joylari hozirgacha yaratilmayapti.

Agarda tabiat bag'ridagi ekoturizm maskanida (resursida) bunday tunash joylari yaratilganda edi. Oilaviy turistlarning ham tunash, ham dam olish va ovqatlantirish muammolari birdaniga hal qilingan bo'lardi. Bu muammoli holatdan chiqishning yagona yo'li ekoturizm, rekreatsiya turizmi yoki ovchilik turizmdagi turistik resurslarga marshrut ishlab chiqishda resursga yaqin joydagi aholi uylarini ijaraga olish hisoblanadi. Lekin, unutmaslik lozimki, xalqaro turistlar har qanday sharoitlarda ham tunab qolavermaydi. Shuning uchun ham bunday sharoitlardan mahalliy turizmdagi turistlarni joylashtirishda foydalanish mumkin.

Tabiat landshaftlaridagi turizm maskanlariga (resurslariga) marshrut ishlab chiqishdan oldin bunday joylarda turistik bazalar va turistik lagerlar barpo qilishga qat'iy ravishda kirishishimiz lozim. Turistik lagerlarni palatkali yoki yurta (cho'ponning qora uyi) usulida tezkor vaqtlarda mavsumlarga moslashtirib qurish imkoniyatlari juda katta.

Ovqatlantirish xizmatlari. Oilaviy turistlar shahar mehmonxonalariga joylashtirilganda ularni ovqatlantirish muammo emas. Chunki, oilaviy turist joylashgan mehmonxonada ham shaharning har bir ko'chasida ham turistning ehtiyojini qondiradigan restoran, kafe, oshxona va choyxonalar bor.

Shaharlar mehmonxonalarida joylashgan oilaviy turistlarni ovqatlantirishda xalqaro me'yorlardagi takliflar quyidagicha:

- to'liq pansion–3 marta ovqatlanish (nonushta, tushlik, kechki ovqat);
- yarim pansion–2 marotaba ovqatlanish (nonushta–tushlik, nonushta–kechki ovqat yoki tushlik–kechki ovqat);
- faqat nonushta;
- faqat tushlik;
- faqat kechki ovqatlanish.

Ovqatlanishda xizmatlar shakli quyidagicha:

- «Shved stoli»-o'z-o'ziga xizmat. Bu usulda restoran yoki oshxonada turli-tuman ovqat xillari tayyorlangan bo'ladi. Turistlar (mijozlar) o'zlari yoqtirgan ovqat va ichimlik xillarini xohlaganlaricha (ehtiyojalariga yarasha) olib yeb-ichishlari mumkin. Ovqatlanib bo'lgandan keyin turist (mijoz) idish-tovoqlarni yig'ishtirmaydi.
- «Tabldot»-hamma mijozlar uchun faqat bitta menyu tayyorlanadi (mijozlarga ovqat tanlash huquqi berilmaydi).
- «Alya kart»-restoran menyusida turistlar ovqat xilini erkin tanlaydilar.

Ovqatlanishning qaysi shakllari bo'lmasin shaharda va tuman markazlarida oilaviy turistlarni ovqatlantirish yuqorida qayd qilganimizdek muammo tug'dirmaydi. Faqat turistik marshrutda shaharda (tumanda) ovqatlantirish joyi va sharoitlari yozib qo'yilsa yetarli bo'ladi. Turistlarni ovqatlantirishdagi muammolar shaharlardan (tumanlardan) uzoq masofadagi turistik ob'ektlarga marshrut ishlab chiqishda qiyin vaziyatlarni keltirib chiqarmoqda. Shaharlardan uzoq masofalarda joylashgan turistik ob'ektda tunash muammosi yuqorida keltirildi. Bunday sharoitlarda ovqatlantirish ham ana shu muammoni takrorlamoqda. Qayd qilinganlardan quyidagi xulosalar hosil bo'ladi:

1. Turistik marshrut ishlab chiqishda agar marshrut ekoturizm, ovchilik turizmi, sarguzasht turizmi yoki g'orshunoslik va rekreatsiya turizmi mavzulari bo'yicha ishlab chiqilganda oilaviy turistlarni «palatka usuli»da ovqatlantirishni tashkil qilish mumkin. Bu usulda turistlarni qiziqtirish uchun milliy ekzotika variantini—ya'ni ko'chma qozon–tovoq usulida— «tabiat bag'rida tabiiylik» sharoitida ovqat tayyorlashda taklif etish va ovqatlantirish.

2. Qayd qilingan turizm mavzularida turistik marshrut ishlab chiqilganda turistik makonda—ob'ektda ovqatlantirishni turistik lager (mavsumiy–palatka usulida) tashkil qilish maqsadiga muvofiq.

3. Har qanday mavzuda turistik marshrut ishlab chiqishda marshrut davomida mineral suvlar, termosda issiq choy, sovutilgan choy va ekologik toza sharbatlar bo'lishligini ta'minlash shart.

4. Turistik marshrutda ekskursiyaga chiqilganda ekspeditsiya usulida ovqatlanishni (konservalar, qotirilgan kolbasalar, tushonkalar va hokazo...) issiq choy bilan tashkil qilish mumkin.

Marshrutdagi ekskursiya xizmatlari. Turistik marshrutda ekskursiya xizmatlarini tashkil qilish turning jizabador, qiziqarli o'tishini ta'minlaydi. Har qanday turistik marshrutda ekskursiyalarni tashkil qilish turoperatorning tadbirkorligiga bog'liq bo'ladi.

Hozirgi vaqtda shaharlardagi diqqatga sazovar joylarni ko'rishga va diniy ziyoratgoh maskanlarga kelib-ketuvchi turistlarni ekskursiyalarga taklif qilish deyarli yo'q hisoblanadi. Chunki bunday joylarga ham puxta tuzilgan turistik marshrutlar ishlab chiqilmagan. Eng afsuslanarli joyi shundaki, hozirgacha turistlarga turist yurmoqchi va ko'rmoqchi bo'lgan marshrut unga og'zaki holda taklif qilinmoqda. Shaharlardagi xotira bog'lari, o'lkashunoslik, xalqlar tarixi va hayvonot olami bilan bog'liq muzeylar, xalqimizning hunarmandchiligi ustaxonalariga mahalliy turizm ham, xalqaro turizm ham qiziqarli ekskursiyalar uyushtirishning katta imkoniyatlari deyarli barcha shaharlarimizda mavjud.

Shahar ichidagi turistik marshrutda albatta ekskursiya marshrutlari qo'yilishi lozim. Buning uchun shaharlardagi ekskursiya ob'ektlari to'liq ro'yxatga olinib undagi xizmatlarning turlari va baholari aniqlanishi lozim. Endi shaharlardan chiqish va uzoq masofalarga (ekoturizm, arxeologik yoki ovchilik turizmi kabilar) boriladigan turistik marshrutlarda albatta yo'l-yo'lakay ko'rib o'tiladigan ekskursiya marshrutlari bo'lishi marshrutni qiziquvchanligi, turli-tumanligini kuchaytiradi.

Chunki, uzoq masofaga avtotransportda to'xtovsiz yurish turistlarni toliqtiradi (ayniqsa tabiiy relyefi qariyb bir xil bo'lgan cho'l hududlaridan yurilganda). Uzoq masofalarga turistik marshrut ishlab chiqilganda dastlab yo'l va yo'l atrofida bo'lgan diqqatga sazovor joylar, tarixiy obidalar, buloqlar yoki qadimiy daraxtlar, soylar va boshqa to'xtash mumkin bo'lgan ob'ektlar haqida ma'lumotlar to'planadi.

Turistik marshrut tuzuvchi bu ob'ektlarning eng jozibador, qiziqtiruvchilariga ekskursiyalar uyushtirishini turistik marshrutga kiritishi turistning yo'lda zerikishining oldini oladi. Shu o'rinda yana bir muhim fikrni yodda saqlash lozimki, marshrut haqidagi bukletda yoki axborotnomada marshrut yo'li atrofidagi barcha diqqatga sazovor ob'ektlarning rangli rasmlari qisqacha izohda berilishi turistlarning ekskursiyalarni tanlashiga sharoit yaratadi.

Ekskursiyalarni tanlashda ob'ekt asosiy yo'ldan juda ham uzoq bo'lmasligiga e'tibor berish lozim. Ayniqsa, yo'lda bir piyola choy ichishni ham marshrutdagi ekskursiya ob'ekti sifatida tanlash mumkin. Bu holatda hozirgi vaqtda turli xil milliy taomlarimizni tayyorlayotgan choyxonalarga, oshxonalarga xalqaro turistlarni ham, ichki turistlarni ham taklif qilish mumkin. Agar marshrutning tushlik vaqti kelsa, turistlar bilan milliy taomlarimizning tayyorlanishi va uning mazaligi haqida to'xtash mumkin bo'lgan choyxonalar yoki oshxonalargacha qiziqarli suhbatlar uyushtirish ham mumkin³⁹.

Oilaviy turizm oilaviy munosabatlarni mustahkamlashning eng yaxshi usuli hisoblanadi. Ushbu turdagi ta'tilning asosiy maqsadi kundalik hayotda juda kam bo'lgan oila a'zolarining bir-biri bilan aloqalarini to'ldirishdir. Bu nafaqat jismoniy va aqliy kuchni tiklashga imkon beradi, balki insonlarning jamiyatdagi yanada ko'proq bahamjihat bo'lishiga yordam beradi.

Uchinchi bob bo'yicha xulosa

Bugungi kunda turizm sohasi taraqqiyotini axborot va kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etish qiyin. Sayyohlarni respublikamizga jalb etishdagi dastlabki qadamlar ularni mamlakatimizning turistik salohiyati to'g'risidagi axborot bilan tanishtirishdan boshlanadi, ayniqsa, keyingi yillarda ekologik turizm, ekstremal turizm, agroturizm, gastronomik turizm, oilaviy turizm, yoshlar turizmi va sohaning boshqa yo'nalishlarining rivojlanishi

³⁹ Хаитбоев Р., Экологик туризм. Ўқув қўлланма. Самарқанд, СамИСИ, 2017, 275 б.

turistlarni to'laqonli axborot bilan ta'minlash ehtiyojining yanada oshishiga olib kelmoqda. Soha rivojida esa mobil ilovalarni yaratish turistlar oqimini ko'paytirishga xizmat qiladi.

Mobil ilovalar nafaqat turizm sohasi uchun balki, boshqa sohalar rivoji uchun ham juda muhim hisoblanadi. Sababi har bir insonda doimo yangi bir ehtiyoj mavjud bo'ladi, bugungi raqamli iqtisodiyot rivojlanayotgan yangi davrda ushbu ehtiyojlarni qondirishda tez va aniq ishlaydigan mobil ilovalardan foydalanish muhim hisoblanadi. Mobil ilovalar pul ishlash va daromad olish uchun katta imkoniyatdir. Ushbu imkoniyatdan to'liq foydalanish uchun mobil dasturlarni ishlab chiqaruvchi kompaniyalar tajribasidan foydalanish muhimdir. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusning uchinchisi aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan bo'lib, mobil ilovalarni yaratish va sohada qo'llash uchun katta imkoniyatdir. Davlatimiz rahbari tomonidan yosh avlodni tarbiyalash ishlariga bunday aniq va maqsadli yondashuv, tizimli va tartibli qat'iy munosabat barcha soha vakillarini, shuningdek, keng aholi qatlami, ayniqsa, yoshlarni yanada sergaklantirib, daxldorlik hissi va mas'ulligini oshirmoqda. Oliy hamda ezgu maqsadlar sari bir yoqadan bosh chiqarib, birgalikda harakat qilish, o'zaro qo'llab-quvvatlash orqali yuqori natijalarga erishish, yurt taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga undamoqda.

O'zbekistonda oilaviy turistlarga xizmat ko'rsatishni takomillashtirish orqali oilaviy dam olishga bo'lgan qiziqish ortib borishiga, xorijiy oilaviy turistlarni jalb qilinishiga, oilaviy munosabatlarning mustahkamlanishuviga, ajralishlarning oldini olinishiga, yangi ish o'rinlari ochilishiga, mahalliy aholining turmush darajasini yaxshilanishiga, yangidan-yangi obyektlar, dam olish maskanlari ko'payib borishiga, eng muhimi kelajak avlodga dunyoqarashi keng, yetuk va barkamol avlodlar yetkazib berilishiga zamin yaratgan bo'lar edik.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning [“O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash](#)

chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2016-yil 2-dekabrda PF-4861 sonli farmoni mamlakatimizda turizmni rivojlantirishda tub burilishni, yangi bosqichning zaminini, turizmda istiqbolli islohotlarning, yo'nalishlarning sharoitlarini yaratdi. Prezident farmonida: "Mamlakatda turizmni jadal rivojlantirish, mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish, an'anaviy madaniy-tarixiy turizm bilan birgalikda turizmning boshqa salohiyatli turlarini — ziyorat qilish, **ekologik**, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolash-sog'lomlashtirish, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik turizmi va boshqa turlarini jadal rivojlantirish, bolalar, o'smirlar va yoshlar turizmini, **oilaviy turizmni**, keksalar uchun ijtimoiy turizmni rivojlantirish hisobiga turizmning ijtimoiy ahamiyatini kuchaytirish, hududlarda yangi turizm yo'nalishlarini tashkil etish, ularni pasportlashtirish, turizm yo'nalishlari va turizm obyektlari bo'yicha yagona milliy reyestrlarni shakllantirishga yo'naltirilgan ichki, kirish va chiqish turizmini kompleks rivojlantirishning milliy va hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish", belgilangan.

Bu farmon mamlakatimizda turizmning barcha turlarini bir tekis rivojlantirish masalalarini tadbir qilishga, turizmni hududiy va mintaqaviy rivojlantirish uchun asosiy dastur bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtai-nazardan va Farmonda ekologik va oilaviy turizmni rivojlantirish alohida ta'kidlanganligi ham ekologik turizmni jadal rivojlantirishning jiddiy muammolarini aniqlashimiz va bu muammolarning yechimlarini ishlab chiqishning ilmiy-amaliy tatqiqotlarini kuchaytirishimizning vaqti keldi.

Ekoturizm – tabiat turizmining barchasini o'zida mujassamlashtirib, tabiiy hududlarga ma'suliyat bilan sayohat qilish natijasida tabiatni muhofaza qilishni ta'minlaydi va mahalliy xalqning turmush darajasini yaxshilaydi.

Xalqaro ekoturizm tashkiloti (TIES) – "Ekoturizm – tabiat mintaqalariga mahalliy aholining farovonligini quvvatlovchi, atrof-muhitni saqlovchi ma'suliyatli sayohatdir" – deb ta'rif bergan⁴⁰.

⁴⁰Халқаро ташкилотларнинг экотуризм бўйича таърифлари Ҳайитбоев Р., Матяқубов У., Экологик туризм, услубий қўлланма, Самарқанд, 2010, 60 б, бўйича берилди

Yuqorida keltirilgan mulohaza va fikrlarni jamlab biz oilaviy turistlarning ekologik turizmni amalga oshirganda quyidagilarni o'rganishi va his qilishi mumkinligini aytishimiz mumkin: **Oilaviy ekoturizm** – faqat tabiat bag'rida oilaviy dam olish, o'rganish, kuzatish, tomosha qilish va zavqlanish natijasida tabiatni, biologik xilma-xillikni saqlash, muhofaza qilish tadbirlariga ixtiyoriy moddiy yordam berishga qaratilgan, mahalliy aholining milliy madaniyatini, me'rosiy an'analarini, yashash tarzini hurmat qilishga asoslangan, oilaviy ekoturistlar uchun barcha turistik xizmatlarni taqdim etish imkoniyatiga ega bo'lgan turistik faoliyatdan iboratdir.

Oilaviy turizm oilaviy munosabatlarni mustahkamlashning eng yaxshi usuli hisoblanadi. Ushbu turdagi ta'tilning asosiy maqsadi kundalik hayotda juda kam bo'lgan oila a'zolarining bir-biri bilan aloqalarini to'ldirishdir. Bu nafaqat jismoniy va aqliy kuchni tiklashga imkon beradi, balki insonlarning jamiyatdagi yanada ko'proq bahamjihat bo'lishiga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oilaviy turizm – bu oila aʼzolarining (bolalarsiz yoki bolalar bilan) yoki bir-nechta oila guruhlarining doimiy istiqomat joyidan uzoqda, boʻsh vaqtlarida va oʻz xohishlari bilan, sogʻlomlashtirish, dam olish, hordiq chiqarish, tanishish, bir-biri bilan ruhan yaqinlashish maqsadlarida birgalikda vaqt oʻtkazish, turizm maqsadlarini amalga oshirish va oilaning har bir aʼzosining ehtiyojini toʻlaqonli qondirishidir.

Olaviy turistlarga xizmat koʻrsatishning bir necha oʻziga xos xususiyatlarini inobatga olib, oilaviy turistlar uchun turmarshrut tuzayotganida turoperatorlar quyidagilarga rioya qilishlari kerak:

Birinchidan, ushbu turizm turida transport vositalaridan foydalanishda qulaylik boʻlishi kerak. Tanlangan transport turida bolalar uchun maxsus oʻrindiqlar, bolalar uchun yengil va qiziqarli taomlar, bolalarni zeriktirmaydigan maxsus texnikalar (bolalar eshitadigan musiqalar, multfilimlar, bolalar kinolari koʻrish uchun) va eng muhimi xavfsiz yoqilgʻi vositalaridan foydalangan boʻlishi zarurdir.

Ikkinchidan, joylashtirish vositalarini tanlashda ham joylashadigan mehmonxona oilaviy turistlar uchun maxsus xizmatlarni yetkaza olishi kerak, mehmonxonada oilaviy turistlarni qabul qilish uchun maxsus nomerlar yoki kravatchalar, bolalar oʻyin xonasi, kalibellar, xadunoklar, kalyaskalar, bolalar oʻynashi uchun maydonchalar, bolalar uchun baseynlar boʻlishi, sport xonalari, bolalarning ovqatlanishi uchun bolalar menyulari, vrach – pediatrik xizmatlari, enaga xizmati, animatrik xizmatlari, va albatta maxsus chegirmalar boʻlishi kerak.

Uchinchidan, ovqatlanish korxonalarida ham bolalar uchun maxsus stol va stulchalar, bolalar menyusi, yosh bolalar uchun maxsus bolalar boʻtqalari, oʻyin xonasi, farzandli ota - onalar tashrif buyurganda enagalik xizmati, formatevtika xizmati mavjud boʻlishi kerak albatta.

To'rtinchidan, ekskursiya obyektlarini tushuntirayotganda ham ekskursiya matni har qanday yoshdagi odamlar uchun tushunarli bo'lishi kerak. Ekskursiya faqat kattalar uchun bo'lsa, u holda bolani bo'sh vaqtida bolalar xonasida professional o'qituvchilar nazorati ostida qoldirish imkoniyati bo'lishi kerak.

Beshinchidan, oilaviy turistlar qabul qilinganda xavfsizlik darajasiga alohida e'tibor berish kerak bo'ladi. Sababi oila a'zolari ichida turli yoshga ega insonlar (yoshi kattalar, yosh bolalar) bo'lishi mumkin. Shunday ekan sug'urta xizmatlarini amalga oshirish ham zarur hisoblanadi.

Oiladagi totuvlik va yosh avlodning umummadaniy, ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda ziyorat turizmining ham ahamiyati kattadir. Chunki oilaviy ziyorat qilish oiladagi muhitni yaxshilashga, bolalarning dinga bo'lgan hurmatini oshirishga, muqaddas joylarni o'rganishiga yordam beradi. Afsuski, mamlakatimizda oilaviy (bobo-buvilar va bolalar bilan) ziyorat qilish uchun ular tanlagan qadamjolarida barcha shart-sharoitlar mavjud emas. Bu bilan barchasida yo'q demoqchi emasman, lekin, ko'pgina ziyoratgohlarimizda hatto yetarlicha stolchalar mavjud emas. Oilaviy turistlar uchun ziyoratgohlarimizda yaratilishi kerak bo'lgan shart sharoitlar haqida quyidagi takliflarimizni berib o'tmoqchimiz:

Birinchidan, barcha ziyoratgohlarimizda yetarlicha o'tirish uchun stollar, yozgi ayvonlar bilan ta'minlanishi kerak;

Ikkinchidan, ziyoratgohlarimizda maxsus bolalar xonasi va enagalik xizmatini tashkillashtirishimiz kerak, bu ota-onaning bemalol ibodat qilishiga imkoniyat yaratadi va bo'sh ish o'rinlari yaratiladi;

Uchinchidan, ziyoratga kelgan turistlar uchun ziyoratxona tashqarisida do'kon bo'lishi kerak, do'konda bolalarni ma'naviyatini yuksaltiradigan, diniy qarashlarini kengaytiradigan bolalar va kattalar uchun kitoblar sotilishi kerak va bolalarga kerak bo'ladigan oziq-ovqat (bolalar bo'tqasi, bolalar pechenyesi) va nooziq ovqat (bolalar tagligi, o'yinchoqlar) mahsulotlari ham bo'lishi kerak;

To'rtinchidan, ziyoratxona atrofida oilaning har bir a'zosi uchun mo'ljallangan barcha xizmatlarga ega ovqatlanish korxonasi ham bo'lishi kerak.

Bu korxonada bolalar va kattalar uchun alohida menyu yaratilgan bo'lishi darkor.

Qadimiy obidalar, muqaddas ziyoratgohlar, tarixiy va madaniy yodgorliklar bilan bir qatorda, betakror madaniyati va an'analari, xushmanzara tabiati hamda fayzli go'shalari bilan sayyohlarni o'ziga rom etib kelayotgan mamlakatimizda ziyorat turizmi yo'nalishida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar turizm industriyasi hamda infratuzilmasini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda, shunga qaramay ushbu turizm turida ba'zi bir kamchiliklar yo'q emas albatta. Ushbu kamchiliklarni bartarf etib, kelgusida ko'plab ziyoratchilarni mamlakatimizga jalb etsak, mamlakatimizda ziyorat turizmini yanada rivojlantirilishiga erishamiz.

Bundan tashqari, turizm bozorini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog'liq bo'lgan quyidagi ishlarni amalga oshirish:

- axborot-targ'ibot kompaniyasini o'tkazish va turli ommaviy-axborot vositalarida O'zbekiston turizmi haqida ijtimoiy reklamalarni tarqatish;
- foto va videomateriallar bankini yaratish;
- Internet tarmog'ida mamlakatimizning turistik imkoniyatlari haqidagi markazlashtirilgan va alohida axborot resurslari hamda turistlar, turoperatorlar va turizm sohasining investorlari uchun axborot portallari sonini oshirish;
- tashqi va ichki turizmni rivojlantirishni axborot orqali qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish uchun mamlakatimiz va chet eldagi turistlar uchun axborot markazlari tarmog'ini yaratish;
- turistlarni o'ziga jalb etish markazlarida axborot punktlari tarmog'ini yaratish va boshqalar bugungi kunning dolzarb vazifalaridan sanaladi⁴¹.

Shu o'rinda oilaviy turizmni amalga oshirish yil sayin ommalashib borayotganligini ta'kidlab o'tishni joiz topdik. Sababi har qanday inson biror

⁴¹ <http://uz.infocom.uz/2017/06/01/turizm-taraqqiyotida-axborot-va-kommunikatsiya-texnologiyalari/>
(ma'lumot olingan sana: 01.05.2019)

safarga yoki sayohatga, yoxud dam olishga chiqmoqchi bo'lsa, albatta, oila davrasida bo'lishni, yangi ta'surotlarni oila bilan bahamjihat baham ko'rishni maqul deb biladi. Turist oilaviy sayohatni tanlaganidan keyin, eng ko'ngil ochar, eng mukammal, xavfsiz turni sotib olishni xohlaydi, uning xohishini qondiradigan, eng sifatli va hamyonbop turni sotib olish uchun u internet tarmog'ining qidiruv tizimlaridan foydalanadi.

Shuning uchun mamlakatimizda oilaviy turizmni amalga oshirishni xohlovchilar uchun turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi qoshida "Oilaviy Sayohatlar (Family travels)" deb nomlangan oilalar uchun barcha ma'lumotlarni to'liq va aniq yoritib beradigan internet portali tuzishni taklif etgan bo'lar edik. Bu tashkilot o'zining maxsus internet sahifasiga ega bo'lib, oilaviy turizmni maqsad qilib qo'ygan turistlarimiz uchun barcha yangiliklar, chegirmalar, ko'ngil ochish joylari, oilaviy turistlar uchun barcha xizmatlarni taklif eta oladigan ovqatlanish korxonalari, joylatirish vositalari va transportlar haqida ma'lumotlarni yetkazib borar edi.

Keyingi o'rinlarda barcha turistik firmalar va turagentliklar oilaviy turizmni amalga oshiradigan sayyohlarimiz uchun alohida brashuralar va turistik xaritalar ishlab chiqarishni amalga oshirishlarini taklif etgan bo'lar edik.

Mobil ilovalar nafaqat turizm sohasi uchun balki, boshqa sohalar rivoji uchun ham juda muhim hisoblanadi. Sababi har bir insonda doimo yangi bir ehtiyoj mavjud bo'ladi, bugungi raqamli iqtisodiyot rivojlanayotgan yangi davrda ushbu ehtiyojlarni qondirishda tez va aniq ishlaydigan mobil ilovalardan foydalanish muhim hisoblanadi. Mobil ilovalar pul ishlash va daromad olish uchun katta imkoniyatdir. Ushbu imkoniyatdan to'liq foydalanish uchun mobil dasturlarni ishlab chiqaruvchi kompaniyalar tajribasidan foydalanish muhimdir. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusning uchinchisi aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan bo'lib, mobil ilovalarni yaratish va sohada qo'llash uchun katta imkoniyatdir.

Davlatimiz rahbari tomonidan yosh avlodni tarbiyalash ishlariga bunday aniq va maqsadli yondashuv, tizimli va tartibli qat'iy munosabat barcha soha vakillarini, shuningdek, keng aholi qatlami, ayniqsa, yoshlarni yanada sergaklantirib, daxldorlik hissi va mas'ulligini oshirmoqda. Oliy hamda ezgu maqsadlar sari bir yoqadan bosh chiqarib, birgalikda harakat qilish, o'zaro qo'llab-quvvatlash orqali yuqori natijalarga erishish, yurt taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga undamoqda.

O'zbekistonda oilaviy turistlarga xizmat ko'rsatishni takomillashtirish orqali oilaviy dam olishga bo'lgan qiziqish ortib borishiga, xorijiy oilaviy turistlarni jalb qilinishiga, oilaviy munosabatlarning mustahkamlanishuviga, ajralishlarning oldini olinishiga, yangi ish o'rinlari ochilishiga, mahalliy aholining turmush darajasini yaxshilanishiga, yangidan-yangi obyektlar, dam olish maskanlari ko'payib borishiga, eng muhimi kelajak avlodga dunyoqarashi keng, yetuk va barkamol avlodlar yetkazib berilishiga zamin yaratgan bo'lar edik.

Mamlakatimizda oilaviy turizm turlariga qiziqish yil sayin ommalashib borayotganligini inobatga olib, oilaviy turizmni amalga oshirishni xohlovchilar uchun Turizmni Rivojlantirish Davlat qo'mitasi hamda Samarqand Iqtisodiyot va Servis instituti "Turizm" kafedrası yordamida "Oilaviy Sayohatlar uchun" (Travels for families)" deb nomlangan, oilalar uchun barcha ma'lumotlarni to'liq va aniq yoritib beradigan mobil ilova yaratishni taklif etgan bo'lar edik. Bu mobil ilova sayohatni oilaviy amalga oshirishni xohlovchi turistlar uchun barcha xizmatlarni taklif eta oladigan ovqatlanish korxonalari, joylatirish va transport vositalari, yangiliklar, chegirmalar, ko'ngil ochish joylari haqida ma'lumotlarni yetkazib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2014 y.
2. O'zbekiston Respublikasining “Turizm to'g'risida”gi Qonuni (1999 yil 20 avgust). O'zbekistonning yangi qonunlari. – T.: Adolat, 2000 y.
3. O'zbekiston Respublikasining “Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida”gi Qonuni (2012 yil 26 aprel).

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlari

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrda
“O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash
chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-4861-sonli Farmoni// “Lex.uz”.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda
“O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar
strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi
qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-dekabrda
yilda rasmiy sanalarni nishonlash davrida qo'shimcha ishlanmaydigan kunlarni
belgilash va dam olish kunlarini ko'chirish to'g'risida» gi PF-5290-sonli
Farmoni. //“Lex.uz”.

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3-fevralda
“O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay
sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora tadbirlar to'g'risida” gi
PF-5326-sonli Farmoni. //“Lex.uz”.

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrda
“O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini
tashkil etish to'g'risida”gi PQ-2666-sonli Qarori//“Lex.uz”.

6 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 fevraldagi «Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3509-sonli Qarori//“Lex.uz”.

7 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7-fevraldagi “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3614-sonli Qarori//“Lex.uz”.

8 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 martdagi «2018-2019 yillarda Samarqand viloyatida turizmni yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3609-sonli Qarori. //“Lex.uz”.

III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi “Turizm faoliyatini litsenziyalash to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 189-sonli Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-5326-sonli farmoni ijrosini ta'minlash to'g'risidagi Qarori

IV. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ma'ruzalari

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. “Xalq so'zi” gazetasi 2017 yil 23 dekabr.

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 29 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 47 b.

V. Mamlakatimiz va xorijiy olimlarning adabiyotlari

1. Boltabayev M.R., Tuxliyev I.S., Safarov B.Sh., Abduxamidov S.A. Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik. – T.: “Fan va texnologiya”, 2018 y.
2. Tuxliev N., Abdullaeva T. Formalnosti v sisteme turizma Respubliki Uzbekistan - T: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2007.
3. Tuxliev N., Abdullaeva T. Menedjment i organizatsiya biznesa v turizme Uzbekistana. – T.: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006.
4. Tuxliev N., Abdullaeva T. Natsionalnie modeli razvitiya turizma –T.: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006.
5. Tuxliev N., Abdullaeva T. Osnovi bezopasnosti v turizme. –T.: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2008.
6. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm. Darslik. – T.: “Fan va texnologiya”, 2014. – 389 b.
7. Tuxliyev I.S., Qudratov G'.H., Pardaev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik. – T.: «Iqtisod-moliya» 2010 – 263 b.
8. Tuxliyev I.S., Ibadullaev N.E. Turizm operatorlik xizmatini tashkillashtirishning asoslari. O'quv qo'llanma. – S.: SamISI, 2011.– 256 b.
9. Tuxliyev I.S, Qudratov G'.H., Turizm iqtisodiyoti. –S.: SamISI, 2007.
10. Tuxliyev I.S., A.B.Bektemirov, Z.I.Usmanova. Turizmda strategik marketing. O'quv qo'llanma. – S.: SamISI, 2010 y.- 144 b.
11. Tuxliyev I.S. va boshqalar. “O'zbekistonda turizm xizmat bozorini rivojlantirishning ijtimoiy – iqtisodiy muammolari” nomli monografiya. T.: “Iqtisodiyot” 2012.
12. Golysheva E.V., Ivonina N.V., Tuxliev I.S., Temirxodjayev A.P. Turizm sohasida ishlatiladigan zamonaviy atamalar lug'ati: Ma'lumotnoma-uslubiy qo'llanma. Samarqand: Zarafshon, 2018 - 408 b.
13. Hayitboev R., Haydarov S., Abduxamidov S., Daminov M., Xamitov M. Turizm marshrutlarini ishlab chiqish. O'quv qo'llanma. – S.: SamISI, 2016.- 176b.

14. Mamatqulov X.M. Turizm infratuzilmasi. O'quv qo'llanma. – T.: «O'zbekiston faylafuslar jamiyati» nashriyoti, 2011.-273b.
15. Mamatqulov X.M. Xizmat ko'rsatish sohasiga oid atamalar va iboralar izohli lug'ati. T.: "Iqtisod-moliya" 2010 - 372 b.
16. Safarov B.Sh. Mintaqaviy turizm xizmat bozorining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish // Monografiya. - Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 2013. - 150 bet.
17. Safarov B.Sh. Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari // Monografiya. - Toshkent: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2016. - 184 bet.
18. Safarov B.Sh. Milliy turistik xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish /dis... i.f.d. Samarqand-2016.
19. Ibadullayev N.E. Turistik resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari (Samarqand viloyati misolida)/dis... i.f.n. Samarqand-2010.
20. Raximov Z.O. Turizm destinatsiyalarida strategik rejalashtirishning tashkiliy mexanizmini takomillashtirish (Samarqand shahri misolida) /dis... i.f.n. Samarqand-2012.
21. Amriddinova R.S. Mehnat resurslarini boshqarish asosida turizm xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari (Samarqand viloyati turizm korxonalari misolida) /dis... i.f.n. Samarqand-2012.
22. Alimova M.T. "Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida)". Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. 2017 y.
23. Hayitboev R., Haydarov S., Abduxamidov S., Daminov M., Xamitov M. Turizm marshrutlarini ishlab chiqish. O'quv qo'llanma. – S.: SamISI, 2016.-176b.
24. Norqulova D. "O'zbekistonda sotsial turizm xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish"

mavzusidagi iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (doctor of philosophy) dissertatsiyasi. 2018 y.

25. O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasining "Osnovie pokazateli razvitiya turizma i otdixa v respublike Uzbekistan v 2016 godu" nomli statistik byulleteni ma'lumotlari.

26. Беляков О.И. Семейный туризм как форма досуговой деятельности / О. И. Беляков, И. В. Мещерякова // Известия Пензенского пед. университета им. В.Г. Белинского, 2012. № 28. С. 5-6.

27. Болотова М.И. Организация семейного досуга в образовательной среде учреждения дополнительного образования детей: учебное пособие / М. И. Болотова. Москва: компания Спутник+, 2015. 114 с.

28. Жухова В.В., Римская Т.Г. Туроперейтинг: Учебное пособие. / Римская-Находка: филиал ФГБОУ ВПО «ВГУЭС» в г. Находке, 2014. – 128 с.

29. Игнатьева И. Ф. Организация туристской деятельности: учебное пособие / И. Ф. Игнатьева. Москва: КноРус, 2015. 30 с.

30. Ильина Е.Н. Организация деятельности туризма [Электронный ресурс] / Е.Н. Ильина // Все о туризме: туристическая библиотека. Режим доступа: www.aviacapital.ru/

31. Инновации в сфере туризма [Электронный ресурс] // Официальный сайт ведущих поставщиков передовых решений в области информационных технологий в туризме. Режим доступа: <http://www.amadeus.ru/>

32. Отдых с детьми [Электронный ресурс] // РоссТур: официальный сайт. Режим доступа: <http://www.rosstur-ekb.ru/nashi-sovety/otdyh-s-detmi.html>

33. Проект «Уральского Диснейленда» [Электронный ресурс] // Екатеринбург он-лайн. Режим доступа: http://www.e1.ru/news/spool/news_id-398690-section_id-147.html

34. Семейный туризм, особенности, организация и география семейного туризма [Электронный ресурс] Режим доступа: <http://travelluxtour.info>

VI. Internet saytlari

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portali
2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. www.press-service.uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati rasmiy sayti
4. www.mfer.uz – O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo Vazirligining rasmiy sayti
5. www.uza.uz – O'zbekiston milliy axborot agentligi rasmiy sayti
6. www.review.uz – “Ekonomicheskoe obozrenie” jurnalining rasmiy sayti
7. www.cer.uz – Iqtisodiy tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti
8. www.uzreport.com – biznes axborotlari portali
9. www.yeurasianews.com – Yevro-Osiyo tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti
10. www.ziyonet.uz – Milliy kutubxona portal
11. www.aviacapital.ru/ - Организация деятельности туризма
12. <http://travelel.ru/organizaciya-semeynogo-turizma>
13. <http://travelel.ru/organizaciya-semejnego-turizma>
14. http://www.e1.ru/news/spool/news_id-398690-section_id-147.html
15. <http://www2.unwto.org/ru/home> - Butunjahon Turizm tashkilotining rasmiy sayti
16. <https://kun.uz/uz/132717> - Tezkor yangiliklar rasmiy sayti